

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

SULTONBEK NORMAMATOV

LEKSIKOGRAFIYA ASOSLARI

**5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi
uchun**

O‘quv qo‘llanma

**“Nodirabegim” nashriyoti
Toshkent – 2021**

KBK: 81.2-3
N 79
UO‘K: 81'374(075)

ISBN 978-9943-7317-3-8

Normamatov, Sultonbek

“Leksikografiya asoslari [Matn] : O‘quv qo‘llanma / S.Normamatov.
- Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 120 b.

O‘quv qo‘llanmada leksikografiya masalalari, lug‘at tuzish an‘analari, tamoyillari; turli tipdagi lug‘atlar yaratish, ularni tadqiq etish, tarixiy va zamonaviy lug‘atlarning tuzilish tamoyillari, ularning qiyosiy tahlili xususida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, o‘zbek lug‘atchiligining tadrijiy taraqqiyoti: XI-XII asrlarda turkiy lug‘atchilik, XIII-XIV asrlar o‘zbek lug‘atchiligi, o‘zbek lug‘atchiligining eski o‘zbek tili davri, XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr o‘rtalarida o‘zbek lug‘atchiligi hamda mustaqillik davri o‘zbek lug‘atchiligi kabi davrlarga ajratilgan holda nazariy o‘rganilgan. Jahon va o‘zbek leksikografiyasida zamonaviy elektron lug‘atlarning yaratilishi, ularning amaliy ahamiyati haqida ham ma‘lumotlar berilgan.

O‘quv qo‘llanma 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi “Leksikografiya asoslari” fani o‘quv dasturi asosida yaratilgan. Undan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari, magistrantlar hamda lug‘atshunoslik bilan qiziquvchi mutaxassislar foydalanishi mumkin.

Mas‘ul muharrir:

Yormat Tojiyev – filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Samixon Ashirboyev – filologiya fanlari doktori, professor.

Nosirjon Uluqov – filologiya fanlari doktori, professor.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining
2020-yil 28-dekabrda 676-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya
etilgan.

© **Normamatov S.**

© **“Nodirabegim” nashriyoti, 2021.**

KIRISH

Ma'lumki, o'zbek tilini ilmiy asosda o'rganishga oid ilk ma'lumotlar leksikografiya sohasidagi qadimgi lug'atlarda kuzatiladi. Lug'atchilik o'zbek adabiy tilining shakllanish davridan boshlab, keyingi barcha davrlarda ham doimo adiblar, ziyolilar, tilshunoslar diqqat markazida bo'lib kelgan. Mahmud Koshg'ariy XI asrdayoq turkiy so'zlar boyligini arab tilida izohlab o'sha davrgacha xalqimiz yaratgan lisoniy boylikni bizga buyuk meros sifatida qoldirgan bo'lsa, bu an'ana keyingi davrlarda Mahmud Zamaxshariyning "Asos ul-balog'a", Muqddimat ul-adab" (XII asr), Tole Imon Xiraviyning "Badoye' ul-lug'at" (XV asr), Muhammad Yoqub Chingiyning "Kelurnoma" (XVII asr), Muhammad Rizo Xoksorning "Muntaxab ul-lug'ot" (XVIII asr), Mirzo Mehdiyxonning "Sangloh" (XVIII asr), Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy" (XIX asr) hamda muallifi noma'lum bo'lgan "At-tuhfat uz-zakiyati f-il-lug'at it-turkiya" (XIII asr), "Abushqa" (XVI asr) kabi turkiy lug'atchilikning ko'plab noyob durdonalari yaratilishi bilan davom etib keldi va bu lug'atlar tilshunos olimlar tomonidan yetarlicha tadqiq etildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarda o'zbek tilining Davlat tili sifatidagi o'rni va maqomini mustahkamlash, uning mavqeyini ko'tarish, ta'lim muassasalarida o'qitish tizimini takomillashtirish, o'zbek tilining asl tabiati va xususiyatlarini to'la aks ettiradigan mukammal akademik va o'quv grammatikalarini yaratish, turli soha va yo'nalishlar bo'yicha lug'at va qomuslar, risola va darsliklar yaratish kun tartibiga qo'yilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risidagi" PF-4797-sonli, 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli, 2020-yil 20-oktyabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmonlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar bu yo'nalishdagi ishlarda dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda “leksikografiya” tilshunoslikning alohida sohasi ekanligi qayd etilsa-da, “leksikologiya” tarkibida o‘rganilib, ta’lim bosqichlarida o‘qitib kelindi. 2016/2017-o‘quv yilidan boshlab Oliy o‘quv yurtlari 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga “Leksikografiya asoslari” fani kiritildi. Fanning asosiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda qo‘llanmada leksikografiya masalalari, lug‘at tuzish an‘analari, tamoyillari; turli tipdagi lug‘atlar yaratish, ularni tadqiq etish, tarixiy va zamonaviy lug‘atlarning tuzilish tamoyillari, ularning qiyosiy tahlili xususida fikrlar bildirilgan.

Shuningdek, o‘zbek lug‘atchiligining tadrijiy taraqqiyoti: XI-XII asrlarda turkiy lug‘atchilik, XIII-XIV asrlar o‘zbek lug‘atchiligi, o‘zbek lug‘atchiligining eski o‘zbek tili davri, XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr o‘rtalarida o‘zbek lug‘atchiligi hamda mustaqillik davri o‘zbek lug‘atchiligi kabi davrlarga ajratilgan holda nazariy o‘rganilgan. Jahon va o‘zbek leksikografiyasida zamonaviy elektron lug‘atlarning yaratilishi, ularning amaliy ahamiyati haqida ham ma’lumotlar berilgan.

Qo‘llanmada turkiy lug‘atchilikning XI-XII asrlarda shakllanishi, XIII-XIV asrlar o‘zbek lug‘atchiligining takomili, eski o‘zbek tili davridagi taraqqiyotiga oid masalalarni yoritishda o‘zbek leksikografiyasiga oid mavjud ilmiy adabiyotlarga (И.Қўчқортоев., Б.Исабеков. Туркий филологияга кириш. – Тошкент, 1984; А.Нурмонов. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002) tayanildi, ulardagi ma’lumotlar mazmuni to‘ldirilib, mustaqillik yillarida o‘zbek tilshunosligi fanida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida boyitildi.

O‘zbek milliy tili, zamonaviy o‘zbek leksikografiyasining shakllanishi va rivojida XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi davr alohida o‘rin tutadi. O‘zbek leksikografiyasida yaratilgan mavjud ilmiy manbalar, o‘quv adabiyotlarida mazkur davr lug‘atchiligi haqida sho‘roviy mafkura ta’sirida yetarlicha ma’lumotlar keltirimagan edi. Qo‘llanmada bu masalaga alohida e’tibor qaratilgani holda davr lug‘atchiligi shakllanishidagi ijtimoiy ehtiyoj, davr lug‘atchiligi manbalari, bir tilli va ko‘p tilli tarjima lug‘atlarining takomillashuv jarayoni, dastlabki terminologik va o‘quv lug‘atlarining yuzaga kelishi kabi masalalarga keng o‘rin ajratildi. Bunda Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy,

Elbek, Ishoqxon Ibrat, Nazir To‘raqulov kabi jadid ma‘rifatparvarlarining lug‘atchilik faoliyatlari tahlili asosida o‘zbek zamonaviy leksikografiyasining asoslari aynan jadid ma‘rifatparvarlari tomonidan yaratilganligiga oid ilmiy asoslangan xulosalar berildi.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi, yangi tahrirdagi “Davlat tili haqida”gi qonunning qabul qilinishi o‘zbek tilshunosligining yanada rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratdi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘zbek leksikografiyasi rivojiga ham ta‘sir ko‘rsatdi. O‘zbek leksikografiyasida mustaqillik davrida ko‘plab yangi turdagi lug‘atlar paydo bo‘ldi. Qo‘llanmada mustaqillikdan keyingi davrda yaratilgan lug‘atlar, ularning turlari, yaratilish tamoyillarini tavsiflashda tilshunos olim, filologiya fanlari nomzodi A.Madvaliyevning ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanildi (Мадвалиев А. Ўзбек лексикографияси тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 2008. -№6; Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. Тўплам. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017).

Axborot-kommunikatsion texnologiyalarning jadal rivoji tilshunoslik, xususan, leksikografiya sohasida ham yangi tipdagi lug‘atlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratmoqda. Kompyuter tarjiması, tahriri, tahlili, elektron lug‘atlar va tezaurus (til xazinası)larning yaratilishi fikrimizning dalili. Ayniqsa, zamonaviy elektron lug‘atlarni yaratish, undan foydalanish madaniyatini shakllantirish til imkoniyatini egallashda samarador ekanligini asoslashga hojat yo‘q. Qo‘llanmada o‘quv dasturidagi mavzularga muvofiq leksikografiyaning bunday zamonaviy yo‘nalishlari, ularning hozirgi rivojlanish bosqichdagi holati xususida filologiya fanlari doktori, professor B.Mengliyevning ilmiy izlanishlaridan foydalanilgan holda ma‘lumotlar berildi. Har bir mavzu yakunida berilgan muammoli savollar, nazorat test topshiriqlari talabalarning mavzu bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi deb o‘ylaymiz.

Bugungi kunda Oliy o‘quv yurtlarining Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili, O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarida “Leksikografiya asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmaga ta‘limiy ehtiyoj mavjudligi inobatga olinib, qo‘llanma ilk bor yaratildi. Uni takomillashtirish ishlari yana davom etadi.

“LEKSIKOGRAFIYA ASOSLARI” FANINING VUJUDGA KELISHI, O‘RGANISH OB‘EKTI VA PREDMETI

Reja

1. Lug‘atchilik tarixi va uning o‘rganilishi.
2. Lug‘at tuzish tamoyillari.
3. Lug‘at maqolalarining joylashtirish tartibi. Lug‘at maqolalari sxemalari.
4. Lug‘at turlari.

Tayanch so‘z va iboralar: *leksikografiya, lug‘atchilik, so‘zlik, lug‘at tuzish tamoyillari, didaktik tamoyil, lingvodidaktik tamoyil, bosh ma‘no, hosila ma‘no, qomusiy lug‘at, filologik lug‘at, tanlab-saralab olish tamoyili.*

Lug‘at – so‘z, frazema, parema, morfema va boshqalarning belgilangan maqsadga ko‘ra, ma‘lum qonuniyat hamda ehtiyoj asosida tartibga solingan yig‘indisi, leksikografiya – lug‘at va uning tuzilishi, yaratilish tamoyillari haqidagi bilim – ta‘limot. Leksikografiya – yunoncha “lexis” – *so‘z*, “grapho” – *yozaman, yozish, yozilgan* kabi ma‘nolarni ifodalaydi.

Ilmiy adabiyotlarda lug‘atchilik tilshunoslikning alohida sohasi hisoblansa-da, aslida leksikologiya bilan bevosita aloqadordirligi aytiladi¹. Chunki leksikada, avvalo, tilning lug‘at tarkibi, shuningdek, so‘z ma‘nosi, uning iste‘mol darajasi, nutq, uslub hamda shakl va mazmunga munosabati kabilar o‘rganiladi.

Leksikografiya tilshunoslikning lug‘at tuzish bilan shug‘ullanuvchi va u bilan aloqador bo‘lgan masalalarni o‘rganuvchi sohasi, “*lug‘atchilik*” deb ham yuritiladi. Aslida *leksikografiya* va *lug‘atchilik* tushunchalari farqlanadi. *Leksikografiya* lug‘at tuzish nazariyasini, *lug‘atchilik* lug‘at tuzish amaliyotini ifodalaydi.

“Lug‘at” arabcha “til”, “sheva”, “lahja”, “so‘z”, “ibora” kabi ma‘noni bildiradi. Hozirgi kunda ushbu so‘z ikki ma‘noda: 1) muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo‘lgan, shuningdek, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan

¹ Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. –Б. 289.

soʻzlar yigʻindisi, yaʼni leksika; 2) soʻzlar (yoki morfema, soʻz birikmasi, ibora) muayyan tartibda (alifboli, uyali, mavzuli) joylashtirilgan, tavsiflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, maʼnolari, yozilishi (imlosi), talaffuzi, uslubiy mansubligi, boshqa tillarga tarjimai haqida maʼlumotlar jamlangan kitob maʼnolarida qoʻllanadi.

Ana shu ikkinchi maʼnodagi lugʻatlar madaniyat sohasida muhim oʻrin egallaydi, chunki ularda jamiyatning maʼlum davrda erishgan bilimlarni aks etadi². Lugʻatlar, shuningdek, bir qator ijtimoiy vazifalarni bajaradi: muayyan voqea-hodisa haqida oʻquvchiga maʼlumot beradi; uni oʻz ona tilidagi va oʻzga tillardagi soʻzlar bilan tanishtiradi; tilni, uning lugʻat tarkibini takomillashtirish, meʼyorlashtirish va tartibga solishga yordam beradi.

Lugʻat tuzishda, albatta, maʼlum maqsad koʻzda tutiladi. Maqsad esa, davrga koʻra, ehtiyoj asosida belgilanadi. Leksikografiya sohasining obʼekti lugʻatlar va ularning tarkibiga kiruvchi birliklar. Leksikografiyaning predmeti lugʻat tuzish qonuniyatlari, lugʻat tiplari, lugʻatchilikning tarixiy taraqqiyotini belgilashdan iborat.

Maʼlumki, insoniyat dunyoga kelganidan soʻz bilan ish tutadi, soʻz olamiga duch keladi, undan foydalanadi. Kishilar bir-biri bilan muloqotga kirishar ekan, tildan foydalanish jarayonida ularda turli ehtiyoj paydo boʻladi. Bu ehtiyojlarni qondirish lugʻat yaratishni taqozo etadi. Tilning soʻz boyligini jamlash, ularni tartibga solib, foydalanish uchun qulay holatda taqdim etish, tavsiflash, imkoniyatlarini ochib berish leksikografiya sohasining bosh vazifasi ekanligi maʼlum.

Darhaqiqat, lugʻatlar barchaga barobar xizmat qiladi. Undan barcha soha vakillari birdek foydalanadi.

Maʼlumki, til doimo oʻzgarib turadi. Ayniqsa, tilning leksikasi tez oʻzgaruvchan boʻladi. Shu bilan birga, tilning leksik qatlami asrlar mahsuli hamdir, yaʼni har bir tarixiy davr, ijtimoiy taraqqiyot bosqichi oʻz ifodasini topadi. Soʻzlar, til birliklari eskiradi, yangi soʻzlar paydo boʻladi.

² Гак В.Г. Словарь // Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. –С. 462.

“Leksikografiya asoslari” kursining bosh maqsadi lug‘atchilikning shakllanishi, taraqqiyoti haqida ma’lumot berish, uning istiqbolini belgilashga xizmat qilish. Bilamizki, lug‘atchilik shakllanishi uzoq tarixga ega. Jumladan, o‘zbek lug‘atchiligining shakllanishiga e’tibor qaratganimizda ham, buni kuzatishimiz mumkin.

Turkiy tillar lug‘atshunosligi boy tajribaga ega. Ayniqsa, o‘tmish lug‘atshunoslari o‘ziga xos lug‘at tuzish usullari, tamoyillari, so‘zlarni sharhlash uslublari jihatidan ajralib turadi. Ushbu lug‘atlarda so‘z tanlash mezonlari, so‘zning semantik tarkibiga munosabat bildirish, so‘zning ma’no qirralarini ochish kabi masalalar bo‘yicha hozirgi zamon lug‘atshunoslari uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Davr nuqtayi nazaridan yuqori darajada baholangan, haqiqatan, o‘ta noyob bo‘lgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” (“Turkiy so‘zlar devoni”) asarining yaratilishi ham o‘ziga xos tarixga ega. Bu lug‘atning yaratilishi uchun hind va arab tilshunosliklari doirasida yaratilgan ko‘pgina qadimgi lug‘atlar, masalan, Sibavayhiyning “Al Kitob” asari, Halil al Faraxidinning “Ayna kitobi”, Firuzabodiyning 60 yoki 100 jildlik lug‘ati yoki “Qomus” asari kabi boshqa asarlarning manba bo‘lganligini qayd etish kifoya.

Mahmud Koshg‘ariyning o‘zi “Devon”ning yaratilishida Xalil ibn Ahmadning “Kitob ul-ayn” asaridan foydalanganligini qayd etadi. Demak, o‘zbek lug‘atchiligining shakllanish tarixini M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari bilan belgilaganimizda ham, uning taraqqiyoti o‘rta asrlarda va undan oldingi davrlarda yaratilgan ko‘plab lug‘atlar bilan belgilanadi.

“Leksikografiya asoslari” kursining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- lug‘atchilikning shakllanishi haqida ma’lumot berish, tarixiy lug‘atlar, ularning yaratilish sabablarini bayon qilish;
- lug‘at turlari (asosiy turlari) haqida ma’lumot berish, ularning o‘ziga xos jihatlarini tavsiflash;
- lug‘at tuzish qonun-qoidalari, tamoyillari borasida bilimlar berish;
- lug‘atchilikning taraqqiyot bosqichlarini belgilashda ijtimoiy o‘zgarishlarning o‘rnini belgilash;

-kishilarda lugʻatlardan foydalanish malakasini hosil qilishga koʻmaklashish;

-oʻzbek lugʻatchiligining istiqbolini belgilovchi maʼlum vaziyatni shakllantirish, asosiy manbalardan xabardor qilish;

-taʼlim-tarbiya tizimida lugʻatlardan foydalanishning muhim ekanligini, zaruriyat ekanligini yoshlarga, taʼlim tizimi xodimlariga singdirish.

Har bir lugʻat amaliy xarakterga ega. Bu leksikografiyaning nazariy asosini belgilashda muhim. Zero, leksikografiyaning nazariy asosini, ehtiyojini qondirish maqsadida tuziladigan lugʻatlarning yaratilish qonun-qoidalari, ularni tuzish tartiblari, lugʻatlar turlarini belgilash tashkil etadi. Yaʼni maqsadning toʻgʻri belgilanishi, maqsaddan kelib chiqqan holda ularning turlarini belgilash, turlarning oʻziga xosligidan kelib chiqqan holda, lugʻatlarning shaklini belgilash, u yoki bu shakldagi lugʻatni tuzishning tamoyillarini belgilash lozim boʻladi.

Leksikografiya (lugʻat tuzish nazariyasi va amaliyoti) eramizdan oldingi davrlarda paydo boʻlgan va boshlanishidanoq, taʼlim-tarbiya sohasi uchun xizmat qilgan ekan, yaratiladigan har bir lugʻatning asosini: 1) didaktik tamoyil belgilaydi. Lugʻat tuzishda didaktik tamoyilni chetlab oʻtish mumkin emas. Lugʻatlar tildagi soʻzlarni oʻqitish-oʻrgatish, boshqa tillarga oid soʻzlar haqida, birliklar haqida maʼlumotlar berar ekan, demak, 2) lingvodidaktik tamoyil muhim. Lugʻat tuzishning asosiy tamoyillaridan biri maqsaddan kelib chiqqan holda lugʻat birliklarini 3) tanlash-saralab olish tamoyili. M.Koshgʻariy oʻz lugʻati (“Devon”) uchun “umumisteʼmolda boʻlgan soʻzlarni tanladim” deydi. Shu tamoyilga aloqador boʻlgan yana bir tamoyil, bu maqsadga muvofiq tuziladigan, lugʻatdan kelib chiqadigan 4) ehtiyojni qondirishga muvofiqlikni taʼminlash tamoyili. “X va H harflari tarkibida boʻlgan soʻzlar lugʻati”, “Paronimlar lugʻati” kabilar. Leksikografiyadagi eng muhim va universal tamoyillardan biri – 5) lugʻatdan foydalanishning osonligi-qulayligini taʼminlash. Hamma lugʻatlar tuzilishi, mundarijasi kabilardan qatʼi nazar, ana shu tamoyilga amal qilingan holda tuziladi: alifbo asosida tuzilganlik, mavzuiy guruhlariga ajratish, ters, morfem, terminologik va boshqa lugʻatlar shu tamoyil asosida yaratiladi. 6) Berilgan materialning aniqligi, toʻgʻriligi va toʻliqligini

ta'minlash tamoyili (imlo, orfoepik, sinonim, omonim, antonim, frazema, paremlar lug'atlari shu tamoyilni ham nazarda tutib tuziladi. Masalan, imlo lug'ati so'zni to'g'ri yozishni ta'minlashni nazarda tutib tuzilgan. 7) til va nutq me'yorlariga amal qilish tamoyili. Umumiy va xususiy me'yorlarni nazarda tutuvchi lug'atlar: dialektal, eskirgan so'zlar, okkazional birliklar lug'atlari kabilar. 8) o'quv lug'atlarida alohida ahamiyat kasb etuvchi ta'limiy tamoyil. Bu tamoyil o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, til bo'yicha ko'nikmalarini hosil qilishda ahamiyatli. 9) o'quv lug'atida, alohida ahamiyat beriladigan tarbiyaviy tamoyil muhim. Bunday lug'atda ma'naviy-axloqiy, estetik tarbiya kabilar ko'zda tutilgan bo'ladi.

Leksikografiya tamoyillari lug'atlarning turlariga mos ravishda o'zgarishi mumkin. Qaysi tamoyilning tayanch vazifasini bajarishi lug'atning maqsad va ehtiyojidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Jumladan, "O'zbek tilining orfoepik lug'ati" o'zbek tilidagi lug'aviy birliklarning to'g'ri talaffuz qilinishini ta'minlashni nazarda tutilib tuziladi, ya'ni so'zni oson – qulay talaffuz qilishni ta'minlash tamoyiliga amal qilish muhim. Shu kabi lingvistik (filologik) yoki ensiklopedik (qomusiy) lug'at yaratishning o'ziga xos umumiy va xususiy tamoyili bo'lishi mumkin. Shuningdek, ichki jihatdan olib belgilasak, lingvistik lug'atlarning izohli hamda tarjima turlarida umumiy tamoyillardan tashqari (foydalanishga qulaylik tamoyili), so'z ma'nolarini to'la yoki qisman izohlash kabi o'ziga xos xususiy tamoyillar katta ahamiyat kasb etishi ham mumkin.

Lug'atlarda maqolalarning joylashtirilishi har bir lug'atda ko'zda tutilgan maqsaddan, qaysi tamoyilga asoslanganlikdan, lug'at turi, xarakteri, hajmi kabi jihatlarni hisobga olgan holda tartiblashtiriladi. Masalan, omonimlar lug'atida, avvalo, tayanch so'z beriladi: OT 1 – "ism" ma'nosida; OT 2 – "hayvon" ma'nosida; OT 3 – "ish-harakat" ma'nosida. Yoki sinonimlar lug'atida betaraf – dominant so'z asos sifatida joylashtirilib, uning ma'nodoshlari navbat bilan joylashtiriladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bosh ma'nodagi so'z berilib, uning ko'chma ma'nolari navbat bilan keltiriladi. Tarjima lug'atlarida belgilangan til so'zlari berilib, o'zga til birligi keyin joylashtiriladi. Etimologik lug'atda tahlil uchun tanlangan so'z berilib, uning kelib chiqishini belgilovchi, izohlovchi

soʻzlar navbati bilan keltiriladi. Tarkibida “X va H harflari ishtirok etgan soʻzlar lugʻati”da avval bosh harflari X yoki H bilan kelgan soʻzlar tanlanib, “X” harfi qatnashgan soʻzlar oldin, “H” harfi qatnashgan soʻzlar keyin joylashtiriladi. Demak, lugʻat maqolalarini joylashtirish tartibi maqsad va ehtiyojdan kelib chiqqan holda belgilangan lugʻat turlarining xarakteriga qarab, shuningdek, lugʻat materialini oʻzlashtirishning oson boʻlishini, foydalanishning qiyinligi va samaradorligi koʻzda tutib belgilanadi. Yana boshqacha tarzda tartib belgilash ham mumkin.

Lugʻat maqolalarining joylashtirish tamoyillari tilshunos A.Nurmonov tomonidan Alisher Navoiy asarlari tili boʻyicha yaratilgan lugʻatlar orasida “Sangloh” lugʻatining lugʻat maqolalarini joylashtirishda izchil va puxta tamoyilga boʻysunganligi qayd etiladi. (A.Nurmonov, “Oʻzbek tilshunosligi tarixi”, - Toshkent, 2002.). A.Nurmonov “Sangloh”da lugʻat maqolalari quyidagi sxema asosida joylashtiriladi”, – deb qayd etadi:

- 1) sarlavhaga chiqarilgan soʻz;
- 2) sarlavhaga chiqarilgan soʻzning fonetik va orfografik izohi va undan hosil qilingan shakllar;
- 3) sarlavhaga chiqarilgan soʻz va undan hosil qilingan shakllarning grammatik tavsifi;
- 4) soʻzning etimologiyasi;
- 5) sarlavha soʻz va undan hosil qilingan shakllarning semantik tahlili;
- 6) sarlavha soʻz va undan hosil qilingan shakllar semantik tavsifini tasdiqlovchi materiallar;
- 7) sarlavha soʻz va undan hosil qilingan shakllar maʼnolarining rumiy (turk), arab, fors va boshqa tillarda ifodalanishi;
- 8) oʻzidan oldingi mualliflarning fikrlariga munosabati;
- 9) ilovalar.

Leksikografiyada mavzuiy, grammatik, shu kabi boshqa lugʻatlarda maqolalarning joylashtirish sxemalari yana boshqa koʻrinishlarda ham boʻlishi mumkin.

Lugʻatlarning tuzilishi turlaridan kelib chiqib belgilanadi va shunga koʻra, turli koʻrinishlarda beriladi. Masalan, “Oʻzbek mumtoz adabiyoti asarlari uchun qisqacha lugʻat” (– Toshkent, 1953) quyidagi sxemada tuzilgan: I. Tuzuvchilardan; II. Lugʻatdan

foydalanish tartibi; III. Lugʻatdagi qisqartirilgan belgilar; IV. Alifbo tartibidagi soʻzlar izohi. Yoki J.Lapasov tomonidan tuzilgan “Mumtoz adabiy asarlar oʻquv lugʻati”ning (–Toshkent, 1994) tuzilish tartibi quyidagicha: I. Muallifdan; II.Shartli qisqartmalar; III. Alifavit tartibidagi lugʻat.

Akademik A.Hojiyev tomonidan tuzilgan “Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati” (– Toshkent, 2002) quyidagi sxemada tuzilgan:

I. Soʻzboshi; II. Lugʻatning hajmi va tuzilishi; III. Lugʻat maqolasi (har bir lugʻat maqolasi bosh soʻz sifatida lingvistik terminini keltirish bilan boshlanadi). Agar termin boshqa tildan oʻzlashgan boʻlsa, qavs ichida qaysi tildan, qanday soʻz yoki til unsurlari asosida oʻzlashganligi koʻrsatiladi.

Azim Hojiyev “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”ni tuzish printsiplarini ishlab chiqar ekan, soʻzlarni izohlashning olti qatlamini ochib beradi. Bular: bosh soʻz; lugʻat maqolasining bosh soʻzdan keying komponenti, bosh soʻzning etimologiyasi haqidagi maʼlumot; lugʻat maqolasining etimologik maʼlumotdan keyingi bosh soʻzga uning maʼnosi oldidan beriladigan grammatik, uslubiy va havola etuvchi qaydlar; izohlanuvchi birliklar (bosh soʻz va turgʻun iboralar) maʼnosini belgilash va qayd etish; lugʻat maqolasining eng asosiy qismi izohlanuvchi birliklar maʼnolariga beriladigan izoh; lugʻat maqolasining soʻnggi komponenti izohlanuvchi birlik maʼnosi izohidan keyin beriladigan illyustrativ misollar.

Lugʻatshunoslik tarixiga nazar tashlansa, lugʻatlarni yaratishda muayyan maqsadlardan kelib chiqib ish koʻrilganligi maʼlum boʻladi. Shu tufayli koʻplab original, biri ikkinchisini takrorlamaydigan lugʻatlar yaratilgan. Tadqiqotlarda kuzatilishicha, uzoq oʻtmishimizda yaratilgan lugʻatlarning turlari koʻp, ularning muayyan tiplari guruhlashtirilgan³.

Lugʻatlarning yaratilishi uzoq tarixga borib taqaladi. Turkiy leksikografiyada dastlabgi lugʻatlar XI-XII asrlarda yaratilgan boʻlsa, Evropada, xususan, Rossiyada lugʻat tuzish ishlari XVII asrlardan boshlangan.

³ Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. –Б. 299.

Lugʻatlar izohlash materiali, xarakteri va tuzilishiga, mohiyat-mazmuniga koʻra, avvalo, ikki turga ajratiladi: ensiklopedik lugʻatlar (qomusiy lugʻatlar) va filologik (lingvistik) lugʻatlar.

Ensiklopedik lugʻatlarda til birliklari emas, balki soʻz va birikmalar bilan ifodalangan narsalar, tarixiy voqealar, tarixiy va alohida mavqega ega boʻlgan shakllar, ijtimoiy va tabiiy hodisalar, geografik nomlar (mamlakatlar, shaharlar, okeanlar, dengizdan va hokazolar) haqida maʼlumot beriladi. Ularda soʻzlarning maʼnolari, uslubiy va grammatik xususiyatlari izohlanmaydi. Ensiklopedik lugʻatlarda faqat ot turkumiga mansub birlik – atoqli ot ifodalagan tushunchaga izoh beriladi. Yaʼni soʻzga hodisa ifodachisi sifatida taʼrif-tavsif beriladi. Ularda tushunchalar: mamalakatlar, shaharlar, ayrim shaxslar, narsa, hodisa-voqealar haqidagi maʼlumotlar beriladi. Bu lugʻatlar sharq xalqlari, jumladan, oʻzbek xalqi tarixida *qomus* deb yuritiladi. “Oʻzbek sovet ensiklopediyasi”, “Tibbiyot ensiklopediyasi”, “Diniy ensiklopediya” kabi lugʻatlar shu tipga kiradi.

Lingvistik lugʻatning asosiy maqsadi esa til birligi hisoblangan soʻzlar, frazemalar, paremlar – yaʼni, til birliklarining maʼnolarini, turli lisoniy xususiyatlarini ochib berish.

Har ikki turdagi lugʻatlarning umumiy jihatlari shundaki, ular maʼlum tartibda (alifbo tartibida) tuzilgan soʻzlikka, materialga ega boʻladi. Shuningdek, har ikki tip lugʻat ham hajm jihatdan katta, oʻrtacha va kichik lugʻat koʻrinishlarida, umumiy va xususiy lugʻat shaklida boʻlishi mumkin. Shunga qaramay, ular bir-biridan tubdan farq qiladi: *lingvistik lugʻatning* obʼekti lugʻaviy birlik koʻrinishidagi materialni qamrab olib, soʻz, uning maʼnosi, grammatik, uslubiy va boshqa xususiyatlari, soʻzdan katta birlik (frazema, parema, grammatik koʻrsatkich (grammatik maʼlumot), toponim birliklar kabilar haqida maʼlumot beradi. Shunga koʻra, lingvistik lugʻatning soʻzligi barcha soʻz turkumiga aloqador birliklardan tashkil topadi.

Har ikki lugʻat tipi turli jihatiga koʻra, yana ichki guruhlariga ajratiladi. Jumladan, lingvistik lugʻat turli maqsadda tuzilganligiga koʻra alohida turlarga ajratiladi:

- 1) umumiy lugʻat; 2) xususiy (maxsus) lugʻat.

Umumiy lugʻatda tilning umumisteʼmoldagi barcha soʻzi oʻz ifodasini topishi mumkin. Masalan, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”, “Oʻzbekcha-ruscha lugʻat”, “Imlo lugʻati”, “Orfoepik lugʻat” kabi.

Maxsus lugʻatda maʼlum sohaga yoki biror qatlamga aloqador soʻz beriladi: “Geografiya terminlari lugʻati”, “Omonimlar lugʻati”, “Paronimlar lugʻati” kabilar.

Lingvistik lugʻat leksikografik tavsif mazmuni, vazifasi va usuli nuqtayi nazaridan bir necha turga boʻlinadi:

1) izohli lugʻat – bunday lugʻatda soʻzning maʼnolari, qoʻllanish sohasi va darajasi, fonetik va grammatik xususiyati koʻrsatib beriladi. Rus tilidagi «Толковый словарь живого великорусского языка» (В.И.Дал, СПб., 1863-1866), «Словар русского языка» (С.И.Ожегов., М., 1990) lugʻatlari ana shunday lugʻatlardan. Oʻzbek leksikografiyasida dastlabki bir tilli, ikki jilddan iborat “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” 1981-yilda Z.Maʼrufov tahriri ostida nashr etilgan. 2006-2008-yillarda 5 jildli “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” yaratildi. Yangi izohli lugʻat hozirgi oʻzbek adabiy tilida keng isteʼmolda boʻlgan 80 mingdan ortiq soʻz va soʻz birikmasini, jumladan, fan, texnika, sanʼat va madaniyat sohalariga oid terminlarni, bir necha shevada qoʻllanadigan soʻzlarni, baʼzi tarixiy va eskirgan atamalarni qamrab olgan, ular talab darajasida izohlangan. Shuningdek, keyingi yillarda kichik yoshdagi bolalar uchun ham maxsus izohli lugʻatlar yaratildi. N.Mahmudovning “Soʻz sandiqchasi” (Oʻzbek tilining izohli lugʻatchasi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun, 2016) asari ana shu tipdagi izohli lugʻat;

2) xorijiy soʻzlar lugʻati – bunday lugʻatlarda muayyan tilga oʻzlashgan, ammo oʻzlashmaligi sezilib turgan boshqa til soʻz va terminlari izohlanadi. Rus tilidagi «Большой иллюстрированный словарь иностранных слов» (-Москва: Астрел, 2004), Беларус тилидаги «Новейший словарь иностранных слов и выражений» (-Минск: Современный литератор, 2003), Oʻzbek tilidagi “Ruscha-internatsional soʻzlar izohli lugʻati”ni (O.Usmon., R.Doniyorov. -Toshkent: Fan, 1965; 2-nashri. -Toshkent: Oʻzbekiston, 1972) shunday lugʻatlar sirasiga kiritish mumkin;

3) tarjima lugʻati. Oʻzbek leksikografiyasida bir tilga oid lugʻaviy birliklarni boshqa tilga oʻgirib, izohlab beruvchi bunday

lugʻatlar keng tarqalgan. Ularning oʻzi tarjima qilinayotgan tillarning miqdoriga koʻra *“ikki tilli”* va *“koʻp tilli”* lugʻatlarga ajratiladi.

Tarjima lugʻatlari qanday lugʻaviy birlikni qamrab olishiga koʻra ham turlarga ajratiladi: a) leksik birliklar tarjima lugʻati; b) frazemalar tarjima lugʻati; c) paremlar tarjima lugʻati (maqol, aforizmlar tarjima lugʻati) kabi. Shuningdek, ular hajm jihatdan ham alohida turga ajratiladi: *“Katta hajmli lugʻatlar”*; *“Oʻrtacha hajmli lugʻat”*; *“Kichik hajmli (choʻntak) lugʻat”* kabi.

XIX asrgacha arab-oʻzbek, fors-oʻzbek, turk-oʻzbek ikkitilligiga asoslanib yoki aksincha tartibda tuzilgan tarjima lugʻatlari yaratilgan. Bunga Mahmud Koshgʻariyning *“Devonu lugʻotit turk”* (XI asr), Mahmud Zamaxshariyning *“Muqaddimatul adab”* (XII asr), *“Abushqa”* oʻzbekcha-turkcha izohli lugʻati (XVI asr, Turkiya), Toli Imoni Hiraviyning *“Badoeul lugʻat”* oʻzbekcha-forscha lugʻati (XVI asr boshi, Hirot), Muhammad Rizo Xoksoning *“Muntaxabul lugʻat”* forscha-oʻzbekcha lugʻati (XVIII asr oxiri, Xiva), Mirzo Mehdiyxonning *“Sangloh”* oʻzbekcha-forscha lugʻati (XVIII asr, Eron), Sulaymon Buxoriyning *“Lugʻati chigʻatoyi va turki usmoniy”* chigʻatoycha-turkcha lugʻati (XIX asr, Turkiya)ni misol qilib koʻrsatish mumkin. XX asrda ular qatoriga rus, ingliz, nemis, frantsuz, ispan, hind, yapon tillari ishtirokida tuzilgan ikki tilli lugʻatlar ham qoʻshildi. Ruscha-oʻzbekcha, oʻzbekcha-ruscha lugʻatlar sirasida quyidagi lugʻatlar yaratildi: *“Ruscha-oʻzbekcha mukammal lugʻat”* (A.Zohiriy, 1927), *“Qisqacha oʻzbekcha-ruscha lugʻat”* (K.Yudaxin, 1927), bir jildli *“Ruscha-oʻzbekcha lugʻat”* (1954), besh jildli *“Ruscha-oʻzbekcha lugʻat”* (1950-1955), bir jildli *“Oʻzbekcha-ruscha lugʻat”* (1959, 1988), ikki jildli *“Ruscha-oʻzbekcha lugʻat”* (1983-1984), shu lugʻatning tuzatilgan, toʻldirilgan nashri (2013). Bundan tashqari, *“Nemischa-oʻzbekcha lugʻat”* (1964), *“Oʻzbekcha-nemischa lugʻat”* (1967), *“Inglizcha-oʻzbekcha lugʻat”* (1967), *“Oʻzbekcha-inglizcha lugʻat”* (1969), *“Arabcha-oʻzbekcha lugʻat”* (1986), *“Hindiycha-oʻzbekcha lugʻat”* (1987), *“Ispancha-oʻzbekcha lugʻat”* (1977), *“Oʻzbekcha-forscha oʻquv lugʻati”* (1975, 1984), *“Forscha-oʻzbekcha lugʻat”* (2006), *“Inglizcha-oʻzbekcha, oʻzbekcha-inglizcha lugʻat”* (2006, 2007, 2013) ham yaratildi;

4) tarixiy lug‘at. Bunday lug‘at so‘zlarning qachondan e‘tiboran shu tilda qo‘llana boshlagani, uning fonetik, grammatik, semantik belgilari taraqqiyotini ko‘rsatib beradi. Bunday lug‘atlarga «Древнетюркский словарь» (-Л., 1969), «Лексика среднеазиатского тюркского языка XII-XIII веков» (А.К.Боровков, 1963), «Староузбекский язык: Хорезмийские памятники XVI века» (1966, 1971) lug‘atlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin;

5) dialektal (sheva) lug‘at – ularda muayyan tilning lahja va shevalariga xos bo‘lgan, fonetik yoki semantik jihatdan adabiy tildagi so‘zlardan farq qiladigan so‘zlar ko‘rsatiladi. Bunday lug‘atlarga F.Abdullaevning “Xorazm shevalari. 1-qism” (1961), S.Ibrohimovning “Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi” (1-kitob 1956, 2-3-kitoblar 1959), akademik Sh.Shoabdurahmonov tahriri ostida nashr etilgan “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” (1972), T.Nafasovning “Qashqadaryo o‘zbek xalq so‘zlari” (2011), B.To‘ychiboev., Q.Qashqirliylarning “Zominning til qomusi” (2012) asarlarini misol qilib keltirish mumkin;

6) etimologik lug‘at – bunday lug‘atlar so‘zlarning kelib chiqishini, manba tildagi ma‘nosini, tarkibiy tuzilishini, tovush yoki ma‘no jihatdan o‘zgarishini ko‘rsatib beradi. Y.V.Sevortyanning «Этимологический словарь тюркских языков. тт.1-4.» (-Москва, 1974-1984), М.Фасмернинг «Этимологический словарь русского языка. тт.1-4» (1964-1973), Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” (1-kitob: turkiy so‘zlar, 2000; 2-kitob: arab so‘zlari, 2003; 3-kitob: fors-tojikcha birliklar, 2009) ana shunday lug‘atlar sirasiga kiradi;

7) qiyosiy lug‘at. Bunday lug‘at bir oilaga mansub tillardagi so‘z boyligini solishtirib, taqqoslab, ulardagi tafovut qonuniyatlarini o‘rganish maqsadida tuziladi. Ularning dastlabkisi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari bo‘lsa, L.Budagovning “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. ч. 1-2.» (СПб., 1869), V.Radlovning «Опыт словаря тюркских наречий. т.т. 1-4.» (СПб., 1888-1911) asarlari ham ana shunday tipdagi lug‘at;

8) imlo lug‘ati. Bunday lug‘at so‘zlarning mavjud imlo qoidalariga binoan to‘g‘ri yozilish shaklini qayd etadi. 1929-yildan to hozirgi kungacha kirill va lotin alifbolariga asoslangan o‘zbek

yozuvida o'zbek tilining turli hajmdagi 20 dan ortiq imlo lug'ati yaratilgan. 65 mingdan ortiq so'z va so'zshaklni qamrab olgan katta hajmli "O'zbek tilining imlo lug'ati" 1975-yilda, 85 mingdan ortiq so'z va so'zshaklni qamrab oluvchi eng mukammal "O'zbek tilining imlo lug'ati" 2013- yilda nashr etilgan. Bundan tashqari, o'zbek imlosidagi ba'zi qiyin holatlarga oid, xususan, H va X harflari ishtirok etgan so'zlar bo'yicha tuzilgan imlo lug'atlari ham mavjud;

9) talaffuz (orfoepik) lug'ati. Bunday lug'atda so'zlarning adabiy talaffuzi qayd etiladi. M.Sodiqova., O'.Usmonovalarning "O'zbek tilining orfoepik lug'ati" 1977-yilda, E.Begmatovning "O'zbek adabiy talaffuzi lug'ati" 1984-yilda yaratilgan;

10) morfem lug'atda tildagi so'zlarning morfem tuzilishi ko'rsatiladi. "O'zbek tilining morfem lug'ati" 1977-yilda A.G'ulomov hamuallifligida yaratilgan;

11) frazeologik lug'at – bunday lug'atlarning so'zligi frazeologik birliklardan, barqaror iboralardan tashkil topadi. Ular qatoriga «Фразеологический словарь русского языка» (-Москва, 1967), M.Sodiqovanning "Ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at" (1972)ini, Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" (1978)ni, M.Abdurahimovning "Qisqacha o'zbekcha-ruscha frazeologik lug'at"ini (1980), E.Umarovning «Фразеологический словарь «Хазойинул маоний» Alisher Navoi» lug'atini (1971), M.Umarxo'jaev., N.Nazarovlar tomonidan yaratilgan "Nemischa-ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at" (1994) ni kiritish mumkin;

12) chastotali lug'at – bunday lug'atlarda so'zlarning qo'llanish miqdori va foizi haqida ma'lumot beriladi. Bunga I.Kissenning «Словарь наиболее употребительных слов современного узбекского литературного языка» (1972), S.Rizayevning "O'zbek bolalar adabiyoti tili leksikasining chastotali lug'ati" (1980), S.Rizayev, N.Bo'ronovlarning "Abdulla Qahhor "Sinchalak" povesti tili leksikasining chastotali lug'ati" (1980) ni kiritish mumkin;

13) ters (chappa) lug'at – bunday lug'atlarda so'zlar teskari (so'ng) tomonidan o'qilishi bo'yicha alifbo tartibida joylashtiriladi. R.Qo'ng'urov, A.Tixonovlarning "O'zbek tilining chappa lug'ati" (1968), B.Yusufning "Turk tilining ters lug'ati" (2006) ana shu tipdagi lug'atlardir;

14) mavzuviy (mavzuli) lug‘at – bunday lug‘atlar so‘zligini tarkib toptiruvchi so‘zlar ro‘yxati ma’lum mavzularga bo‘lib beriladi. A.Tixonov hammuallifligidagi «Русско-узбекский тематический словарь» (1975) ana shu tipdagi lug‘at;

15) omonimlar, sinonimlar, antonimlar, paronimlar lug‘atlarining so‘zliklari shakldosh (omonim), ma’nodosh (sinonim), zid ma’noli (antonim) hamda talaffuzdosh (paronim) leksik birliklardan tashkil topadi va lug‘atda ularning izohi beriladi. Ular sirasiga Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” (1984)ni, A.Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” (1974)ni, Sh.Rahmatullayev, N.Mamatov, R.Shukurovlar tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati” (1980)ni, A.Ma’rufovning “Paronimlar lug‘ati” (1974)ni kiritish mumkin. Keyingi yillarda yaratilgan R.Rasulov va I.Umirovlarning “O‘zbek tili tasviriy ifodalarining izohli lug‘ati”ni, A.Omonturdiyevning “O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati”ni, N.Mahmudov va D.Xudoyberganovalarning “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” (2013)ni ham uslubga aloqadorligi jihatiga ko‘ra, shu guruhga kiritish mumkin;

16) antroponimik va toponimik lug‘atlarning so‘zligi atoqli ot yoki joy nomlaridan tashkil topadi. E.Begmatovning “O‘zbek ismlari” (1991), “O‘zbek ismlari ma’nosi. 14600 ism izohi. (1998, 2006) asarlari, S.Qorayevning “Geografik nomlar ma’nosini bilasizmi?” (1970), “O‘zbekiston viloyatlari toponimlari” (2005), Z.Do‘simov, X.Egamovlarning “Joy nomlarining izohli lug‘ati” (1977), B.O‘rinboyevning “Asrlardek barhayot nomlar (Samarqand viloyati toponimlari izohli lug‘ati. 2003), T.Nafasovning “Qashqadaryo qishloqnomasi” (2009) asarlari ana shu tipdagi lug‘atlar;

17) yozuvchi yoki asar tilida qo‘llangan so‘zlarni izohlovchi lug‘atlar tuzish o‘zbek leksikografiyasi tarixida XVI asrdan Alisher Navoiy asarlari tilini o‘rganish maqsadida boshlangan (birinchisi “Abushqa”). XVI-XIX asrlar mobaynida turli hajmdagi 10 ga yaqin lug‘at yaratilgan. Ushbu lug‘atlar olimlarimiz tomonidan o‘rganilgan

va munosib bahosini olgan⁴. Bugungi kunda ham bu tipdagi lugʻatlar yaratilmoqda: “Alisher Navoiy asarlari lugʻati” (1972), “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati” (1-4 jildlar, 1983-1984), “Qur’oni karim” soʻzlarining arabcha-oʻzbekcha koʻrsatkichli lugʻati” (B.Xasanov, 1995), “Alpomish” dostonining izohli lugʻati” (T.Mirzaev va b., 2007);

18) terminologik lugʻat – bunday lugʻatlarning soʻzligi maʼlum bir fan va texnika tarmogʻi, ijtimoiy yoki xoʻjalik hayotining biror sohasiga oid soʻz-terminlardan iborat boʻladi. Bunday lugʻatlar soʻzlikning berilishi va izohlanishiga koʻra, entsiklopedik lugʻatlar bilan lingvistik lugʻat belgilariga ega boʻladi. Ular bir, ikki va undan ortiq tili, izohsiz (ekvivalent lugʻaviy birliklarni yonma-yon keltirishdan iborat), izohli hamda entsiklopedik xarakterda boʻlishi mumkin. Terminlar va ularning izohi qadimgi lugʻatlar – “Devonu lugʻotit turk”, “Muqaddimatul adab”, “Kelurnoma”, Ishoqxon Ibratning “Lugʻoti sitta al sina” asarlarida uchrasa-da, ular universal lugʻatlar hisoblanib, maxsus sohani koʻzlab tuzilmagan. XX asrdagi dastlabgi terminologik lugʻat – Nazir Toʻraqulovning “Rus-oʻzbek tillarining ijtimoiy-siyosiy atamaları lugʻati” 1922-yilda nashr etilgan. Shundan keyingi oʻtgan davr mobaynida Oʻzbekistonda fan va texnikaning deyarli barcha soha va boʻlimlari boʻyicha 300 ga yaqin turli hajm va turli xarakterdagi terminologik lugʻat nashr etildiki, ular maʼlum darajada soha terminologiyalarini tartibga solishga xizmat qilib kelmoqda.

Lugʻat turlari bular bilan chegaralanmaydi. Yuqorida, asosan, oʻzbek lugʻatchiligida mavjud boʻlgan, amalda foydalanib kelinayotgan lugʻatlar guruhlashtirildi.

Lugʻatlar boshqa xususiyatlari hisobga olingan holda yana ichki guruhlariga (turlarga) ajratilishi mumkin: “*toʻliq lugʻatlar*”, “*qisqacha lugʻatlar*”, masalan, “Oʻzbek tili sinonimlarining qisqacha lugʻati” (– Toshkent, 1962) kabi.

⁴ Хасанов Б. Жавоҳир хазиналари. – Тошкент, 1989; Умаров Э. Эски ўзбек луғатлари. – Тошкент, 1992.

Savol va topshiriqlar

1. Leksikologiya va leksikografiyaning o‘zaro bog‘liq tomonlari nimada?
2. O‘zbek leksikografiyasi qaysi xalqlar tilshunosligi asosida yuzaga kelgan?
3. Lug‘atchilik sohasining bosh vazifasini qanday izohlaysiz?
4. Lug‘atlarda maqolalarning joylashtirilishi nimaga asoslanadi?
5. Lug‘atlarning jamiyat hayotidagi nazariy va amaliy ahamiyatini tavsiflang?
6. Lingvistik lug‘atlardagi maqolalarning tuzilish, joylashish strukturasini qiyoslang, izohlang.

Test

1. “Leksikografiya asoslari” fanining predmetini nima tashkil etadi?

- A. *Lug‘at tuzish qonuniyatlari, lug‘at tiplari, lug‘atchilikning tarixiy taraqqiyotini belgilash;
- B. Lug‘at tuzish qonun-qoidolari, tamoyillari borasida bilimlar berish;
- C. Kishilarda lug‘atlardan foydalanish malakasini hosil qilish;
- D. O‘zbek lug‘atchiligining istiqbolini belgilovchi ma’lum vaziyatni shakllantirish, asosiy manbalardan xabardor qilish.

2. Eramizdan oldingi davrlarda yaratilgan ilk lug‘atlar qaysi soha vakillari uchun xizmat qilgan?

- A. *Ta’lim-tarbiya sohasi vakillari uchun;
- B. Ijtimoiy soha vakillari uchun;
- C. Tibbiyot sohasi vakillari uchun;
- D. Aniq fanlar sohasi vakillari uchun.

3. Lug‘at yaratishda tayanch tamoyilni belgilash nimaga asoslanadi?

- A. *Lug‘atning maqsad va ehtiyojiga asoslanadi;
- B. Lug‘atning yaratilish davriga asoslanadi;
- C. Lug‘at maqolalarining joylashish o‘rniga asoslanadi;
- D. Lug‘atning hajmiga asoslanadi.

4. Ensiklopedik (qomusiy) hamda lingvistik lugʻatlarning umumiy jihatlari...

A. *Har ikki turdagi lugʻatlarning maʼlum tartibda (alifbo tartibida) tuzilgan soʻzlikka, materialga ega boʻlishi;

B. Har ikki turdagi lugʻatlarning bitta til matereali asosida yaratilishi;

C. Har ikki turdagi lugʻatlarning muayyan davrdagi til birligini oʻz ichiga olishi;

D. Bu ikki turdagi lugʻatlarda umumiy jihatlari boʻlmaydi.

5. Soʻzlar va birikmalarning maʼnosi, grammatik va uslubiy xususiyatlari asosan qanday lugʻatlarda izohlanadi?

A. *Lingvistik lugʻatlarda;

B. Ensiklopedik lugʻatlarda;

C. Tarixiy lugʻatlarda;

D. Barcha lugʻatlarda.

6. Lingvistik lugʻatlarning obʼekti...

A. *Lugʻaviy birlik koʻrinishidagi material;

B. Lugʻaviy birlik asosidagi denotativ maʼno;

C. Lugʻaviy birlik asosidagi konnotativ maʼno;

D. Faqat ot turkumiga mansub birliklar.

Adabiyotlar

1. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.

2. Фаттоҳов Х. Ўзбек лексикографияси тарихига бир назар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1981. -№3.

3. Юсупхўжаева Ҳ. Луғатларда феълнинг бош сўз сифатида берилиш формаси масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти, 1982. -№ 5. – Б. 37-39.

4. Ақобиров С. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида қўшма сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1965. -№6. – Б. 36-40.

5. Ҳожиёв А. Қўшма аффикслар ёрдамида ясалган феълларнинг изоҳли луғатда ишланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1984. - № 5. – Б.24.

6. Мадвалиёв А. Луғат ва луғат турлари ҳақида. – Ўзбек миллий лексикографиясининг долзарб масалалари мавзусидаги

илмий-назарий анжуман материаллари тўплами, ТошДЎТАУ. – Тошкент, 2017.

7. Алиқулов Т. Жомонов Р. Изоҳли луғатга сўз танлашнинг баъзи масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1990. -№ 4. – Б. 50.

8. Жомонов Р. Ўзбек тили изоҳли луғатида диалектал сўзларнинг берилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1989. - №3. – Б. 30.

9. Алиқулов Т., Равшанов М. Луғатларда омонимларнинг берилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1990. -№ 2. – Б.51-54.

10. Мадвалиев А. Ўзбек тилида кимё терминлари ва уларнинг изоҳли луғатда берилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2008. - №5. – Б. 53-62; 2009. - №2. – Б. 38-43; - № 3. – Б. 35-43.

XI-XII ASRLARDA TURKIY LUG‘ATCHILIK

Reja

1. Turkiy lug‘atchilikning shakllanish tarixi.
2. Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devonu lug‘atit turk” asari.
3. Mahmud Zamaxshariy va uning “Muqaddimat ul-adab” asari.
4. Lug‘atlarda qo‘llangan leksikografik tamoyillar.

Tayanch so‘z va iboralar: *qomusiy asar, qiyosiy-tarixiy metod, qiyosiy-chog‘ishtirma tilshunoslik, fonetik tamoyil, morfologik tamoyil, mavzuiy tamoyil, so‘zshakl, etimologik tamoyil, tilning sofliqi tamoyili, lingvogeografiya.*

O‘zbek lug‘atchiligining shakllanish tarixi XI asrga borib taqaladi.

Ma’lumki, X-XII asrlar turkiy xalqlar tarixida “Qoraxoniylar davri” deb e’tirof etiladi. Qoraxoniylar sharqda uyg‘ur, g‘arbda turk, Eron madaniyati va ilm-fanini uyg‘unlashtiradi. Bu davrda turkiy tilga qiziqish kuchayadi. Shu davrda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” asari hamda turkiy tilni o‘rganish ishtiyoqidagi xalqlar ehtiyojini qondirish uchun Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari yaratildi.

Tilshunoslik tarixida ham, lug‘atchilik tarixida ham Mahmud Koshg‘ariyning alohida o‘rni bor. U qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning asoschisi, fonetika bilimdoni, leksikolog, leksikograf, lingvogeograf, turkiy tillar morfologiyasi va sintaksisi asoschisi ham. Mahmud Koshg‘ariyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida professor H.Hasanovning “Mahmud Koshg‘ariy” nomli monografiyasida (-T.,1973), professor A.Nurmonovning “O‘zbek tilshunosligi tarixi” kitobida (-T.,2002), professor E.Fozilovning “Sharqning mashhur filologlari” (T.,1971), X.Jabborovning “Buyuk tilshunoslar” (-Qarshi, 2003) kitobi va boshqa adabiyotlarda ancha mukammal ma‘lumotlar berilgan.

Olimning leksikografiya sohasidagi faoliyati, albatta, uning “Devonu lug‘otit turk” asari bilan bog‘lanadi. Bu asar adabiyotlardagi qaydlarga ko‘ra, 1076-1077-yillarda yozilgan. Asarning yozilish tarixi, kimga sovg‘a qilinganligi, topilish tarixi, tarjimalari haqidagi ma‘lumotlar yuqorida qayd etilgan adabiyotlarda izohlangan. “Devonu lug‘otit turk” arab tilida yozilgan. Bizgacha bu asarning birgina qo‘lyozmasi yetib kelgan, u Istanbulda saqlanadi. Bu lug‘at, ko‘chiruvchi kotib Muhammad binni Abu Bakr Damashqiy ma‘lumotiga ko‘ra, Mahmud Koshg‘ariyning o‘z qo‘li bilan yozilgan nusxadan ko‘chirilgan. Asar sharqshunos olim Solih Mutallibov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, 1960-1963-yillarda Toshkentda nashr qilindi. Uning to‘ldirilgan, kamchiliklari tuzatilgan yangi nashri 3 jildda professor Hamidulla Boltaboev tomonidan kirill yozuvida 2016-yili qayta nashr etildi.

“Devonu lug‘otit turk” – o‘zbek lug‘atchiligining shakllanishiga asos bo‘lgan ilk lug‘at. Albatta, Mahmud Koshg‘ariy bu lug‘atni yozishdan avval, oldin yaratilgan hind va arab mualliflarining lug‘atlaridan foydalangan, lug‘atchilik an‘analarini o‘zlashtirgan. “Devonu lug‘otit turk”ning tuzilish sxemasi, maqolalarning joylashtirilish tartibi quyidagicha:

1) professor H.Boltaboevning “Ilmi adab ibtidosi” nomli kirish so‘zi; 2) nashrda qo‘llanilgan transkripsiya va belgilarga izohlar; 3) muqaddima; 4) “bismillohi-r rahmoni-r rahiym”; 5) “ollohga hamd”; 6) “turkiycha so‘zlarning tuzilishida qo‘llaniladigan harflar haqida”; 7) “fe’llardan yasalgan ismlar haqida”; 8) “so‘zlarning tuzilishi haqida”; 9) “ismlarning orttirma belgilari haqida” kabi qismlar,

soʻngra “soʻz boshida hamza kelgan otlar boʻlimi”, “ikki harfli soʻzlar boʻlimi”, “uch harflilar boʻlimi”, “toʻrt harflilar boʻlimi”, “oʻrtasi harakatlilar boʻlimi”, “solim otlar boʻlimi”, “ilovalar” kabi qismlardan iborat. Lugʻat oxirida xarita ilova qilingan.

Maqolalarning joylashish sxemasi ancha murakkab. Lugʻat maqolasida avval harf qayd etilgan, keyin soʻz berilgan: “*Er gʻap – taʻkid va kuchaytiruv koʻmakchisi*. Biror narsa juda oshirib maqtalsa, arabcha yozuvda *ep-ezgu – juda yaxshi narsa* deyiladi. *Juda oq, oppoq* narsa *ap-aq* deyiladi” kabi. Demak, avval arab yozuvidagi soʻz, keyin u (hozirgi nashrda) kirill yozuvida qayd etilgan, soʻng izoh berilgan. Shu tarzda sxema butun kitob davomida keladi.

Mahmud Koshgʻariy “Devon”da 6,5 mingdan ortiq soʻzni izohlagan. Olim aslida 10 ming atrofidagi soʻz bilan ishlagan. Bu soʻzlar turkiy xalqlar hayotining deyarli barcha sohalarini qamraydi: moddiy madaniyat tusunchalari nomlari (kiyim-kechak, uy, roʻzgʻor, bezaklar, muzika, qurol-yarogʻ, asbob-uskuna, xoʻjalik buyumlarining nomlari); etnonim va toponimlar; qarindoshlik nomlari; davlat tuzumiga oid terminlar; taom nomlari; hayvonlar va oʻsimliklarning nomlari; kasallik va dorilarning nomlari; ilmiy, diniy, etnografiya, geografik terminologiya; yil fasllari, oy va hafta kunlarining nomlari; tarixiy va mifologik qahramonlarning nomlari va shu kabilar. Asarda 163 toʻrtlik va 57 bayt ikkilik adabiy namuna sifatida keltirilgan. “Devon”da 318 ta maqol va hikmatli soʻz, 200 dan ortiq dori nomi keltirilganligi aniqlangan. Mahmud Koshgʻariyning bu asari XI asr lugʻatchiligining ilk namunasi sifatida hozirgi kunga qadar oʻz qimmatini yoʻqotmagan.

Umrini turkiy xalqlar va ularning tilini tadqiq etishga bagʻishlagan Mahmud Koshgʻariy Buxoro, Nishopur, Samarqand, Marv, Bogʻdod kabi shaharlarda tahsil koʻradi, arab tilini, arab filologiyasi sirlarini puxta oʻrganadi. “Men turklar, turkmanlar, oʻgʻuzlar, chigillar, yagʻmolar, qirqiz (qirgʻiz) larning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini koʻp yillar kezib chiqdim, – deb yozadi u. – Ularning lugʻatlarini toʻpladim, turli xil soʻz xususiyatlarini oʻrganib, aniqlab chiqdim...” (“Devon”, I, 44).

M.Koshgʻariy koʻp yillar davomida toʻplagan bu materiallari asosida “Devonu lugʻotit turk” (“Turkiy soʻzlar devoni”) nomli

asarini yozadi. Bundan tashqari, uning yana bir topilmagan “Kitobi javohir an-nahv fi-l-lug‘at at-turk” nomli ikkinchi asarida turkiy tillar sintaksisi ustida bahs yuritiladi.

“Devonu lug‘otit turk” asari ikki qismdan tashkil topgan: 1) muqaddima; 2) lug‘at.

Muqaddimada turkiy tillarning mavqei, lug‘atning oldiga qo‘yilgan vazifalar, asarning mundarijasi, turkiy tillarda so‘z tuzilishi va yasalishi, turkiy qabilalar va ular tillarining o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi.

Asarning lug‘at qismi sakkiz bo‘limdan iborat:

1) hamzali so‘zlar (boshida alif, vov, yoy harflari keladigan so‘zlar) bo‘limi;

2) solim (tarkibida alif, vov, yoy harflari kelmaydigan so‘zlar) bo‘limi;

3) muzoaf (tarkibida bir harf ikki marta kelgan, takrorlangan so‘zlar) bo‘limi;

4) misol (boshida, o‘rtasida yoki oxirida alif, vov, yoy harflaridan biri kelgan so‘zlar) bo‘limi;

5) uch harfli so‘zlar bo‘limi;

6) to‘rt harfli so‘zlar bo‘limi;

7) g‘unnalilar (tarkibida burun tovushlari keladigan so‘zlar) bo‘limi;

8) tarkibida ikki undosh qator kelgan so‘zlar bo‘limi.

Lug‘atning bu tartibda tuzilishi arab leksikografiyasi an‘analariga mos edi. Muallif lug‘at tuzishda mashhur arab tilshunosi Halil ibn Ahmadning “Kitob- ul-Ayn” lug‘atiga asoslanganini alohida ta’kidlaydi. Lekin Halil ibn-Ahmadning lug‘at tuzish printsipligiga to‘la ergashmaydi, uning ayrimlarini rad etdi. Bu haqda u shunday deb yozadi: “Kitobni tuzish oldida Halil ibn-Ahmadning “Kitob-ul-Ayn” asarida tutgan tartibni qo‘llash, iste’moldan chiqqan so‘zlarni ham bera borish fikri menda tug‘ilgan edi. Bu tartib arab tili bilan ikki uloqchi ot singari teng poyga qilib o‘zib borayotgan turk tilini yoritish jihatidan ham yaxshi edi. Lekin men o‘quvchilarning foydalanishi masalasiga asoslandim. Iste’moldagi so‘zlarnigina berdim, iste’moldan chiqqanlarini tashladim. Men tutgan tartib to‘g‘riroq...” (“Devon”, I, 45-46).

M.Koshg‘ariy turkiy tillar qurilishini tasvirlashda qiyosiy

metoddan foydalandi. U turkiy tillar leksikasi, morfologiyasi va fonetikasini bir-biriga qiyoslab, ular orasidagi o'xshash va farqli tomonlarni ko'rsatdi. O'zi bu haqda shunday deydi: "Puxta qo'llanma bo'lsin deb, har bir qabilaning o'ziga xos xususiyatlariga qiyosiy qoidalar tuzdim... Bu masalaga qiziqqan mutaxassislariga asarni qo'llanma qildim..." ("Devon", I, 47).

Mahmud Koshg'ariy o'z oldiga qo'ygan ulkan vazifani a'lo darajada bajardi. Barcha sathdar bo'yicha turkiy tillarni o'zaro qiyoslab, umumiy va farqli jihatlarini ajrata oldi. Turkiy tillarni farqli belgilariga ko'ra dastlab ikki guruhga ajratdi: turklar (chigil, koshg'ar, arg'u, barsag'on, uyg'ur) hamda ug'uz va qipchoq qabilalari tillari.

Turklarning tillari doimo qiyosga asos rolini o'ynaydi va qiyosga asos bo'lgan lingvistik fakt o'g'uz va qipchoq qabilalari tillariga qiyoslanadi. Jumladan, fonetik jihatdan so'z boshidagi "y" o'g'uz va qipchoqlarda "nol" yoki "j" bilan almashinuvi haqida; turklardagi so'z boshida kelgan "m" tovushi o'g'uz va qipchoqlarda "b" bilan almashinishi haqida; o'g'uz tilining o'ziga xos xususiyati haqida gapirib, "t", "k" kabi jarangsiz tovushlar o'g'uzlarda jaranglilashishi haqida; turk va boshqa qabila tillaridagi "d" o'g'uzlarda "t" ga aylanishi xususida aniq misollar asosida ma'lumot beradi:

Turklar

yelkin (musofir)
yinju (marvarid)
yug'du (tuyaning uzun juni)
men (men)
mun (sho'rva)
tevay (tuya)
ot (teshik)
bugda (hanjar)
yigda (jiyda)

o'guz va qipchoqlar

elkin
jinju
jug'du
ben
bun
devay
od
bukta
yikta

Mahmud Koshg'ariy morfemik birliklarni ham turkiy tillar bo'yicha qiyoslaydi va ular o'rtasidagi farqli xususiyatlarni belgilaydi. Xususan, buyruq maylidagi fe'lda ko'plikning ifodalanishi haqida fikr yuritir ekan, shunday yozadi: "Buyruq

oxiriga *-g'il, -qil, -gil* qo'shish tinglovchi birlikda bo'lgandagina mumkin. Tinglovchi ikkita yoki ortiq bo'lsa, bu qo'shimchalarni qo'shib bo'lmaydi. Ikkitalik va ko'plik farqsiz bir xil... Birlik uchun *bar*, ikkitalik uchun *baringlar ikkigu*, ko'plik uchun *baringlar* deydilar. Tinglovchi yoshi katta, hurmatli bo'lsa (yolg'iz bo'lsa ham), hurmat yuzasidan ko'plik shakli qo'llanadi: *baring* deyiladi. Aslida buning ma'nosi *baringlar* demak. O'g'uz va qipchoqlar birlikda *bar*, ko'plikda *baring* deydilar. Ular ko'plik qo'shimchasi *-lar* ni tushirib qoldiradilar, *-lar* o'rniga *-ngiz* qo'llaydilar" ("Devon", II, 50-51-betlar).

Muallif o'zlashma so'zlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Masalan, *qarit* (o'g'irlash, talash) so'zini u turkman tiliga arab tilidan o'zlashgan deb taxmin qiladi. Shu bilan birga, turkiy tillardan boshqa tilga o'zlashgan so'zlarga ham to'xtalib o'tadi. "Paxtali to'n" ma'nosidagi *yolma* so'zi haqida u shunday deb yozadi: "Forslar buni turkiy xalqlardan olib *yalma* shaklida talaffuz qiladilar. Arablar forslardan olib *yolmoq* shaklida qo'llaydilar. Hech kim bu so'zni turklar forslardan olgan deb da'vo qila olmaydi. Chunki men bu so'zni eng qirg'oq chegaralarda yashovchi oddiy turk xalqlaridan ham eshitganman. Bular boshqa xalqlardan ko'ra, bu xil yomg'ir yelpig'ichiga muhtojroqdirlar. Chunki ularning yurtida qor, yomg'ir ko'p..." ("Devon", III, 41-42).

Xullas, Mahmud Koshg'ariy tilning barcha sathlari bo'yicha turkiy tillarni qiyoslab, o'xshash va farqli jihatlarini belgilaydi va shu belgi asosida turkiy tillarni ma'lum guruhlariga tasnif etadi. Bundan shu narsa anglashiladiki, u qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning poydevorini yaratgan yirik alloma.

Evropada XX asr boshlarida lingvogeofafiya lingvistikaning alohida tarmog'i sifatida shakllandi. Aslida uning ildizlari Mahmud Koshg'ariyga borib taqaladi. U turkiy qabilalarning joylashishini maxsus kartaga tushiradi. Dunyoni shar shaklida tasvirlaydi va uni to'rt tomonga – ash-sharq, al-g'arb, ash-shimol, al-janub tomonlariga bo'ladi. Turklar asli yigirma qabiladan tashkil topganligini aytadi. Har bir qabilaning sanoqsiz urug'lari borligini bayon qiladi. Sharqdan boshlab har bir qabilaning joylashishi birin-ketin ko'rsatiladi. Har qaysi qabilaning tilidagi farqli xususiyatlar o'zni bilan bayon

qilinadi. Bu esa Mahmud Koshg'ariyning lingvogeografiyaning ham asoschisi ekanligini ko'rsatadi.

Mahmud Koshg'ariy leksikografiya sohasida dunyo tilshunosligida yuksak cho'qqiga ko'tarildi. U XI asrdayoq turkiy so'zlarning izohli lug'atini tuzdi. Mahmud Koshg'ariyga qadar arab tilshunosligida leksikografiya sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishilgan edi. Xususan, Xalil ibn Farohidiy ibn Ahmadning "Kitobul-ayn", Sibavayhiyning "Al Kitob" singari asarlari arab olamida shuhrat qozongandi. Mahmud Koshg'ariyning lug'ati so'zlarni joylashtirish tamoyili jihatidan ham, lug'at materiali tomonidan ham tamoman yangi hamda mavjud arab tili lug'atlariga nisbatan bir necha barobar yuqori turuvchi lug'at edi. U turkiy tilning amaldagi leksik imkoniyatlarini ko'rsatmoq uchun turk qavmlari ichida birma-bir yurib, ularning tillaridagi umumiy va o'ziga xos tomonlarini aniqlashga harakat qildi va buning uddasidan chiqdi. Shu tariqa, tilshunoslikda yangi sahifa ochdi. U qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, lingvogeografiya singari tilshunoslik yo'nalishlariga asos soldi.

XI-XII asrlar turkiy lug'atchilik taraqqiyotida Mahmud Zamaxshariy ham alohida o'rin tutadi. U hijriy 467-yil rajab oyining yigirma yettinchi kuni (milodiy 1045-yilning 19-martida) Xorazmning Zamahshar qishlog'ida tavallud topgan. Shunga ko'ra, Zamaxshariy taxallusini olgan. Az-Zamaxshariyning otasi o'z davrining ilmiy kishilaridan, Qur'oni Karimni yoddan bilgan. Masjidda imomlik qilgan. Onasi ham savodli, oqila, fozila ayollardan bo'lgan.

Az-Zamaxshariy dastlab otasi ko'magida savod chiqardi. So'ng Xorazmdagi madrasada tahsil ko'rdi. Bilimini yanada chuqurlashtirish niyatida Buxoroga keldi. Chunki Buxoro Somoniylar davridan boshlab ilm-fan markaziga aylangan, bu yerda dunyoga dong taratgan olimlar yig'ilgan edi. U Buxoroda o'qishni tugatgach, bir necha yil Xorazmshohlar xizmatida bo'ladi. Shu vaqtda Xorazmshohlar davlati saljuqiylar saltanatiga bo'ysunar edi. Saljuqiylar hukmdori Malikshoh va uning vaziri Nizom ul-Mulk ilm-fan va madaniyatga katta e'tibor bilan qaradilar. Ayniqsa, Nizom ul-Mulk fan-madaniyat homiysi sifatida dunyoga tanildi. Bir qancha shaharlarda sunniy madrasalar qurdirdi. Bu madrasalar

Nizomiya nomi bilan yuritildi. Xorazmda yetarli obro‘-e‘tibor topmagan Zamaxshariy Nizom ul-Mulk huzuriga yo‘l oldi. Lekin mo‘taziliy mazhabiga mansub bo‘lganidan, bu yerda ham o‘z qadrini topmadi. Shundan so‘ng Muhammad ibn Anushtagin asos solgan xorazmshohlar saltanati vujudga kelgunga qadar (hijriy 490-521-yillar) Bag‘dod, Hamadon, Makka singari dunyoning turli shaharlarida yurib, u yerlardagi olimu fuzalolari bilan tanishdi, suhbatlar qurdi. Muhammad ibn Anushtagin taxt tepasiga kelgach, Zamaxshariy o‘z vataniga qaytdi va Anushtagin marhamatidan bahramand bo‘ldi. Anushtagin vafotidan so‘ng (hijriy 521-yil) o‘g‘li Otsiz (hijriy 521-551-yillar hukmronlik qilgan) ham Zamaxshariyga katta hurmat-e‘tibor ko‘rsatgan. Shunga qaramay, u yana Makkaga talpinadi. Makkada amir Ibn Vaqqos uni yana izzat-ikrom bilan kutib oladi. Bundan ilhomlangan az-Zamaxshariy o‘zining Qur‘oni Karimning tafsiriga bag‘ishlangan “Al-Kashshof” asarini yozib tugatadi. Uch yil Makkada yashagandan so‘ng vatanini qo‘msaydi. Xorazmga qaytib, bir necha yil shu yerda yashaydi va 538-yilning arafa kechasi (milodiy 1143-yil) Jurjoniya (hozirgi O‘rganch)da vafot etadi.

Zamaxshariy o‘z davrining buyuk olimi darajasiga ko‘tarildi. U tilshunoslik, adabiyot, jug‘rofiya, tafsir, hadis, fiqh va ilmi al qiroatga oid ellikdan ortiq asarlar yaratdi. Ularning ko‘pi bizgacha yetib kelgan. U arab tili grammatikasiga doir “Al-mufasssal” nomi bilan mashhur bo‘lgan “Al-mufasssal fi san’at il-i’rob” (“Fleksiya san’ati haqida mufasssal kitob”), “Al-muhojat bil-masoil an-naxviya av al-axajiy an-nahviya” (“Grammatik masalalarga oid jumboqlar”), “Al-unmuzaj, fi-n-nahvi” (“Grammatik namunalar haqida”), “Samiym ul-arabiya” (“Arab tilining negizi”), “Al-mufrad va-l-muallif fi-n-nahvi” (“Grammatikada birlik va ko‘plik”), “Al-mufrad va-l murakkab fi-l-arabiya” (“Arab tilida birlik va ko‘plik”), “Al-amaliy fi-n-nahvi” (“Grammatik qoidalarda orfografiya”), “Diyvon ut-tamoyil” (“Assimilyasiya haqida devon”) kabi qator asarlar yaratdi. Yuqorida sanalganlarning o‘ziyoq uning lingvistika sohasida naqadar sermahsul qalam tebratganidan dalolat beradi. Grammatikaga doir asarlari ichida “Al-Mufasssal” arab tili morfologiyasi va sintaksisini o‘rganishda eng muhim qo‘llanma sifatida sharqu g‘arbda katta shuhrat qozongan.

Lugʻatshunos sifatida dastlab arab leksikografiyasining mavzuviy printsipli (soʻzlarni lugʻatda mavzuviy guruhlar boʻyicha joylashtirish) “Al-jibol va-l-amkina va-l-miyoh” (togʻ, manzil va suvlar) nomli toponimik asarini yaratadi. Bu asarda arab tili leksikasiga oid geografik nomlar mavzuviy guruhlariga ajratib izohlangan. Mavzuviy guruh ichida soʻzlar alifbo printsipli asosida joylashtirilgan.

Unung turkiy lugʻatchilik ucun ham nodir boʻlgan asari “Muqaddimat ul-adab” (“Adabiyotga kirish”) asari. Asar Xorazmshoh Alouddavla Abdulmuzaffar Otsizga bagʻishlab yozilgan. Besh qismdan iborat: 1) ot, feʻl; 3) bogʻlovchilar; 4) ot oʻzgarishlari; 5) feʻl oʻzgarishlari.

Asarda ismlar (otlar) bir qancha mavzuviy guruhlariga ajratilgan. Bular, oʻz navbatida, yana kichik guruhlariga ajratilgan. Masalan, ismlarning hayvon nomlari qismi (bu qism mashhur polyak sharqshunosi A.Zayonchkovski tomonidan eʻlon qilingan) oʻn bir kichik mavzuviy guruhchalardan iborat. Bu mavzuviy guruhchalar asarda fasllar deb berilgan. Lekin fasllarning aniq nomlari keltirilmagan. Ularni shartli ravishda quyidagicha nomlash mumkin:

- 1) tuya nomlari (71 nom);
- 2) tuya aʻzolarining nomlari (25 nom);
- 3) tuya jabdugʻining nomlari (32 nom);
- 4) eshak va eshak jabdugʻining nomlari (42 nom);
- 5) qoramol va qoramol aʻzolarining nomlari (19 nom);
- 5) qoʻy va echki nomlari (42 nom);
- 6) qoʻy va boshqa hayvon nishon (belgi)larining nomlari (24 nom);
- 7) jun nomlari (11 nom);
- 8) yovvoyi hayvon nomlari (93 nom);
- 9) ilon-chayon nomlari (59 nom);
- 10) hasharot nomlari (52 nom);

Mashhur sharqshunos V.V.Bartoldning koʻrsatishicha, Mahmud Zamaxshariy lugʻatining turkiycha qismida XII-XIII asrlar Oʻrta Osiyo turkiy adabiy tilining leksikasi aks etgan.

Mazkur lugʻat oʻsha davrda arab tilining isteʻmolda boʻlgan barcha soʻzlari, iboralarini qamrab oladi. Bu soʻzlarning maʼnolari, etimologiyasi yetarli darajada keng sharhlanadi. “Muqaddimat ul-

adab” fors tilidan tashqari, chig‘atoy (o‘zbek), mo‘g‘ul, turk tillariga ham tarjima qilingan. Chig‘atoy tiliga tarjima muallifning o‘zi tomonidan bajarilgan bo‘lishi kerak. Chunki asar Xorazmshoh Otsizga bag‘ishlanganidan, u oson tushunishi uchun arabcha matn bilan birgalikda uning chig‘atoy tiliga tarjimasi ham berilgan. Asaring bir necha qo‘lyozmalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Asarning bizgacha yetib kelishi tilshunoslikning katta yutug‘i sanaladi. Chunki u o‘zbek tili tarixini o‘rganishda qimmatli va ishonchli material bo‘lib xizmat qiladi. Sadriddin Ayniy: “Muqaddimat ul-adab” asari o‘zbek tili uchun butun dunyoning xazinasini bilan barobardir”, – deb yozgan edi.

“Muqaddimat ul-adab” asrimizga kelib ko‘pchilik tilshunos olimlarning diqqatini tortdi. Ayniqsa, N.N.Poppe va A.K.Borovkovlar uning mo‘g‘ul va o‘zbek tiliga doir qismini tadqiq etdilar hamda butun asarning matnini nashr etishda katta xizmat qildilar. 1926-yilda Buxorodan topilgan, hijriy 989 (milodiy 1492)-yili hattot Darvesh Muhammad tomonidan ko‘chirilgan nusxada “Muqaddimat ul-adab” arabcha matnining birdaniga uch – fors, chig‘atoy (o‘zbek) va mo‘g‘ul tillariga so‘zma-so‘z tarjimasi beriladi. Faqat qisqacha so‘zboshininggina mo‘g‘ulcha tarjimasi beriladi.

Yuqorida “Muqaddimat ul-adab” asarining besh bo‘limdan iborat ekani aytilgandi. Buxoro nusxasida esa so‘nggi uch bo‘lim tushib qolgan. Ismlar mavzuviy tamoyil asosida guruhlariga bo‘linadi: vaqt nomlari, osmon jismlari nomlari, tabiat hodisalari nomlari, metall va minerallar nomlari, aloqa yo‘llari nomlari, suv bilan bog‘liq nomlar, o‘simlik nomlari va boshqalar. Fe’llar esa arab grammatik an‘anasiga muvofiq, o‘zak tarkibiga ko‘ra sinflarga ajratilgan. “Muqaddimat ul-adab” asarining chig‘atoy va mo‘g‘ul tillaridagi tarjima matni 1938-yilda N.N.Poppe tomonidan alohida kitob holida nashr etilgan.

Savol va topshiriqlar

1. O‘zbek lug‘atchiligining shakllanishida mumtoz arab leksikografiasining o‘rni qanday bo‘lgan?

2. Lugʻatchilikdagi “tilning sofligi tamoyili”, “fonetik-morfologik tamoyil”larni izohlang.

3. “Devonu lugʻatit turk”da tilning qaysi sathlari boʻyicha turkiy tillar qiyoslangan, ularning oʻxshash va farqli jihatlari belgilangan?

4. “Devonu lugʻatit turk” asarining (sharqshunos olim Solih Mutallibov tomonidan tayyorlangan) 1960-1963-yillardagi nashri bilan uning 2016-yildagi (professor Hamidulla Boltaboev tomonidan toʻldirilgan, kamchiliklari tuzatilgan) yangi nashrini solishtiring, asar nashrlarining mukammallik darajasiga baho bering.

5. Mahmud Zamaxshariyning mumtoz arab filologiyasi rivojidadagi xizmati nimadan iborat?

6. “Muqaddimat ul-adab” asarining oʻzbek lugʻatchiligi taraqqiyotidagi oʻrniga baho bering.

Test

1. Turkiy tillarni oʻrganish boʻyicha yaratilgan filologik asarlarning dastlabgisi qaysi?

- A. * Mahmud Koshgʻariy “Devonu lugʻotit turk”;
- B. Mahmud Zamaxshariy “Muqaddimat -ul adab”;
- C. Mirza Mehdiyxon “Sangloh”;
- D. Muhammad Yaqub Chingiy “Kelurnoma”.

2. “Devonu lugʻotit turk”ning oʻzbek ziyolilari orasidagi ilk taqiqothisi kim?

- A. * Abdurauf Fitrat;
- B. Abdulhamid Choʻlpon;
- C. Elbek;
- D. Solih Mutallibov.

3. Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” va Halil ibn Ahmadning “Kitob ul-ayn” asarlaridagi lugʻat tuzish tartibi boʻyicha asosiy farq nimada?

A. * Qoshgʻariy faqat isteʼmolda boʻlgan soʻzlarnigina lugʻatiga kiritgan;

B. Halil ibn Ahmad arabcha soʻzlarning izohini turkiy tilda sharhlagan;

C. Koshgʻariy oʻz devonida soʻzlarga misollarni xalq ogʻzaki ijodidan olgan;

D. Halil ibn Ahmad oʻz lugʻatini alifbo printsipida tuzgan.

4. Mahmud Zamaxshariy “Muqaddimat ul-adab” asarini kimga bag‘ishlagan?

- A. *Abulmuzaffar Otsizga;
- B. Muqtadoga;
- C. Tabg‘achxonga;
- D. Bug‘raxonga.

5. “M.Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asarining turkiycha lug‘at qismida XI-XII asrlar O‘rta Osiyo turkiy adabiy tilining leksikasi aks etgan”, – deya ta’rif bergan olim kim?

- A. *V.Bartold;
- B. V.Radlov;
- C. A.Kononov;
- D. V.Reshetov.

6. “M.Zamaxshariyning “Al-jibol va-l-amkina va-l-miyoh” (tog‘, manzil va suvlar) nonli lug‘ati qasyi tamoyilga asoslanib tuzilgan?

- A. *Mavzuviy tamoyil;
- B. Fonetik prinsip;
- C. Morfologik tamoyil;
- D. Tining sofligi tamoyili.

Adabiyotlar

1. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981.
2. Қўчқортөев И., Б.Исабеков. Туркий филологияга кириш. – Тошкент, 1984.
3. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
4. Махмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. I-II-III томлар. - Тошкент: Фан, 1960-1963.
5. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I-II-III томлар. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2006.
6. Ҳамидов З. Луғатшунослик тарихи ва қўлёзма луғатлар. – Тошкент: Адолат, 2004.
7. Jabborov X. Buyuk tilshunoslar – Qarshi, 2003.
8. Фозилов Э. Шарқнинг машҳур филологлари. – Тошкент: Фан, 1971.
9. Ҳасанов Ҳ. Махмуд Кошғарий. – Тошкент: Фан, 1973.

XIII-XIV ASRLARDA TURKIY LUG‘ATCHILIK

Reja

1. “At-tuhfatuz zakiyatu fil lug‘atit turkiya” (“Turkiy til haqida noyob tuhfa”) asarining asosiy leksikografik xususiyatlari
2. Asiruddin Abu Hayyon al-Andalusiy va uning “Kitob al idrok li-lison al-atrok” asari
3. Jamoliddin Abu Muhammad Abdulloh Turkiy va unung “Kitob bulg‘at al-mushtoq fi-lug‘atit-turkva-l-qifchoq” (“Turk va qipchoq tillariga mushtoqlarni qoniqtiruvchi kitob”) asari
4. “Kitobi tarjimon turkiy va ajamiy va mug‘uliy” asari va unda qo‘llangan leksikografik tamoyillar

Tayanch so‘z va iboralar: *fonetik-grafik ma’lumot, grammatik ocherk, infenitiv shakl, mavzuiy guruh, mavzuviy lug‘at, sof turkiy til, turkmaniy til, qipchoq tili, umumturkiy leksik birlik.*

Mo‘g‘ullar istilosi 1206-yilda Chingizxon boshliq mo‘g‘ullarning ilk feodal davlati tashkil topishidan boshlandi. 1207-1211-yillari Sibir va Sharqiy Turkiston xalqlari bo‘ysundirildi. 1221-yilda O‘rta Osiyoni to‘la ishg‘ol qildi. Shunday qilib, O‘rta Osiyo XV asrning ikkinchi yarmigacha, sohibqiron Amir Temur taxt tepasiga kelgunga qadar mo‘g‘ullar istilosi ta‘sirida bo‘ldi. Shuni ta‘kidlash kerakki, mo‘g‘ullar turkiyzabon elatlarni istilo qilib turganda, uning madaniyatiga ta‘sir eta olmadi. Aksincha, turkiy elatlar mo‘g‘ul madaniyatining rivojiga kuchli ta‘sir etdi. Jumladan, mo‘g‘ullar turkiylardan yozuv madaniyatini o‘zlashtirdi. Mo‘g‘ullar davrida ham Markaziy Osiyoda badiiy adabiyot an’anaga ko‘ra fors tilida yaratildi. Faqat mo‘g‘ul hukmdorlari saroyida ma’lum amalga ega bo‘lgan turkiy elat vakillarigina turkiy tilda ijod qilish g‘oyasini olg‘a surdilar. Fors tilida ijod qilayotgan turkiyzabon shoirlarni o‘z ona tillarida ijod qilishga da’vat etdilar.

Bu davrda o‘zbek, uyg‘ur adabiy tillari mustaqil tillar sifatida bir-biridan ajraldi. O‘zbek tilida bir qator badiiy asarlar maydonga keldi. A.K.Borovkov, A.M.Shcherbak singari turkolog olimlarning e’tirof etishicha, “Tafsir”, “Muhabbatnoma”, “Qissai Rabg‘uziy” kabi yodgorliklar o‘zbek tilining ilk yodgorliklari sanaladi.

Bu davrda ham turkiy tillarga qiziqish ortib bordi. Turkiy tillarni o'rganish ehtiyoji tufayli turkiy tillar lug'ati va grammatikasiga bag'ishlangan qator asarlar yaratildi. Ana shunday asarlardan biri, "At-tuhfatuz zakiyatu fil lug'atit turkiya" ("Turkiy til haqida noyob tuhfa") kitobi, bu asarning muallifi shu kungacha aniqlanmagan. Biroq asar muallifi Mahmud Koshg'ariy izidan borib, turkiy qabilalar tillarini, ularning o'zaro o'xshash va farqli xususiyatlarini belgilashga harakat qilgan. Muallif bu asarida asosan qipchoqlar tilini o'rganishni tadqiqot uchun ob'ekt qilib olgan. Bu tilni turkman tili bilan qiyoslagan. Uning aytishicha, "eng ko'p qo'llanadigan til qipchoq tili... Juda zarur bo'lgan o'rinlardagina turkman tiliga murojaat qildim", – deydi.

Bugungi turkiyshunoslik uchun ham, o'zbek xalqining kelib chiqishida katta etnik guruh hisoblangan qipchoq shevalari tarixini o'rganishda ham bu asarning asosiy manba bo'lishi aniq. "At-tuhfa" ("Noyob tuhfa") asarining birgina nusxasi bizgacha etib kelgan, Istanbul Valiuddin kutubxonasida saqlanadi.

Professor E.Fozilov va M.T.Ziyayevalar "At-tuhfa"ni kirish, leksik-grammatik ocherk, tarjima, so'zlik, grammatik ko'rsatkichlari bilan rus tilida 1978-yilda nashr etganlar. Asarning, aslida, qayerda yozilganligi ham munozarali (Misr yoki Suriyada yozilganligi aniqlanmagan).

Professor Solih Mutallibov "At-tuhfa"ni 1966-yilda birinchi bor o'zbek tiliga tarjima qilib nashr etdi. Lug'atning tuzilishi ham, grammatik ocherkning berilishi ham asar muallifining tilshunoslik bo'yicha chuqur bilim va tajribaga ega ekanligidan darak beradi. Asar qisqacha kirish, fonetik va grafik ma'lumotdan tashqari, ikki asosiy qismdan iborat, birinchi qismda lug'at, ikkinchi qismda grammatik materiallar berilgan. Lug'at tuzish mezonlari va grammatik qoidalari arab tili leksikografiyasi va grammatikasi an'analarga asoslangan. Muallif "men bu ishda o'zimdan oldin yozganlar tajribalariga muvofiq bo'lishga kirishdim", – deydi. U o'zigacha bo'lgan mualliflar ichida Abu Hayyon nomini alohida tilga oladi. Muallif Abu Hayyon haqida quyidagi fikrni aytadi: "Andalusli ulug' shayx alloma, tangri yorlaqagur Sharafitdin Abu Hayyon Muhammad bin Yusuf bin Ali bin Hayyon turkiy tillar xususida yozgan kitobida shunday deydi: "Bundan so'ng har tilni

bilish, uch narsani o'zlashtirish bilan hosil qilinadi. Birinchisi, har bir so'z ma'nosini aniqlab bilish. Bu qism "Lug'atshunoslik" deb ataladi. Ikkinchisi, so'zlarning ayrim-ayrim holdagi xususiyatlarini o'rganish. Bu qism "ilmi sarf" deb yuritiladi. Uchinchisi, so'zning bir-biriga bog'lanishiga doir xususiyatlarini o'rganish. Bu qism arabcha "ilmi nahv" deyiladi (9-10-bet). Bu fikrdan ma'lum bo'ladiki, "At-tuhfa" dan oldin ham shu davrda boshqa olimlar, jumladan, Abu Hayyon ham ana shu kabi lug'at yaratgan.

Lug'atda kasb-hunar, savdo, ijtimoiy hayot, tafakkur, o'simliklar, hayvonlar va boshqa sohalarga oid so'zlar arab alifbosi harflari bo'yicha boblarga ajratib izohlangan: hamza harfli (tovushli) so'zlar; b harfli (tovushli) so'zlar; t harfli (tovushli) so'zlar kabi. Har qaysi bobda oldin otlar, keyin fe'llar berilgan. Lug'at 21 bobni o'z ichiga oladi. Grammatik ocherkda qipchoq tili morfologiyasi va qisman sintaksisi mumtoz arab tilshunosligi terminlari vositasida tavsiflangan. Asarning bu qismi qipchoq tili grammatik qurilishi haqida ancha tugal tasavvur hosil etishga yordam beradi.

Professor A.Nurmonov o'zining "O'zbek tilshunosligi tarixi" (-Тошкент: Ўзбекистон, 2002) kitobida asar muallifining lingvistik qarashlarini alohida-alohida sarlavhalar ostida qayd etadi. Jumladan: 1) muallifning mentalingvistik qarashlari; 2) fonetika va grafika bo'yicha qarashlari; 3) grammatik masalalar; 4) ot va uning grammatik xususiyati; 5) fe'l va uning grammatik xususiyatlari; 6) yordamchi so'zlar; 7) undovlar; 8) so'z yasalishi; 9) sintaktik qarashlari kabi.

"At-tuhfa" asarining lug'at qismi "so'zlar, hamza bilan boshlanuvchilar" tarzidagi sarlavhachalar, "tana qismlari", "ot ranglari", "yer va u bilan bog'liq hamma narsalar", "o'rin va zamon bildiruvchi so'zlar", "tomonlarni bildiruvchilar", "o'tgan zamon fe'llari", "otlar", "fe'llar" nomi ostida berilgan. Bularning hammasi harflar ostida ma'lum tartibda qayd etilgan, glossariygacha bo'lgan qismida ham so'zlar berilib, ularning grammatik shakli ko'rsatilgan.

Kitobning glossariy qismi tarjimaning 259-sahifasidan alifbo tartibida, 410-sahifalar orasida qayd etilgan. Asarning glossariy (lug'at) qismida 3700 ga yaqin so'z berilgan. Glossariyda masalan, *avlak* so'zi omonim birlik sifatida 4 ta alohida-alohida so'z sifatida

qayd etilganligi kuzatiladi. Asarning grammatik ko'rsatkichlar qismida affikslar ham alifbo tartibida qayd etilgan va izohlangan.

Haqiqatan ham, "At-tuhfa" asari, o'zbek tilshunosligi tarixini o'rganishda o'ziga xos o'ringa ega. Kitob muallifining tilshunoslikning barcha sohalari bo'yicha qarashlari, o'z mukammalligi, yangiligi, yashovchanligi bilan farqlanadi. Tilning ijtimoiyligi haqidagi fikrlari muallifning hozirgi davr tilshunosligidagi fikrlar bilan uyg'unlashganligini bildirib turadi.

XII-XIV asrlar lug'atchiligi taraqqiyotida mashhur tilshunos Asiruddin Abu Hayyon al-Andalusiyning o'ziga xos o'rni bor. U 1256-yili Ispaniyada tug'iladi va umrining 80 yilini ilmga bag'ishlaydi. Arab, fors, turk tillarini mukammal bilgan olim bu tillarning grammatikasi, leksikografiyasi bo'yicha qimmatbaho asarlar yaratadi. Olim 1345-yilda vafot etgan va Qohiraga dafn qilingan. Batrus al-Bo'stoniy kitobida Abu Hayyonning 50 dan ortiq asarlari nomi berilgan. Abu Hayyon turkiy tillarga bag'ishlangan 4 ta asar yozgan, shundan bittasigina bizgacha etib kelgan. Bu kitob "Kitob al idrok li-lison al-atrok" deb nomlanadi va 1312-yilda Qohirada yozib tugallanadi.

Tukolog olim N.A.Baskakovning ko'rsatishicha, "Kitob al-idrok li-lison al-atrok" asari qipchoq tilini o'rganuvchilar uchun mo'ljallab yozilgan amaliy qo'llanma. Asarda turkiy tillar leksikasi va grammatikasiga oid qiyosiy ma'lumotlar ham bor.

Asar ikki qismdan iborat: 1) lug'at; 2) grammatika.

Lug'atda so'zlar alifbo tamoyili asosida joylashtirilgan. So'zning lug'atdagi o'rni so'z boshidagi ikki harf (tovush) asosida belgilangan. Izohlangan so'zlarning ko'pchiligi qipchoq tiliga oid. Lekin lug'atda turkman tiliga tegishli deb ko'rsatilgan so'zlar ham anchagina. Mana shu faktga tayanib ba'zi tadqiqotchilar Abu Hayyonning bu asari qipchoq-turkman tiliga bag'ishlangan asar degan fikrni bildiradilar.

Abu Hayyonning bu asarida qipchoq va turkman tillarining fonetik xususiyatlari ham taqqoslangan. Qipchoq tiliga oid fonetik xususiyatlar sifatida quyidagilar ko'rsatilgan:

- 1) so'z boshida **y** tovushining kelishi: *yip (ip), yilan (ilon)*;
- 2) **g** va **y** tovushlarining o'rin almashib kelishi: *egin - eyin (elka)*;

3) **g'** va **y** tovushlarining o'rin almashib kelishi: *bug'doy* - *buyday* (*bug'doy*);

4) **g'** va **> v** tovushlarining o'rin almashib kelishi: *o'g'ul* - *o'vul*, *aq'uz* - *avuz*;

5) **x** va **q** tovushlarining o'rin almashib kelishi: *lo'ja* - *qo'ja*.

Asarda turkman tiliga oid fonetik xususiyatlar sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

1) **m** va **b** tovushlarining o'rin almashib kelishi: *man* - *ban*;

2) **t** va **d** tovushlarining o'rin almashib kelishi: *tamir* - *damir*, *tilku* - *dilku* (*tulki*).

Professor Ahmad Ja'far o'g'li asarni, keyin topilgan ikkinchi nusxa bilan solishtirib, uning matnini tuzgan va turk tiliga tarjima qilgan. "Kitob al idrok" asariga olimlarning qiziqishi katta. Bu kitob XIV asr turkiy tillarni o'rganishda juda katta material beradigan muhim va original yodgorlik. Unda mamluklar davlati hududida mavjud bo'lgan asosiy dialektlarning leksikasi va grammatikasi haqida ma'lumotlar mavjud. Asarda umumturkiy leksik birliklar bilan birga qipchoq, o'g'uz va boshqa dialektlarga xos bo'lgan so'zlar beriladi. Ayrim o'rinlarda grammatik shakllarning u yoki bu dialektlarga taalluqli ekanligi haqida ham ma'lumotlar berilganligi, ayniqsa, muhim.

Bu davr lug'atchiligi taraqqiyotida Jamoliddin Abu Muhammad Abdulloh Turkiyning ham o'z o'rnini bor. Bu mashhur olimning tug'ilgan yili noma'lum. Taxminan, XIV asrning ikkinchi yarmida yashagan. Bizga bu olimning birgina "Kitob bulg'at al-mushtoq fi-lug'atit-turk va-l-qifchoq" ("Turk va qipchoq tillariga mushtoqlarni qoniqtiruvchi kitob") asari etib kelgan. Asarning yagona qo'lyozmasi Parij milliy kutubxonasining Sharq qo'lyozmalari fondida 293 shifri bilan saqlanadi. Qo'lyozma 83 sahifadan iborat. Har bir sahifada 10 ta qator mavjud, bunda 30 ga yaqin turkiy so'zlar arabcha izoh bilan berilgan. Avval qora siyohda yozilgan arab so'zlari, so'ng qizil siyohda turkiy tilda arabcha so'z va iboralarning muqobili beriladi. Muallif leksikografik materiallarni bob va fasllarga ajratgan. Qo'lyozma 4 bobdan iborat. Abdulloh Turkiyning bu lug'ati, ayniqsa, so'zlarni mavzuiy guruhlariga ajratgan holda qayd etishi bilan, odatda, mavzuviy lug'atlar tuzishdagi ilk namuna bo'lishi bilan o'ta muhim ahamiyatga ega.

Lugʻatning birinchi bobi tangrining ismi va unga samoda tobe boʻlgan mavjudotlarning nomi: tangri, arzu-birchi, yalavach, farishtalar kabi birliklarni qamrab olgan; ikkinchi bobda yer yuzidagi narsalarni ifodalovchi soʻzlar bir necha fasllarda berilgan: a) yer, qir, sirt, yar, oʻrmon kabilar; b) qazilmalar – metall, minerallar, oltin, kumush, qamur, temir va boshqalar; c) tijorat ashyolari: sircha, ibar va boshqalar; d) ichimliklar nomlari: sut, ash, bal; e) qarindoshlik nomlari: ana, oʻgʻlan, ogʻul, qiz va boshqalar. Shu tarzda bob 17 ta faslga ajratilgan. Uchinchi bobda payt ravishlari, oʻrin ravishlari, hafta, kun nomlari, olmoshlar kabilar; toʻrtinchi bobda feʼllar, feʼl shakllari infinitiv koʻrinishda qayd etilgan. Bu bobda yana soʻzlarni tushunish va oʻzlashtirishni osonlashtirish maqsadida leksikografik materiallar bilan birga baʼzi oʻrinlarda, ayrim grammatik qoidalarni ham beradi. Asarning yozilgan vaqti taxminan 1451-yil, yozilgan oʻrni esa Suriya deb belgilangan.

Jamoliddin Turkiyni fan olamiga polyak Ananiyash Zayonchkovski olib kiradi. A.Zayonchkovski 1938-yilda Varshavada bu nodir manbaning birinchi qismini, yaʼni “ot bobi”ni lotin alifbosida transkripsiyada polyak va frantsuz tiliga tarjimai bilan arab yozuvidagi matn va faksimillarini eʼlon qilgan. A.Zayonchkovski 1954-yilda qoʻlyozmaning ikkinchi bobi, yaʼni “feʼl bobi”ni 1958-yilda nashr qiladi. Mashhur olimning ana shu nashri turkologlar tomonidan yuqori baholanadi va muhim manba sifatida qabul qilinadi. Professor Ergash Fozilov “Sharqning mashhur filologlari” risolasida (-T., 1971) Abu Hayyon va Jamoliddin Turkiy asarlarida qayd etilgan soʻzlar lugʻatini ham beradi.

Moʻgʻullar istilosidankeyin turkiy xalqlarning butun-butun guruhlari arab mamlakatlariga, xususan, Misrga koʻchadi va bu erda oldindan yashab kelayotgan xalqlar: arablar, forslar, turkiylar bilan birga hayot kechira boshlaydi. Arab mamlakatlarida turkiy xalqlar mavqeining oshuvi ular tiliga qiziqishni yanada kuchaytiradi. Misrda turkiy tillarni oʻrganish, ularni arab tiliga solishtirish va bir-biriga qiyoslash boʻyicha filologik qoʻllanmalar soni koʻpayadi. Ana shunday asarlardan biri – “Kitobi tarjimon turkiy va ajamiy va mugʻuliy” asari. Bu asarning muallifi va yozilgan vaqti aniqlangan

emas. N.A.Baskakovning taxminicha, bu asar XIII asrning o'rtalarida yaratilgan. Mazkur asar tilshunos Abdulla Yunusov tomonidan 1980-yilda nashr etilgan ("Таржумон" XIV аср ёзма ёдномаси. Нашрга тайёрловчи Абдулла Юнусов. – Тошкент: Фан, 1980).

Asar 76 varoqdan iborat. Uning 62 varog'i turkcha-arabcha, qolgani esa mo'g'ulcha-forscha lug'atlar. Asar Misr yoki Suruyada yozilgan deb faraz qilinadi. Yodgorlik bitilgan joyda turkiy xalqlarning qipchoq, o'g'uz, turkman urug' xalqlari yashaganligi tufayli asarda ularning til xususiyatlari aks etgan. So'zlikda berilgan har bir bosh maqola arab tilidan tashqari, turkiy, fors va mo'g'ul tillari materiallari berilgan. Asosiy qism arabcha-turkiycha lug'atdan iborat. Asarning fors va mo'g'ul tillariga bag'ishlangan qismlarida mo'g'ulcha-forscha va arabcha-mo'g'ulcha lug'at berilgan.

Bu asarning kirish qismida turkiy tillar lug'ati va grammatikasi bo'yicha anchagina qo'llanmalar mavjudligi haqida ma'lumot keltiriladi. Bu ma'lumot o'sha davrda turkiy tillarni o'rganish va tavsiflash bo'yicha ma'lum an'ana yaratilganidan dalolat beradi.

Asar muallifi turkiy til shevalarining ko'pligi va xilma-xilligini aytib, bulardan ikkitasini alohida ajratib ko'rsatadi: sof turkiy til va turkman tili (turkmaniy til). Asarda keltirilgan material asosan sof turkiy tilga tegishli, bu til, N.A.Baskakovning ko'rsatishicha, qipchoq tili (Dashti qipchoq vakillarining tili).

Asarda izohlangan turkiycha so'zlarning soni 1500 ga yaqin. Shulardan 90 tasi turkmancha yoki turkman tili orqali o'zlashgan so'z sifatida sharhlanadi.

Asarning turkiy tilga bag'ishlangan qismi to'rt bo'limdan iborat:

1) otlar; 2) fe'llar; 3) fe'llarning tuslanishi; 4) qo'shimchalar.

Lug'atda otlar 26 mavzuviy-semantik guruhga ajratib berilgan. Shu mavzuviy-semantik guruhlardan namunalar:

1) *atoqli otlar va laqablar*: Aysalu, Aro'slan, Atsitush, Mo'g'ultay, Sato'lmo'sh, Altun, Aqbala, Gulnar, Gulbahar *kabi*;

2) *qarindoshlik nomlari*: ata, ana, cheche, ekajiepchi, kuyagu, kokurdash *kabi*;

3) *gavda a'zolarining nomlari*: bash, baltir, bago'rsaq, bukrak, kerpik, egin *kabi*;

4) *yovvoyi va uy hayvonlarining nomlari*: qablan, bori, so'rtlan,

qulan, qulun, tana, chibich, bog‘ra *kabi*;

5) *qush nomlari*: buldo‘rcho‘n, yabalak, sag‘izg‘an, qaz, sarlag‘ach, tavshanjo‘l *kabi*;

6) bog‘dorchilik va polizchilik nomlari: *alma, ayva, anjir, tal, sabaq, qavun, tarbo‘z* *kabi*;

7) ro‘zg‘or buyumlari va ovqat nomlari: *qashuq, naeli, elak, ash, et, tsavurma, churak* *kabilar*.

Tadqiqotchi A.Yunusov mazkur yodnomani arabchadan o‘zbek tiliga mohirlik bilah o‘giran.

Savol va topshiriqlar

1. Mo‘g‘ullar istilosi turkiy xalqlar madaniy hayotiga, xususan tilshunosligi va lug‘atchiligiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

2. “At-tuhfatuz zakiyatu fil lug‘atit turkiya” (“Turkiy til haqida noyob tuhfa”) asaridagi muallifning mentalingvistik qarashlarini, fonetika va grafika bo‘yicha qarashlarini, so‘z yasaliş va grammatikaga oid qarashlarini tavsiflang.

3. Abu Hayyonning “Kitob al idrok li-lison al-atrok” asaridagi qipchoq va turkman tillarining fonetik sath doirasida taqqoslanishini ko‘rsating, lug‘atning tuzilish tamoyillarini izohlang.

4. Abu Muhammad Abdulloh Turkiy tomonidan yaratilgan “Kitob bulg‘at al-mushtoq fi-lug‘atit-turk va-l-qifchoq” (“Turk va qipchoq tillariga mushtoqlarni qoniqtiruvchi kitob”) asarida qo‘llangan mavzuvii tamoyilni, lug‘at maqolalarining joylashish sxemasini ko‘rsating.

5. Muallifi noma‘lum bo‘lgan “Kitobi tarjimon turkiy va ajamiy va mug‘uliy” nomli arabcha-turkiycha, mo‘g‘ulcha-forscha va arabcha-mo‘g‘ulcha lug‘atning tuzilish tamoyillarini ko‘rsating, asardagi sof turkiy til va turkman tili (turkmanii til) atamalariga izoh bering.

6. Mazkur davrda yaratilgan lug‘atlarning o‘zbek leksikografiyasi taraqqiyotidagi o‘rniga ilmiy baho bering.

Test

1. “At-tuhfatuz zakiyatu fil lug‘atit turkiya” (“Turkiy til haqida noyob tuhfa”) asarini birinchi bo‘lib o‘zbek tilida nashr ettirgan olim kim?

- A. * Professor Solih Mutallibov 1966-yilda;
- B. Professor Ergash Fozilov 1966-yilda”;
- C. Professor Ergash Umarov 1970-yilda”;
- D. Professor Abduhamid Nurmonov 1981-yilda”.

2. “At-tuhfatuz zakiyatu fil lug‘atit turkiya” (“Turkiy til haqida noyob tuhfa”) asarining grammatik ocherk qismida qaysi tilning grammatik xususiyatlari tavsiflangan?

- A. *Dashti Qipchoq vakillari tilining morfologiyasi va qisman sintaksisi ;
- B. Turkman tili morfologiyasi va qisman sintaksisi;
- C. Arab tili morfologiyasi va qisman sintaksisi;
- D. Usmonli tirk tili morfologiyasi va sintaksisi.

3. Abu Hayyonning “Kitob al idrok li-lison al-atrok asarida qaysi tillarning fonetik xususiyatlari taqqoslangan ?

- A. * Qipchoq va turkman tillarining;
- B. Usmonli turk va ozarbayjon tillarining;
- C. Usmonli turk va fors tillarining;
- D. Usmonli turk va arab tillarining.

4. Jamoliddin Turkiyning “Kitob bulg‘at al-mushtoq fi-lug‘atit-turk va-l-qifchoq” (“Turk va qipchoq tillariga mushtoqlarni qoniqtiruvchi kitob”) asarida...

- A. * Turkiycha so‘zlarning arabcha izohi berilgan;
- B. Arabcha so‘zlarning turkiycha izohi berilgan;
- C. Usmonli turkcha so‘zlarning arabcha izohi;
- D. Forscha so‘zlarning turkiycha izohi.

5. “Kitobi tarjimon turkiy va ajamiy va mug‘uliy” lug‘ati so‘zligida qaysi tillarga oid materiallar berilgan?

- A. *Arab, turkiy, fors va mo‘g‘ul tillariga oid materiallar;
- B. Turkiy, fors va mo‘g‘ul tillariga oid materiallar;
- C. Usmonli turk tiliga oid materiallar;
- D. Arab, turkiy va fors tillariga oid materiallar.

6. “Kitobi tarjimon turkiy va ajamiy va mug‘uliy” asarini qanday lug‘atlar sirasiga kiritish mumkin?

- A. *Ko‘p tilli tarjima lug‘atlari sirasiga;
- B. Ikki tilli tarjima lug‘atlari sirasiga;
- C. Uch tilli tarjima lu‘atlari sirasiga;
- D. Izohli lug‘atlar sirasiga.

Adabiyotlar

1. Фозилов Э., Зияева М. Изысканный дар тюркскому языку. – Ташкент, 1978.

2. Қўчқортюев И., Исабеков Б. Туркий филологияга кириш. – Тошкент, 1984.

3. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.

4. Ҳамидов З. Луғатшунослик тарихи ва қўлёзма луғатлар. – Тошкент: Адолат, 2004.

5. Jabborov X. Buyuk tilshunoslar – Qarshi, 2003.

6. Фозилов Э. Шарқнинг машхур филологлари. –Тошкент: Фан, 1971.

7. “Таржумон” XIV аср ёзма ёдномаси. Нашрга тайёрловчи Абдулла Юнусов. – Тошкент: Фан, 1980.

8. Файзуллаева Ш. Исследование языка памятника XVв. «Китабу булгат ал-муштак фи-лу-ат ат-турк ва-л-кифчак» Жамалад-дина ат Турки: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1969.

9. Расулов Н. Исследование языка «Китаб ал-идрак ли-лисан ал-атрак» Абу Хаййана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1969.

10. Зияева М. Исслелование памятника XIV в. “Китаб ат-тухфат уз закийа фил-лугатит-туркийя”. – Ташкент, 1972.

O'ZBEK LUG'ATCHILIGINING ESKI O'ZBEK TILI DAVRI

Reja

1. Alisher Navoiy asarlari tili bo'yicha yaratilgan lug'atlar.
2. Lug'atlarda grammatika masalalarining yoritilishi.
3. Ideografik tipdagi, uya tipdagi hamda izohli tipdagi lug'atlarning yuzaga kelishi.
4. Davr lug'atchiligining o'zbek leksikografiyasi takomidagi o'rni.

Tayanch so'z va iboralar: *maxsus lug'at, uyalarga joylashtirish tamoyili, umumiylik va xususiylik tamoyili, leksik-semantik ta'rif, fe'lning masdar formasi, mavzuiy guruh, tarsif, mabna, asosiy ma'no, hosila ma'no, etimologik izoh.*

Eski o'zbek adabiy tili (o'rta asrlar nazarda tutiladi -XIV asrdan keyingi davr) leksikografiyasi bevosita XII-XIV asrlar lug'atchiligi ta'sirida shakllandi, deyish mumkin. Mazkur davrda sohibqiron Amir Temur saltanati tashkil topadi. Amir Temur davrining yetuk bilimdoni bo'lgani uchun o'zi barpo etgan buyuk imperiya hududida ilm-fan, madaniyat, san'at, arxitekturaning rivojiga alohida ahamiyat beradi. Dunyoning turli joylaridan olimu fuzalolarni saroyga yig'ib, ularga izzat-ikrom ko'rsatdi. Ijod qilishlari uchun qulay imkoniyat yaratib beradi. U turkiy (o'zbek) tilning obro'-e'tiborini ko'tarish, uning qo'llanish doirasini kengaytirish, bu tilni diplomatik munosabatlar, davlatning turli hujjatlari yuritiladigan tilga aylantirishga alohida ahamiyat berdi.

Temuriylar saroyida o'sib-ulg'aygan Alisher Navoiy Amir Temur niyatini to'la amalga oshirishga bel bog'lab, o'zbek milliy tilini adabiy til darajasiga ko'tarishda samarali mehnat qildi.

Bu davrda Alisher Navoiy asarlariga, ayniqsa, forsiyzabon adiblarning qiziqishi ortadi. Shuningdek, adib asarlarining keng omma tushunishi masalasi ham ko'zda tutiladi. Ana shu ehtiyojlarni qondirish maqsadida ko'pgina turkcha-forscha tarjima lug'atlari yaratildi: Toli Imoniyning "Badoyi al-lug'at", Mirza Mehdiyxonning "Sangloh", "Lug'ati atrokiya", "Xulosayi Abbosi", ("Sangloh"ning qisqa varianti); Muhammad Rizo Xoksorning "Muntaxab al-lug'at"

asari, shuningdek, eski o'zbekcha-turkcha "Abushqa" lug'ati kabilar. Bu lug'atlar, ayniqsa, ma'lum bir adib asarlari bo'yicha tuzilganligi bilan lug'atchilik tarixida yangilik edi. Shuning uchun ham, o'zbek leksikografiyasiga oid bunday lug'atlar, avvalo, Evropa olimlarining qiziqishini kuchaytirdi. Hatto rang-barang lug'atlarga boy bo'lgan arab va fors leksikografiyasi tarixida ham ma'lum adib yoki bir necha adiblar asarlari asosida tuzilgan bunday lug'atlar mavjud emas.

XX asrning 60-yillaridan boshlab o'zbek olimlari yuqoridagi lug'atlarning leksikografik xususiyatini o'rganishga kirishdilar. Alisher Navoiy asarlari asosida tuzilgan lug'atlarda mualliflar, asosan, eski o'zbek tiliga xos bo'lgan so'zlarni tanlab olishni maqsad qilishgan.

Alisher Navoiy asarlari tili bo'yicha yaratilgan dastlabgi lug'at "Badoe-al-lug'at" asari. Lug'at muallifi Toli Imoniy Hiraviyning hayoti to'g'risida ma'lumot yo'q. Taxallusi (Hiraviy) uning Hiroflik bo'lganidan, asarni Husayn Boyqaro farmoniga muvofiq yozgani esa uning Alisher Navoiy bilan bir davrda yashaganidan dalolat beradi.

Lug'atning kirish qismida muallif turkiycha lug'atlardan foydalangani haqida yozadi. Bu ma'lumot o'sha davrda Hirotda boy turkiycha lug'atshunoslik an'anasi mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Bu an'ana, shubhasiz, Mahmud Qoshg'ariy va boshqa olimlar boshlagan an'anaga borib taqaladi. "Badoe-al-lug'at"da so'zlar alifbo tamoyili asosida joylashtirilgan va turkiycha so'zlarning ma'nolari fors tilida izohlangan. So'zlar izohida, leksik-semantik ta'rif (izoh, tushuntirish) bilan bir qatorda, fonetik, orfografik va morfologik ma'lumotlar ham keltirilgan. Fonetik-orfografik ma'lumotlar so'zning talaffuzi (o'qilishi) va yozilishi xususidagi qoidalaridan tashkil topgan. Lug'at muallifi bir xil yoziladigan so'zlarni qanday diakritik belgi bilan ta'minlash kerakligiga alohida e'tibor bergan.

Lug'atda so'zlarning morfologiyasi arab filologiyasi an'analari asosida puxta ishlangan. Otlar bosh kelishikda, birlik sonda, fe'llar esa masdar formasida (-moq va -mak formasida) keltirilgan. Yordamchilar alohida berilgan. Lug'atning illyustrativ materiali Alisher Navoiyning "Xamsa" va "Chor devon" asarlaridan olingan. Toli Imoniy Hiraviyning "Badoe-al-lug'at" asari bo'yicha bir qancha

ilmiy tadqiqot ishi amalga oshirildi. Lugʻatning fotokopiyasi bilan ruscha tarjimasini alohida kitob holida A.K.Borovkov tomonidan nashr ettirildi.

Alisher Navoiy asarlari asosida yaratilgan lugʻatlardan yana biri – “Abushqa” lugʻati. Bu lugʻatning nomi ham, muallifi ham nomaʼlum. Lugʻat ichidagi birinchi soʻz bilan “Abushqa” (qari chol) deb atab kelinadi. Lugʻat “Badoe-al-lugat” asariga koʻp jihatdan yaqin. “Badoe-al-lugʻat” XV asrda yaratilgan boʻlsa, “Abushqa” XVI asrning birinchi yarmida yaratilgan. Har ikki lugʻatda misollar Alisher Navoiy asarlaridan olingan. A.K.Borovkovning taxminicha, “Abushqa”ning muallifi “Badoe-al-lugat”ni yaxshi bilgan. Bu lugʻtlar orasidagi yaqinlik ularda koʻp soʻzlarning bir xil izohlanishi va ularda keltirilgan illyustrativ materialning bir-biriga oʻxshash ekanligida koʻrinadi. Lekin bu oʻxshashliklar “Abushqa” “Badoe-al-lugʻat”ning koʻchirmasi ekan degani emas. Bu lugʻatlar orasida sezilarli farq ham mavjud. Masalan, Toli Imoniy Hiraviyning lugʻatida forslar uchun tushunarsiz boʻlgan eski oʻzbekcha soʻzlarning maʼnolari fors tilida izohlangan, “Abushqa”da esa turklar (usmonli turklar) uchun tushunarsiz boʻlgan eski oʻzbekcha soʻzlarning maʼnolari turk tilida izohlangan. Shuning uchun bu lugʻatlarning mundarijasi katta farqqa ega.

“Abushqa”dagi lugʻat maqolachalari ham “Badoe-al-lugʻat”dagi lugʻat maqolachalaridan farq qiladi. “Badoe-al-lugʻat”da maqolachaning sarlavhasi sifatida feʼlning masdar formasi olinib, boshqa shakllarning barchasi shu forma tagida berilgan. “Abushqa”da esa feʼlning masdar shakli emas, balki feʼlning matnda uchragan shakli sarlavhaga chiqarilgan. Masalan, *eskirmak* feʼli “Badoe-al-lugat”da izohlanganda, maqolacha sarlavhasiga uning masdar formasi (*eskirmak*

formasi) chiqarilib, misol uning oʻtgan zamon (*eskirdi*) formasiga keltirilgan. “Abushqa”da esa *eskirdi* formasining oʻzi sarlavhaga chiqarilgan. “Abushqa” asari turkologlarning eʼtiborini oʻtgan asrdayoq oʻziga jalb etgan.

Eski oʻzbek tili boʻyicha yaratilgan lugʻatlar ichida “Kelurnoma” lugʻati ham ahamiyatli. Bu lugʻat Hindistonda, boburiylardan Abu Muzaffar Muhiddin Aurangzeb hukmronligi davrida (XVII asrda) yaratiladi. Asar muallifi Muhammad Yoqub

Changiy “Kelurnoma” lug‘atining kirish qismida o‘z asarini Avrangzebning topshirig‘iga binoan yozganini aytib o‘tadi. Lug‘atda eski o‘zbek tiliga tegishli so‘zlarning ma’nolari, fors tilida izohlanadi. Fe’llar lug‘atda masdar formasida (*-moq, -mog‘ formasida*) berilgan. Fe’llarning ma’no xususiyati bilan bir qatorda ularning grammatik kategoriyalari, zamon formalari ham izohlanadi. Bu asar ikki xil lug‘atning ajoyib namunasi. Lug‘at 15 bobdan va 332 fasldan iborat. Ulardan 14 bobi arab alifbosi asosida joylashtirilgan 400 dan ortiq fe’lni izohlashga bag‘ishlanadi. Lug‘atning oxirgi bobi ot so‘zlarga bag‘ishlanadi. Bu bob quyidagi mavzuviy guruhlariga ajratiladi:

1) koinotga tegishli tushunchalar, predmet va hodisalarning nomlari;

2) geografik joylarning nomlari;

3) hayvonlarning nomlari;

4) qushlarning nomlari;

5) odam gavdasi a’zolarining nomlari;

6) qarindoshlik nomlari;

7) qurol-aslahalarning nomlari;

8) sonlar;

9) olmosh, ravish va yordamchi so‘zlar.

Muhammad Yoqub Changiyning “Kelurnoma” asari haqida muayyan tadqiqotlar olib borilgan. Bu lug‘at ikki tipdagi lug‘atni – uya va ideografik lug‘atni o‘z ichiga oladi.

Fazlullaxon Barlosning “Lug‘ati turkiy” asari o‘zbekcha-forscha lug‘at sirasiga kiradi. Turkolog olim A.Shcherbakning taxminicha, lug‘at XVII asrning oxirida yaratilgan. Asar uch qismdan iborat, uning birinchi qismida eski o‘zbek tilidagi hodisalar fe’lning masdar formasi fors tilida izohlangan, ikkinchi qismida fe’lning boshqa formalari (mayl, zamon kabi formalari) tavsiflangan. Asarning uchinchi qismi otlar talqiniga bag‘ishlangan. Tilshunos A.Ubaydullayev Fazlullaxonning “Lug‘ati turkiy” asari tahlilida lug‘atda so‘zlar izohlarining quyidagi turlarini ko‘rsatadi:

-muqobili bilan izohlash;

-kengroq izohlash;

-umumiy izohlash;

-qo‘shimcha ravishda hindcha so‘zlar bilan izohlash⁵.

Lug‘atda so‘zlarning talaffuziga oid ma‘lumot ham bor. O‘zbek adabiy tili fonetik sistemasi taraqqiyotini o‘rganishda bu ma‘lumotlardan foydalanish mumkin. Mutaxassislarining ko‘rsatishicha, Fazlullaxonning “Lug‘ati turki” asari kamchiliklardan ham xoli emas. Unda ayrim so‘zlarning ma‘nosi noto‘g‘ri izohlangan. Lug‘atda illyustrativ material ham etarli emas. Ba‘zi so‘zlar izohida umuman misollar yo‘q.

Bu davr lug‘atchiligida grammatika masalalarini o‘z ichiga olgan lug‘atlar ham uchraydi. Ana shulardan biri Mirza Mehdiyxonning “Sangloh” lug‘ati. Eski o‘zbek tilidagi 8 000 so‘zni o‘z ichiga olgan mazkur lug‘at “Moboni ul-lug‘at” (“Til asoslari”) nomli grammatik ocherkni ham o‘z ichiga oladi. Mirza Mehdiyxonning to‘liq ismi Nizomiddin Muhammad Hodi al-Husayni as-Safaviy, otasining ismi esa Mirza Muhammad Nosiriy. U asli Astrobodlik, Eron shohi Nodirshoh saroyida muarrix va hattot bo‘lib ishlagan. Mehdiyxon “Sangloh” lug‘atini melodiyl 1760-yilda yozib tugallagan (hijriy 1172-1173).

Lug‘atning “Moboni ul-lug‘at” nomli grammatikaga bag‘ishlangan qismi muqaddima va tarsifdan (grammatika) iborat.

Tarsif qismi olti mabna (qism)ni o‘z ichiga oladi. Muqaddima qismida asarning yozilish sabablari va Alisher Navoiyning bu asar uchun manba bo‘lib xizmat qilgan nazmiy va nasriy asarlarining nomi qayd etiladi.

Mehdiyxon bu qismda turkiy tilning fors tilidan ham, arab tilidan ham farq qiladigan o‘ziga xos grammatika qonuniyatlari mavjudligini ta‘kidlaydi.

Tarsif qismida arab tilida fe’llarning asosi masdar-infinitiv ekanligi, o‘zbek tilida esa II shaxs, birlik, buyruq maylining shakli ekanligi bayon qilinadi. Fe’lning barcha shakllari shu asosdan hosil bo‘lishini aytadi. Shundan so‘ng fe’lning turli shakllari haqida fikr yuritiladi.

Birinchi mabna o‘n bobni o‘z ichiga oladi. Birinchi bobda masdar va uning turli nisbat shakllari haqida ma‘lumot beriladi.

⁵ Убайдуллаев А. “Луғати туркий”нинг лексикографик тадқиқи: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2011. – Б.16.

Ikkinchi bobda esa *fe'li moziy* (o'tgan zamon) shakllariga to'xtaladi. Fe'li moziy shakllariga *-di (-ti)*, ravishdoshning *-p, -ban*, sifatdoshning *-mish, -gan (-g'an, -qan, -kan)* shakllari hamda fe'lning *-maydur* shakli kelritiladi.

Uchinchi bobda *fe'li muzori* (hozirgi-kelasi zamon) shakllari tavsiflanadi. Bunday shakllar qatoriga *-gay (-g'ay, -kay, -kay)*, *-sun (sun)*, *-dik, -a* va *-r* shakllari kiritiladi.

To'rtinchi bobda *ismi foillar* (harakat qiluvchi shaxslar nomlari) o'rganiladi. Bunday fe'llar qatoriga *-guchi (-g'uchi, -kuchi, -quchi)*, *-agan (-g'an)*, *-r* shakllari hamda kasb nomlari hosil qiluvchi *-ni, -vul, -gun (-qun, -kun)*, *-chak* shakllari kiritiladi.

Beshinchi bobda *ismi maf'ul* atamasi ostida o'tgan zamon sifatdoshi (*-mish, -lig, -lik*) *-lug, gun (-g'un)* kabi, oltinchi bobda *fe'li amr* atamasi bilan buyruq mayli shakllari, yettinchi bobda fe'lning bo'lishsizlik shakllari, sakkizinchi bobda *fe'li nafi* nomi ostida fe'lning bo'lishsizlik shakllari hosil qiluvchi qo'shimchalar sharhi, to'qqizinchi bobda hol (ravish va ravishdosh) shakllari, o'ninchi bobda affikslarning o'zakka qo'shilish usullari bayon qilinadi.

Ikkinchi mabnada fe'l shakllari hosil qiluvchi affikslarning fonetik variantlari va ularning qo'llanilish xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Uchinchi mabna olmoshlarni o'rganishga bag'ishlanadi. Olmoshlar *ismi ishora* (ko'rsatish olmoshlari), *zamoiri-munfa-sayaa* (bunga kishilik olmoshlari va *-men, -sen, -biz, -siz* kabi bog'lamalar kiritiladi), *zamoiri muttasila* (bunga egalik qo'shimchalari kiritiladi) kabi turlarga bo'linadi.

To'rtinchi mabnada *harf* atamasi ostida affikslar ro'yxati va ularning tavsifi beriladi.

Beshinchi mabna esa grammatikalashayotgan *olmoq, tushmoq, bilmak, kirishmak, yzmaq, ko'rmak* kabi ko'makchi fe'llar tavsifiga bag'ishlanadi.

Oltinchi mabnada eski o'zbek orfografiyasi tamoyillari va ayrim so'zlarning imlosi bayon qilinadi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Mirza Mehdiyxonning "Moboni ul-lug'at" asari orqali XVI-XVII asr o'zbek tilshunosligidagi grammatik tushunchalar haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Mirza Mehdiyxon asarining lugʻat qismi “Sangloh” deb nomlangan. Forscha *sang* soʻzi “tosh” degan maʼnoni ifodalaydi. Sangloh (toshli yer) majoziy ifoda, forslar uchun tushunilishi qiyin boʻlgan turkiy (eski oʻzbek tiliga oid) soʻzlar toshloq, toshli erga oʻxshatilgan. Lugʻat yigirma toʻrt bobdan iborat. Bu boblarda soʻzlar soni bir xil emas. Baʼzi boblarda atigi toʻrt-beshta soʻz berilgan boʻlsa, baʼzi boblarda mingdan ortiq (hatto ikki minggacha) soʻz berilgan.

Lugʻatda, soʻzlar bilan bir qatorda, koʻplab turgʻun birikmalar, frazeologik ibora va sostavli atamalar ham izohlangan. Mirza Mehdiyxonning asari eski oʻzbek tili grammatikasi va leksikasi boʻyicha noyob manba sifatida bir qancha ilmiy tadqiqotning obʼekti boʻlgan⁶.

Xorazmda yashab ijod etgan Muhammad Rizo Xoksor “Muntaxab-al-lugʻat” (“Saylanma lugʻat”) asarini 1798-1799-yillarda yaratadi. Asar izohli lugʻatlar sirasiga kiradi. Unda eski oʻzbek adabiy tilida ishlatilgan arabcha, forsha va ayrim eskirgan oʻzbekcha soʻzlarning maʼnolari eski oʻzbek tilida (baʼzan fors-tojik tilida) tavsiflanadi⁷.

Asarning kirish qismida muallif oʻsha davrda mavjud boʻlgan lugʻat va filologik asarlar toʻgʻrisida maʼlumot berar ekan, bu asarlarda yoʻl qoʻyilgan kamchiliklarni, ayrim soʻzlarning ularda notoʻgʻri izohlanganini koʻrsatib oʻtadi.

Lugʻat ikki qismdan iborat. Birinchi qismda eski oʻzbek adabiy tilida ishlatilgan arabcha soʻzlar, ikkinchi qismda esa forsha-tojikcha va eskirgan oʻzbekcha soʻzlar izohlanadi. “Muntaxab-al-lugʻat”da hammasi boʻlib 2400 soʻz berilgan.

Xoksor lugʻatining oʻziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, unda soʻzlarning toʻgʻri (asosiy) maʼnosi bilan bir qatorda, koʻchma (hosila) maʼnolariga ham izoh beriladi.

Lugʻatda soʻzlar arab alifbosi tartibida soʻzning birinchi

⁶ Мухиддинов К. “Санглах” Мирзы Мухаммада Махдихана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Ташкент, 1971; Умаров Э. “Бадаий ал-лугат” и “Санглах” как лексикографические памятники и источники изучения староузбекского языка: Автореф. дисс. ... доктора. филол. наук. — Ташкент, 1989.

⁷ Фаттахов Х. Мухаммад Риза Хаксар и его “Мунтахаб ал-лугат”: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Ташкент, 1974.

tovushiga (harfiga) qarab 28 bobga taqsimlanadi. Har qaysi bobda soʻzlar oxirgi tovushga (harfga) qarab guruhlanadi. Masalan, *alif* bilan tugaydigan soʻzlar, *be* bilan tugaydigan soʻzlar, *te* bilan tugaydigan soʻzlar kabi.

Eski oʻzbek tili boʻyicha yaratilgan lugʻatlar ichida Fath Alixon Kojariyning “Lugʻati atrokiya” asari ham muhim sanaladi. Bu lugʻat XIX asrning oʻrtalarida (1857-1858-yillarda) yaratilgan, mutaxassislar tomonidan yuksak baholandi. Rus turkologi A.Romaskevich bu lugʻat boʻyicha maxsus tadqiqot olib bordi (Новый чигатайско-персидский словарь / «Мир-Али-Шир» тўплами. – Л., 1928). Uning yozishicha, Fath Alixon Kojariyning lugʻati chigatoy tili (eski oʻzbek tili) boʻyicha yaratilgan lugʻatlarning eng yaxshisi.

Asarning kirish qismida chigʻatoy (eski oʻzbek) tili va Alisher Navoiy asarlari toʻgrisida maʼlumot berilgan. Asarning lugʻat qismi uch boʻlimdan iborat: 1) Oʻzbekcha-forscha lugʻat; 2) “Maboni-ul-lugʻat” asarining muallifi Mirza Mehdiyxon tushunmagan soʻzlar (oʻn ikki soʻz) izohi; 3) Alisher Navoiy asarlarida ishlatilgan baʼzi forsha soʻzlar izohi.

Fath Alixon Kojariyning lugʻati soʻz maʼnolari izohlarining mukammalligi, Alisher Navoiy va boshqa shoir, yozuvchilarning asarlaridan keltirilgan misollarning koʻpligi bilan ajralib turadi. Lugʻatda jami 8000 ga yaqin soʻz izohlangan.

XIX asrda Sulaymon Buxoriyning “Lugʻati chigʻatoyi va turkiy usmoniy” asari yaratildi. Muallif Buxorodagi madrasada oʻqiydi, Turkiyada (Istambulda) hayot kechiradi. Vengriyada turkologlar anjumanida (1860) ishtirok etadi. Uning lugʻat tuzishiga mana shu anjumanda qatnashuvi sabab boʻladi. Shayx Sulaymon Buxoriyning lugʻati taniqli turkolog I.Kunosh tomonidan nemis tiliga tarjima qilinadi va 1902-yilda Budapeshtda nashr etiladi.

Asar uch qismdan iborat. Birinchi qism muqaddima, u “Manzumai chigʻatoyi” deb nomlangan. Bu qismda muallif asarning yozilish sababi, oʻzining tarjimai holi va lugʻatning tuzilishiga oid maʼlumotlarni keltiradi. Ikkinchi qismi “Qavoid” deb nomlangan. Bu qism eski oʻzbek tilining grammatik xususiyatlari tavsiflangan ocherk. Unda muallif, til qurilishiga oid tushunchalar bilan bir qatorda, chigʻatoy tilining oʻziga xos xususiyatlarini, uning boshqa

turkiy tillarga o'xshash va ulardan farqli tomonlarini ham aytib o'tadi. Turkiy tillarni bunday qiyoslash asarning yutuqlaridan biri.

Sulaymon Buxoriy asarining uchinchi qismini lug'at tashkil etadi. Unda eski o'zbek tilida qo'llanilgan 7000 ga yaqin so'z va turg'un birikma usmonli turk tilida izohlanadi. So'z ma'nolarining izohlari Alisher Navoiy va boshqa adiblarning asarlaridan olingan. Sulaymon Buxoriyning ushbu asari eski o'zbek tilini o'rganishda jiddiy va ishonchli manbalardan biri sifatida katta ahamiyatga ega.

Mazkur davr lug'atchiligining asosiy xususiyatlarini lug'at tuzish tamoyillarining o'ziga xos tarzda takomillashganida ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, o'zbek leksikograflari tomonidan, amaliyotga XV asrlardayoq tatbiq etilgan so'zlarni uyalarga birlashtirish tamoyili, XX asrning ikkinchi yarmida rus lug'atchiligida qo'llana boshlandi. Rus tilshunosligida A.Tixanov tomonidan "гнездovoy printsip", ya'ni "uyalarga joylashtirish tamoyili" XX asr oxirlarida birinchi bor qo'llangan. Shuningdek, bu davr lug'atchiligida, ayniqsa, grammatik izohga, etimologik izohga, semantik izohga alohida e'tibor qaratilganligi kuzatiladi. Bu holat "Sangloh" lug'atida izchillik bilan bajarilgan. Jumladan, har bir fe'ning o'zgarish paradigmalari berilib, so'ng etimologik tahlil zarurati bo'lsa, u beriladi, undan keyin ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolari ma'lum izchillikda, "umumiylilik va xususiylilik" tamoyiliga asosan berib borilganligi diqqatga sazovor. XV asr o'zbek lug'atchiligida yaqin ma'no, ya'ni har qanday so'zning asosiy, bosh ma'nosini berish, keyin esa uning ko'chma ma'nolarini qayd etish masalasi hal etilgan edi. Yaqin ma'no har qanday so'zning nutqqa kirgunga qadar anglanadigan ma'nosi bo'lsa, ko'chma ma'no nutqda voqelanuvchi ma'no ekanligi aniq ajratilgan. Bu ham mazkur davr lug'atchiligining yana bir yutug'i, xarakterli xususiyati.

XV asr lug'atchiligining yana bir xarakterli xususiyati mavzuiy lug'atlar tuzishga e'tibor qaratilganligi. Ma'lumki, mavzuiy (ideografik) lug'atlar yaratish Evropada boshlangan, degan fikr yuradi. Biroq sharq lug'atchiligi, jumladan, arab va o'zbek lug'atchiligi tarixiga e'tibor qaratilsa, bunday lug'atlar eski o'zbek adabiy tili shakllangan davrlarda (XV asrdan boshlab) yaratila boshlanganligi kuzatiladi. Zahiriddin Muhammad Boburning

“Boburnoma” asarida bunday lug‘at belgilari kuzatilsa, Muhammad Yoqub Changiyning “Kelurnoma” asari bunday lug‘atning ajoyib namunasi ekanligi bilan ajralib turadi. “Kelurnoma”ning o‘n to‘rt bobi 400 dan ortiq fe‘llarni izohlashga bag‘ishlangan, sarlavha sifatida infinitivda berilgan fe‘ldan so‘ng uning barcha shakllar paradigmasi beriladi. Bu bilan ushbu lug‘at, avvalo, uyali lug‘atning muhim namunasi bo‘lsa, keyingi 15 bobda ismlar va yordamchi so‘zlar izohlanar ekan, ular mavzular asosida joylashtiriladi. (10 ga yaqin mavzuiy guruh qayd etiladi). Demak, bu lug‘at “mavzuiy” (mavzuviy) lug‘atning ham ajoyib namunasi. Keyingi bobda 1300 atrofidagi so‘z 6000 dan ortiq so‘zshakllarni o‘z ichiga olgan holda izohlanadi. Demak, bu lug‘at, birinchi navbatda, uyali lug‘atning, ikkinchidan, mavzuiy lug‘atning ilk namunasi.

Eski o‘zbek adabiy tili davri lug‘atchiligida grammatika masalalarini o‘zida qayd etgan lug‘atlarning ham yaratilganligi muhim yangilik. Mirzo Mehdiyxonning “Sangloh” lug‘ati, Muhammad Yoqub Changiyning “Kelurnoma”, Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy usmoniy” asarlari ana shunday lug‘atlarning namunasi. Shuningdek, Muhammad Rizo Xoksorning “Muntaxab-al-lug‘at” (“Saylanma lug‘at”) asarida so‘zlarning to‘g‘ri (asosiy) ma‘nosi bilan bir qatorda, ko‘chma (hosila) ma‘nolariga ham izoh berilganligi o‘zbek lug‘atchiligida izohli lug‘atlar yaratilishi uchun ham dastlabgi intilishlar mazkur davrda boshlanganligini ko‘ramiz.

Xullas, eski o‘zbek adabiy tili davri o‘zbek lug‘atchiligining taraqqiy etgan holatini aks ettiradi. Bu davrda, umuman, lug‘atchilik tarqqiyotini belgilab beruvchi muhim lug‘atlar yaratilgan, ular dunyo lug‘atchiligining rivojlanishi uchun ham asosiy manbalar sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, Alisher Navoiy asarlarini o‘zlashtirish, tushunishni osonlashtirish ehtiyoji bilan yaratilgan o‘nlab lug‘atlar o‘zbek lug‘atchiligini bu davrda yuqori darajaga olib chiqadi. Keyingi davr lug‘atchiligining shakllanishiga, taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi. Bu davr lug‘atchiligi o‘rta asr lug‘atchiligi tarzida tilshunoslik tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega.

Savol va topshiriqlar

1. Temuriylar hukmronligining mazkur davr lugʻatchiligi taraqqiyotiga taʼsirini qanday izohlaysiz?
2. Alisher Navoiy asarlari boʻyicha yaratilgan “Badoyi al-lugʻat”, “Sangloh”, “Lugʻati atrokiya”, “Xulosayi Abbosi”, “Muntaxab al-lugʻat”, “Abushqa” lugʻatlarini qiyoslang, ularda qoʻllangan leksikografik tamoyillarni solishtiring.
3. Oʻzbek tilshunosligida Fazlullaxonning “Lugʻati turkiy”, Fath Alixon Kojariyning “Lugʻati atrokiya”, Sulaymon Buxoriyning “Lugʻati chigʻatoyi va turkiy usmoniy” asarlarining leksikografik xususiyatlari yoritilgan tadqiqotlarni oʻqing va ulardagi asosiy ilmiy xulosalarni umumlashtiring.
4. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridagi ideografik lugʻat belgilarini koʻrsating, izohlang.
5. Muhammad Rizo Xoksoning “Muntaxab-al-lugʻat” (“Saylanma lugʻat”) asaridagi izohli lugʻat belgilarini koʻrsating, izohlang.
6. Davr lugʻatchiligining oʻzbek leksikografiyasi taraqqiyotidagi oʻrniga ilmiy baho bering.

Test

1. **Alisher Navoiy asarlari asosida tuzilgan qaysi lugʻatlatlarning tuzish tamoyillri mukammal?**
 - A. * “Badoyi al-lugʻat” va “Sangloh” lugʻatlarining;
 - B. “Lugʻati atrokiya”, “Xulosayi Abbosi” lugʻatlarining;
 - C. “Muntaxab al-lugʻat” va “Abushqa” lugʻatlarining;
 - D. Yaratilgan barcha lugʻatlatlarning tuzish tamoyillri mukammal.
2. **Oʻzbek tilida qʻshimchaning oʻzakka taʼsiri masalasi ilk bor qaysi lugʻatda izohlangan?**
 - A. * “Sangloh” lugʻatlida;
 - B. “Badoyi al-lugʻat”da;
 - C. “Muntaxab al-lugʻat”da;
 - D. “Lugʻati atrokiya”da.

3. “Badoe al-lug‘at” va “Abushqa” lug‘atlarining o‘xshash jihatlari nimada?

A. *Har ikkala lug‘at ham Navoiy asarlari tili asosida tuzilganligi;

B. Har ikki lug‘atdagi tuzilish tamoyillarining bi xilligi;

C. Har ikki lug‘at bir davrda yaratilganligi;

D. Har ikki lug‘atning hajmiy bir xilligida.

4. Fazlullaxon Barlosning “Lug‘ati turkiy” asari ...

A. *O‘zbekcha-forscha tarjima lug‘at;

B. O‘zbekcha-arabcha tarjima lug‘at;

C. O‘zbekcha-usmonli turkcha tarjima lug‘at;

D. O‘zbekcha-forscha-arabcha ko‘p tilli tarjima lug‘at.

5. Rus turkologi A.Romaskevich tomonidan “chigatoy tili (eski o‘zbek tili) bo‘yicha yaratilgan lug‘atlarning eng yaxshisi”, deya e‘tirof etilgan lug‘atni ko‘rsating?

A. *Fath Alixon Kojariyning “Lug‘ati atrokiya” asari;

B. Muhammad Rizo Xoksorning “Muntaxab al-lug‘at” asari;

C. Mirzo Mehdiyxonning “Sangloh”asari;

D. Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy usmoniy” asari.

6. Eski o‘zbek tili bo‘yicha yaratilgan qaysi lug‘atni ham uyali lug‘atning, ham mavzuiy lug‘atning ilk namunasi sifatida baholash mumkin?

A. *Muhammad Yoqub Changiyning “Kelurnoma” asarini;

B. Fath Alixon Kojariyning “Lug‘ati atrokiya” asarini;

C. Mirzo Mehdiyxonning “Sangloh”asarini;

D. Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy usmoniy” asarini.

Adabiyotlar

1. Қўчқортоев И., Исабеков Б. Туркий филологияга кириш. — Тошкент, 1984.

2. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. — Тошкент: Ўзбекистон, 2002.

3. Фозилов Э. Шарқнинг машхур филологлари. —Тошкент: Фан, 1971.

4. Ҳамидов З. Луғатшунослик тарихи ва қўлёзма луғатлар. —

Тошкент: Адолат, 2004.

5. Мухиддинов К. “Санглах” Мирзы Мухаммада Махдихана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1971.

6. Фаттахов Х. Мухаммад Риза Хаксар и его “Мунтахаб ал-лугат”: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1974.

7. Кадиров Т. Филологическое исследование словаря “Хуласа-и Аббаси” Мирзы Мухаммада Хойи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1988.

8. Умаров Э. “Бадайи ал-лугат” и “Санглах” как лексикографические памятники и источники изучения староузбекского языка: Автореф. дисс. ... доктора. филол. наук. – Ташкент, 1989.

9. Хасанов Б. Принципы составления рукописных словарей к произведениям Навои: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1989.

10. Хасанов Б. Принципы составления рукописных словарей к произведениям Навои: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1989.

11. Убайдуллаев А. “Луғати туркий”нинг лексикографик тадқиқи: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2011.

12. Мадвалиев А. Ўзбек лексикографияси тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти, 2008. - №2. – Б.37-41.

13. Хусанов Н. “Луғати чигатойи ва турки Усманий”да изоҳлаш // Ўзбек тили ва адабиёти, 1982. - №1. – Б. 63-65.

14. Ибрагимова А. “Келурнома”да қайд қилинган ҳарбий терминлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1976.

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI XX ASR O‘RTALARIDA O‘ZBEK LUG‘ATCHILIGI

Reja

1. Davr lug‘atchiligining umumiy tavsifi.
2. Jadid ma’rifatparvarlarining lug‘atchilik faoliyati.
3. Sho‘rolar davrida o‘zbek leksikografiyasi taraqqiyoti.

Tayanch so‘z va iboralar: *ko‘p tilli tarjima lug‘at, terminologik lug‘at, ideografik lug‘at, morfem lug‘at, o‘quv lug‘ati, qiyosiy-tarixiy tamoyil, sinonimlar yordamida izohlash, variantdosh so‘zlar, leksikografik ishora, okkazional yasalma, grammatik tavsif.*

O‘zbek lug‘atchiligi tarixida XIX asrning oxiri XX asrning boshlari alohida o‘rin tutadi. Bu davrda xalqlar o‘rtasidagi ma’naviy-ma’rifiy munosabatlarni aks ettiruvchi ikki va uch tilli so‘zlashgichlarning yaratilishi, bunda, ayniqsa, ruscha-o‘zbekcha va o‘zbekcha-ruscha, shuningdek, o‘zbek tilini boshqa evropa va xorijiy sharq tillari bilan qiyoslab o‘rganishga mo‘ljallangan lug‘atlarning yuzaga kelganligi ancha e’tiborli.

Davr nuqtayi nazaridan baho beradigan bo‘lsak, mazkur davr manbalari milliy adabiyotimizda “jadid davri adabiyoti” deb nomlanib, o‘zbek adabiyotshunosligida an’anaviy mumtoz badiiy adabiyotidan yangi o‘zbek adabiyotiga, o‘zbek tilshunosligida esa eski o‘zbek tilidan XX asrda shakllangan yangi o‘zbek adabiy tiliga o‘tish davriga, ya’ni an’ana va yangilik kesishgan nuqtada, oraliq maydonda yuzaga kelgan manbalar. Bunda nafaqat badiiy adabiyot namunalarida, balki leksikografiyaga oid mavjud lug‘atlarda ham ana shu oraliq holat ikki rivojlanish nuqtani birlashtirish vazifasini bajarganligini va har ikki nuqtaning belgilarini o‘zida namoyon qilganligini ko‘ramiz. Bu holat lug‘atlarning yaratilish maqsadi va ehtiyojida, turlarida, tamoyillarida, so‘zliklarining berilishida, tarkibida, tarjima lug‘atlarida so‘zlarni izohlash usullarida, leksikografik ishoralardan foydalanishda ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Aytish mumkinki, bu davr davr lug‘atchiligi O‘rta Osiyoni zabt etish ehtiyojiga bo‘ysundirilgan lug‘atchilik bo‘lgan. L.Budagov, V.Radlov, P.Melioranskiy va boshqa yirik olimlarning turkiy tillarni

o'rganishni nazarda tutishdan ham ko'ra, ko'proq xalqni o'rganishni, bosib olishga xizmat qilishda qo'l keladigan lug'atlar tuzish orqali ularni qaram qilishni nazarda tutgan holda faoliyat ko'rsatganlari ma'lum. Ostroumov, Pantusov, Nalivkin, Nalivkina, Terentev kabi rus davlat xizmati vakillari tomonidan tuzilgan ko'pgina tarjima lug'atlari shu ehtiyojni qondirishga xizmat qilgan, deyish mumkin. O'zbekistonda XX asrning birinchi choragida yaratilgan asosiy lug'atlar tarjima lug'atlari xarakterida bo'lganligi ham shu sababli.

XIX asrning ikkinchi yarmidan turkiy tillar leksikasini izohlovchi o'nlab maxsus lug'atlar vujudga kelib, bu lug'atlarning yaratilishidagi bosh maqsad, asosan, O'rta Osiyo xalqlari tilini, urf-odatlarini va boshqa jihatlarini o'rganish, ular bilan yaqindan tanishish edi. Bu borada L.Z.Budagovning 2-jildli "Сравнительный словарь турецко-татарских наречий" ("Turkiy lahjalar qiyosiy lug'ati", SPB., 1869-1971), V.V.Radlovning 4-jildli "Опыт словаря тюркских наречий" ("Turkiy lahjalar lug'ati tajribasi", SPB, 1893-1911), V.P.Nalivkin va M.Nalivkinalarning 1884-1912-yillarda qayta-qayta nashr etilgan "Русско-сартовский и сартовско-русский словарь" ("Ruscha-sartcha va sartcha-ruscha"), M.A.Terentevning "Грамматика турецкая, персидская, киргизская" (SPB., 1875), I.A.Belyaevning "Руководство к изучению сартовского языка" (-Tashkent, 1906 g.), V.A.Alekseevning "Самоучитель сартовского языка" (-Tashkent, 1884 g.), S.Lapinning "Карманный русско-узбекский словарь с приложением краткой грамматики узбекского языка" (1895), A.Afanasevning "Словарь сартовских слов с главнейшими грамматическими правилами" (-Skobelev, 1908), N.Budzinskiyning "Грамматика сартовского языка и русско-сартовские разговоры" (-Ташкент, 1910 г.), N.Ostroumovning "Этимология сартовского языка" (-Ташкент, 1910 г.) hamda "Материалы к изучению наречия сартов русского Туркестана" (ИОАИЕК, -Ташкент, 1908 г.) kabi ko'pgina boshqa asarlar va alohida lug'atlarni ko'rsatish mumkin.

Bu davr o'zbek lug'atchiligining rivojlanishi, taraqqiyoti haqida fikr yuritar ekanmiz, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmi o'zbek lug'atchiligi davri, ya'ni jadid ma'rifatparvarlari faoliyati bilan bog'liq davr lug'atchiligining o'рни haqida ham alohida fikr aytishga to'g'ri keladi. Inqilobni qo'llab-

quvvatlash va ikkilanishlar davrida (dastlabgi davr) mamlakat taraqqiyoti, millat ravnaqini o'ylab, barcha sohani tiklashni, har sohada dunyo hamjamiyati qatoriga ko'tarilishni nazarda tutib, ommaning ong, ilm darajasini, ma'naviyatini yuksaltirish maqsadida ana shu qayd etilgan ziyolilar turli xil lug'atlar tuzish, rus tilini o'rganish, ular bilan erkin muloqotni ta'minlash kabi jihatlarni nazarda tutib lug'atchilik ishiga alohida e'tibor qaratdilar. Ular bu borada qilinayotgan ishlarda, ya'ni ma'rifat yo'lidagi har bir ish – odamlar bilimini, ongini oshirish, ta'limni yaxshilashda faol ishtirok etdilar. Lug'atlar tuzish ishida qatnashdilar: 1926-yili G'ozi Olim Yunusovning "Qisqacha ruscha-o'zbekcha siyosiy-huquqiy lug'at"i nashr etildi. Bu lug'at o'sha davrda ilk bor yaratilgan terminologik lug'atlardan. Shuningdek, mazkur lug'at o'zbek lug'atchiligida sohaviy – terminologik lug'atlar tuzishni boshlab berganligi bilan ham ahamiyatli; Ashurali Zohiriy tomonidan "Ruscha-o'zbekcha mukammal lug'at" (2 jildli, 34 000 so'zli, 1927-1928) tuzildi; S.Rahmatiy, A.Qodiriylar ishtirokida "Ruscha-o'zbekcha to'la so'zlik" (Toshkent-Qozon, 1934 yil. Lug'atning 1-jildi nashr etilmay qolgan); Elbek tomonidan "O'zbekcha shakldosh so'zlar lug'ati" (1924) tuzildi. Bu lug'at o'zbek tilida birinchi bor tuzilgan maxsus lug'at. Shuningdek, Elbek tomonidan "O'zbek to'la so'zligiga materiallar" (O'zdavnashr, 1935) asari ham nashr etiladi. Elbek bu asarida o'zbek tilining etimologik, morfemik lug'atlarini yaratish borasidagi o'z nazariy va amaliy qarashlarini bayon qiladi, ular haqida ma'lumotlar beradi. Ibrohim Davron tuzgan "Ibn Sino asarlarida qo'llangan arabcha, forsha so'zlarning izohli lug'ati" (1922) ma'lum muallif tomonidan yaratilgan asar tili asosida yaratilganligi uchun leksik tanlangan lug'at sifatida muhim. Abdurauf Fitrat tomonidan "Eng eski turk adabiyoti namunalari" kitobining 3-qismi lug'atdan iborat (1927). Bu lug'at darslik materiallari asosida tuzilganligi tufayli o'zbek lug'atchiligida yaratilgan birinchi o'quv lug'ati hisoblanadi; M.Brilevning "Shokirjon Rahimiyning "Kattalar Yo'ldoshi" darsligi uchun o'zbekcha-ruscha lug'at"i (1927) ham yaratilgan. Bu lug'at ham o'sha davr jadid adibi tuzgan darslik asosida yaratilganligi uchun ilk o'quv lug'ati.

Jadid vakillarining yetakchilaridan biri bo'lgan To'raqo'rg'onlik (Namangan viloyati) Ishoqxon Ibratning "Lug'oti sitta al sina" (Toshkent, 1901) ko'p tilli (6 ta til) tarjima lug'ati ham alohida ahamiyatga ega. Bu lug'at, umuman, turkiy lug'atchilik tarixida XIV asrlarda tuzilgan "Tarjumoni turki va ajami va mo'g'uli va forsi" ko'p tilli lug'atidan keyingi, o'zbek lug'atchiligi tarixidagi birinchi ko'p tilli lug'at ekanligi bilan juda muhim.

Bu davr lug'atchiligi XIV-XIX asrlar oralig'ida yaratilgan lug'atlar ta'sirida shakllandi. Shu bilan birga, yangi davr, ya'ni mustamlakachilik talablari bilan bog'liq ehtiyojlar asosida qaror topdi. Jadidlar faoliyat ko'rsatgan davrdagi lug'atchilikning eng xarakterli jihati, yetakchi tomoni shundaki, bu davrda asosan "o'zbekcha-ruscha" va "ruscha-o'zbekcha" tarjima lug'atlarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi.

Adib Abdulla Qodiriyning tilshunoslik, xususan, lug'atchilik bilan ham shug'ullanganligi ijodining o'rganilmagan yana bir qirrasini namoyon qiladi. Bu davrda yaratilgan ruscha-o'zbekcha lug'atlarning eng muhimlari sirasida S.Rahmatiy bilan hammualliflikda yaratgan "Ruscha-o'zbekcha to'la so'zlik" (2-jild, 34 ming so'z, Toshkent-Qozon, 1934) tarkibi, so'z tanlash tamoyillari, so'zlarning ma'noviy, uslubiy, grammatik tavsiflari, lug'at maqolalarining to'laligi jihatdan o'sha davrda yaratilgan boshqa lug'atlardan ancha mukammalligi bilan ajralib turadi. Bu o'rinda adibning lug'atchilik sohasidagi faoliyatini o'zi tomonidan tartib berilgan lug'atdagi "P" harfi bo'yicha o'zbekcha so'zlikning leksikografik xususiyatlari misolida tahlil qilishni lozim topdik: **1) tarjimada ruscha so'zlarning o'zbek tilidagi xalqona variantlarini keltirish.** Abdulla Qodiriy so'zlikning "P" harfini tuzishdan oldin turkiy lug'atchilik, arab, fors-tojik lug'atchiligi, usmonli turk lug'atchiligi va shuning barobarida, rus lug'atchiligi bilan ham mukammal tanishib chiqqan. Aniqrog'i, adib lug'atchilikning nazariy va amaliy masalalarini chuqur o'zlashtirgan va puxta egallagan. Lug'at o'sha davr talablari nuqtayi nazaridan "Ruscha-o'zbekcha to'la so'zlik" nomi ostida tuzilgan bo'lsa-da, ruscha so'zlarning tarjimasida adibning diqqat markazida mumkin qadar sof o'zbekcha, xalq tilidagi muqobillarini berish birinchi o'rinda turganligining guvohi bo'lamiz, masalan: *peremyorzliy* – *to'ng'an*,

*muzlab qolg'on*⁸; *peresudchik* – *g'iybatchi*, *so'zchin* (104); *petrushka* – *kashnich*, *qog'ursoq* (123); *panenka* – *oyimqiz*, *bikach*, *qaqajon* (13); *pag* – *dara*, *uchastka*, *kent* (1), *pelmeni* – *chuchvara*, *barak* (45); *panel* – *salmataxta* (13); *pemza* – *yong'irtosh* (45); *prostinya* – *choyshab*, *ro'ja* (453) kabi. Tarjimalardagi *to'ng'an*, *so'zchin*, *qog'ursoq*, *bikach*, *qaqajon*, *kent*, *barak*, *salmataxta*, *yong'irtosh*, *ro'ja* kabi so'zlarning keltirilishi muallif xalq tilining ham nodir bilimdoni ekanligini ko'rsatadi. Yana bir e'tiborli jihat shundaki, ayrim ruscha so'zning o'zbekcha muqobili sifatida o'sha so'zning adabiy til va xalq shevalaridagi varianti ham keltirilgan: *papa* – *ota*, *doda* (17); *papasha* – *dadajon*, *ada* (17); *patat* – *shirin kartishka* (36); *perekumitsya* – *quda*, *qudag'aylashmoq*, *qudayimlashmoq* (76); *podnos* – *barkash*, *xon*, *la'li* (200); *podushka* – *yostiqlik*, *bolish*, *takya* (218) kabi. Misollardagi *doda*, *ada*, *kartishka*, *qudag'ay*, *barkash*, *la'li*, *bolish*, *takya* kabi so'zlar xalq shevalarining nodir boyliklari sanaladi. Adib tarjimada ruscha so'zning faqat adabiy tildagi shaklini keltirish bilan cheklanishi ham mumkin edi. Biroq xalq yaratgan tilning jozibadorligi, ta'sirchanligi, sehri va butun borlig'i jonli xalq tilida butunicha mujassam bo'lishini chuqur anglagan adib jonli xalq tilidagi adabiy tildan farq qiluvchi ayrim so'z yoki grammatik shakllarni ham keltiradiki, bu holat XX asr boshlarida yuzaga kelayotgan o'zbek adabiy tilining leksik fondini boyitishga xizmat qilgan, deyish mumkin. Shuningdek, lug'atda *palej* – *qishloq*, *yovon* (7); *para* – *esh*, *juft* (19); *perevznuzdat* – *qaytadan yiganlamoq*, *no'qtalamoq* (57); *peregrevanie* – *og'achilov*, *kemiruv* (62); *pila* – *arra*, *yorg'i* (128); *planzixter* – *g'alvir*, *sitqi* (140); *plata* – *to'lov*, *haq*, *muzd* (142); *pletushka* – *savatcha*, *gijik* (147); *povinkost* – *majburiyat*, *begar* (164); *podpruga* – *qayish*, *ayil*, *pushtan* (206) kabi misollar uchraydi. Muallif yuqoridagi ruscha so'zlar tarjimasida *yovon*, *esh*, *no'qtalamoq*, *og'ochilov*, *yorg'i*, *sitqi*, *muzd*, *gijik*, *begar*, *pushtan* kabi so'zlarni keltirishi har bir so'zning xalq orasidagi, muayyan sotsial tabaqa, kattalar va bolalar nutqida qo'llanishidagi ma'no qirralarini ham ko'rsata olganligidan dalolat; **2) iboralar yordamida**

⁸ Qodiriy A., Rahmatiy S. Ruscha-o'zbekcha to'la so'zlik. II-jild, II-Я harflari. – Toshkent-Qozon: O'zdamnashr, 1934. – B. 81. Keyingi misollarda sahifa ko'rsatilmoqda.

izohlash. Abdulla Qodiriy tarjimadagi soʻzlar izohini berishda frazemalardan nutqiy taʼsirchanlikni taʼminlovchi uslubiy vosita sifatida unumli foydalangan: *povlinitsya* – *kekkaymoq, kattalik qilmoq* (1); *perekorobit* – *egmak, sindirmoq, koʻnglini ogʻritmoq* (74); *perekroshivat* – *uvoqlamoq, uvalamoq, mayda-mayda qilmoq, tit-pit qilmoq* (75); *peremoganie* – *ustun keluv, baland keluv, qoʻl uzun boʻluv* (83); *plenyat* – *asir qilmoq, maftun etmak, koʻnglini olmoq* (145); *poveselitsya* – *xursandchilik qilmoq, koʻngil ochmoq* (162) kabi. Yuqorida keltirilgan misollardagi *kattalik qilmoq, koʻnglini ogʻritmoq, tit-pit qilmoq, qoʻl uzun boʻluv, koʻnglini olmoq, koʻngil ochmoq* kabi iboralar xalq tilida keng isteʼmolda boʻlib kelgan. Muallif tarjimadagi soʻzning leksik maʼnosini aniqroq, toʻliqroq koʻrsatish va nutqiy xoslanishdagi koʻrinishidan oʻquvchini xabardor qilish maqsadida uslubiy boʻyoqdorlikka ega frazemalarni leksemaga sinonim sifatida keltirgan. Ushbu frazeologik birliklarning oddiy xalq nutqining lugʻaviy normasi ekani lugʻat tilini xalq tiliga yaqinlashtirgan, barcha uchun tushunarlilikini taʼminlagan; **3) koʻchma maʼnoli soʻzlar yordamida izohlash.** Abdulla Qodiriy lugʻatda ruscha soʻzlar tarjimasini izohlab berishda koʻchma maʼnolarda qoʻllangan bir qator umumisteʼmol soʻzlarni, mumtoz adabiyot tilida faol ishlatilgan anʼanaviy poetik soʻzlarni mahorat bilan qoʻllagan va oʻziga xos izohlash usulidan foydalangan: *penie* – *ashula, qoʻshiq, ashula qiluv, sayrov* (46); *penya* – *oʻpka, gina* (48); *perebivatsya* – *zoʻrgʻa kun koʻrmoq, qiyinchilik bilan tirikchilik qilmoq* (53); *pereglyadka* – *qarashuv, koʻzlashuv* (60); *perejiganie* – *kuydiruv, yondiruv, oʻrtov* (67-bet). Misollardagi *sayrov, oʻpka, zoʻrgʻa kun koʻrmoq, koʻzlashuv, oʻrtov* kabi soʻz va soʻz birikmalarining maʼnolari turli usullarda yuzaga kelgan hosila maʼnolar. Muallifning ruscha soʻzlarning oʻzbekcha muqobillarini oʻz maʼnosidagi leksemalar qatorida koʻchma maʼnodagi soʻzlar yordamida ham izohlashi oʻquvchini oʻzbek tilidagi soʻzlarning soʻzlashuv va poetik nutq talablaridan kelib chiqqan holda yuzaga keladigan xilma-xil koʻchma, ramziy maʼnosidan ham xabardor qilishni maqsad qilgan; **4) okkazional yasalmalar orqali izohlash.** Lugʻatdagi ruscha soʻzlar tarjimasida Abdulla Qodiriy tomonidan yaratilgan bir qator xarakterli okkazional yasalmalar mavjudligini va muallif tarjimadagi soʻzlar

izohini berishda bunday soʻzlardan ham samarali foydalanganligini koʻrish mumkin: *palomnichestvo* – ziyoratchilik, *hajchiliq* (8); *pamyatlivost* – yodliliq, *esda tutuvchanliq* (10); *peregodovat* – yillamoq, *yil kechirmak* (61); *perejitie* – uzoq yashov, *yashamolliq* (68); *podyonshik* – kunlikchi, *mardikor* (187); *podstavka* – xarrak, *koʻtargi*, *taglik* (212); *pokrov* – qopqoq, *yopqi*, *oʻrama* (242); *priprava* – *dorivor taʼmlagich* (383). Keltirilgan misollardagi *hajchiliq*, *yodliliq*, *yillamoq*, *yashamolliq*, *kunlikchi*, *koʻtargi*, *yopqi*, *taʼmlagich* kabi leksemalarning mavjud lugʻatlarda uchramasligi muallifning ijodiy mahsuli ekanligidan, ularning okkazional yasalma ekanligidan dalolat beradi. Afsuski, bu soʻzlar keyinchalik tilimizdan oʻrin topmadi. Demak, adib lugʻat tuzishda faqatgina tilda avvaldan mavjud soʻzlardangina foydalanmagan, balki baʼzi hollarda aytmoqchi boʻlgan fikrni, yaʼni tarjimadagi soʻz ifodalagan tushunchani aniqroq, taʼsirchanroq ifodalash maqsadida shunga mos soʻzlarni topishga, lozim oʻrinlarda ularni oʻzi yasashga, original tarzda qoʻllashga intilgan. Bu hol Abdulla Qodiriyning soʻzshunos sifatidagi mahoratidan, til boyligiga ijodiy yondashganligidan dalolat beradi. Umuman, Abdulla Qodiriy hammualliflik qilgan “Ruscha-oʻzbekcha toʻla soʻzlik”dagi izoh usullarini tahlil qilish lugʻat XX asr boshlaridagi oʻzbek lugʻatchiligining yetakchi xususiyatini oʻzida ifodalaganini koʻrsatdi. Bu xususiyatdan eng muhimi – lugʻat tilini soddalashtirish, xalqchil, xalqqa yaqin qilishga intilish. Ushbu ishga Abdulla Qodiriy “Ruscha-oʻzbekcha toʻla soʻzlik”dagi ruscha soʻzlar tarjimasini xalqqa tushunarli qilib ifodalash orqali munosib hissa qoʻshgan. Bundan tashqari, ulugʻ adib hammuallifligidagi mazkur lugʻat XX asr boshlari oʻzbek lugʻatchiligida oʻziga xos bir taraqqiyot bosqichini tayin etadigan, tilimizning oʻsha davrdagi leksik fondini oʻzida mujassam qilgan, lugʻatchilik tamoyillari takomilini bir pogʻona yuqoriga koʻtargan lingvistik manba sifatida keyingi davr tarjima lugʻatchiligi taraqqiyotini taʼminlashda muhim ahamiyatga ega boʻlgan.

Bu davr lugʻatchiligida koʻp tilli tarjima lugʻatlarining yaratilganligini ham alohida taʼkidlash lozim boʻladi. Maʼrifatparvarlar jadid adibi Ishoqxon Junaydulla Xoʻja oʻgʻli Ibrat tuzgan “Lugʻoti sitta alsina” (“Olti tilli lugʻat”) asari – oʻzbek lugʻatchiligidagi oʻziga xos leksikografik asar. “Lugʻoti sitta alsina”

ommabop lingvistik lug‘at, keng o‘quvchilar ommasi uchun mo‘ljallangan. Lug‘atda o‘sha davrda yaratilgan boshqa lug‘atlardan o‘ziga xos anchagina sezilarli farq mavjud. Garchi, yangicha g‘oya, yangicha tafakkur, yangicha bilim olish tarafdorlari bo‘lgan ilg‘or jadid ma‘rifatparvarlari qatorida bo‘lsa-da, Ibrat “Lug‘oti sitta alsina” asarini yaratishda yangicha yo‘nalishdagi g‘arb lug‘atchiligi tamoyillari bilan birga, an‘anaviy sharq lug‘atchiligi printsiplariga ham tayangan. Muallif lug‘atda so‘zlikni joylashtirishda ideografik usulni qo‘llagan, fe‘llarni masdar (*chochmak, kesmak, kiymak*), hozirgi-kelasi zamon (*o‘ynar, yog‘ar, xohlar*), o‘tgan zamon (*yotgan, turgan*) hamda buyruq mayllarida (*kelma, o‘rganma*) berilishi; ismlarni esa 37 ta mavzuiy guruhga ajratib, tarjimalarining berilishi jadid davrigacha bo‘lgan sharq lug‘atchiligi, xususan, arab lug‘atchiligi an‘analarining ta‘sir belgilari. Shuningdek, lug‘at mavzular bo‘yicha “*Moziy va amr*” (*O‘tgan zamon va buyruq mayli*), “*Almutakallim*” (*Olmoshlar*), “*A‘zoyi hayvonot*” (*Jonzotlarning a‘zolari*), “*Asmou ahli qarobat*” (*Qarindoshlik nomlari*), “*Asmoi aqsomi taom*” (*Taom nomlari*), “*Asmoi nag‘amot*” (*Musiqqa asboblari nomlari*), “*Aqsomi rang*” (*Rang nomlari*)⁹ kabi bir necha bo‘limga ajratilgan va sarlavhalangan. Sarlavhalarning arabcha nomlanishini ham arab leksikografiyasi ta‘siri, deb qarash mumkin. Darhaqiqat, Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmida sharqshunoslik va turkiyshunoslik fanlarining rivojlanishi ta‘sirida an‘anaviy lug‘atchilik bilan birga, yangicha yo‘nalishdagi ruscha-o‘zbekcha va o‘zbekcha-ruscha, shuningdek, o‘zbek tilini boshqa evropa va xorijiy sharq tillari bilan chog‘ishtirib o‘rganishga mo‘ljallangan lug‘atlar ham paydo bo‘la boshladi. Shular qatorida, Ibratning mazkur lug‘atini ham quyidagi leksikografik xususiyatlariga ko‘ra, o‘sha davrdagi yangicha yo‘nalishdagi, ya‘ni g‘arb lug‘atchiligi an‘analari ta‘sirida yaratilgan lug‘atlar sirasiga ham kiritish mumkin: a) tilshunos olim A.Madvaliyev e‘tirof etganidek, o‘zbek leksikografiyasida Ibratgacha ham, Ibratdan keyin ham ayni shu xildagi, ya‘ni olti til materiallari qamrab olingan va bu til materiallarining o‘zaro qiyosan tarjimalari berilgan lug‘at tuzilgan emas; b) muallif XIX asr oxiri va XX asr boshlari sharq va g‘arb

⁹ Ishoqxon Ibrat. Lug‘oti sitta al sina. – Toshkent: Il’in tipografiyasi, 1901.

mamlakatlaridagi madaniy hayot, ilg'or fan va texnika yutuqlari, yangiliklari bilan tanishish maqsadida qilgan sayohati davomida lug'at uchun materiallar to'plagan. Lug'atda o'sha davr uchun o'zlashma sifatida qabul qilish mumkin bo'lgan *kraxmal, kursi, qandil, kasalxona, limon, dorishunos* kabi ko'pgina leksik birliklar ham uchraydiki, bu holat Ishoqxon Ibratning XX asr boshlaridagi o'zbek tili lug'at boyligini rivojlantirishga ham ma'lum darajada o'z hissasini qo'shgan deyishimizga asos bo'la oladi; v) lug'atda so'zlar tarjimasi berilgan tillar geneologik jihatdan turli til oilasiga mansub. Jumladan, *o'zbek tili, turk tili* Turkiy tillar oilasiga; *rus tili* Hind-evropa tillari oilasining Slavyan tillari guruhiga; *fors-tojik tili* Hind-evropa tillari oilasining Eroniy tillar guruhiga; *hind tili* Hind-evropa tillari oilasining Hind tillari guruhiga; *arab tili* esa Semit-xami tillari oilasiga mansub tillar. Bu jihatdan olib qaraganimizda ham mazkur lug'atning o'ziga xos tomoni, ya'ni turli til oilalariga mansub tillarning leksik birliklari o'zaro qiyoslanganligi va bunda muallif lug'at tuzishda oltita tilning ta'siriga qarab leksemalarni tanlaganligi e'tiborni tortadi. Bunday usul Ishoqxon Ibratning g'arb lug'atchiligi an'analariga tayanib lug'at tartib berganligining isboti.

Lug'at muallifning o'zi ta'kidlaganidek, o'sha davrda "safar ahli" (sayohatchilar) manfaatini ko'zlagan holda tuzilgan so'zlashgich bo'lsa-da, lingvistik manba sifatida o'sha davrda sharq va g'arb lug'atchiligi tamoyillarini o'zida mujassamlashtirgan, o'z xalqini jahon mamlakatlaridagi madaniy hayot, ilg'or fan va texnika yutuqlari, yangiliklari bilan tanishtirish barobarida xorijiy tillarni ham egallashga da'vat etgan, o'zbek lug'atchiligining tadrijiy takomilida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan leksikografik asar.

O'zbek leksikografiyasi tarixida dastlabgi terminologik lug'at ham XX asrning 20-yillarida yaratildi. Nazir To'raqulovning "Rus-o'zbek tilining siyosiy va iqtisodiy lug'atchasi" (Toshkent: Turkiston jumhuriyatining davlat nashriyoti, 1922) bu yo'nalishdagi dastlabki ish. Taniqli davlat arbobi, publitsist va noshir Nazir To'raqulovning rus grafikasi alifbosi tartibida tuzilgan, jami 403 ta ruscha siyosiy va iqtisodiy terminning o'zbekcha tarjimasi berilgan mazkur lug'ati quyidagi leksikografik xususiyatlarga ega: 1) lug'atda ruscha siyosiy-iqtisodiy terminlar tarjimasi izohsiz berilgan; 2) ruscha siyosiy-iqtisodiy terminlar tarjimasi izohli tarzda berilgan;

3) siyosiy-iqtisodiy terminlar tarjimasining geneologik tarkibi turlicha; 4) terminlarning izohli tarjimasida omonimiya, antonimiya hodisasi mavjud va muallif terminlarga ijodiy yondashgan; 5) lugʻatda ayrim kamchilik va nuqsonlar mavjud.

Lugʻatda termin tanlash va ularni alifbo tartibida joylashtirish tamoyillarida baʼzi nuqonlar bor. XX asr boshlaridagi oʻzbek tilining ijtimoiy-siyosiy terminologiyasida faol qoʻllangan terminlar alifbo tartibida berilar ekan, miqdor jihatdan boblar mutonosibli taʼminlanmagan. Jumladan, lugʻatning “P” harfi bobida 87 ta, “A” harfi bobida 32 ta, “B” harfi bobida 21 ta, “E” harfi bobida 10 ta, “V”, “Sh”, “G” harflari bobida 5 tadan, “J”, “Z”, “Ch” harflari bobida esa 1tadan termin izohli yoki izohsiz tarzda tarjima qilingan. Tahlil shuni koʻrsatadiki, lugʻat oʻsha davr ijtimoiy-siyosiy terminologik tizimida faol qoʻllangan terminlarning barchasini toʻla qamrab olmagan.

XIX asr oxiri XX boshlaridagi ijtimoiy-lisoniy sharoit tufayli oʻzbek tiliga oʻzlashgan va oʻzlashayotgan ijtimoiy-siyosiy terminlarni tarjima qilishga ehtiyoj ortgan edi. Shunga binoan ijtimoiy-siyosiy terminlarning maxsus ikki tilli tarjima lugʻatini yaratish yoʻlidagi leksikografik ishlar amalga oshirila boshlangan va N.Toʻraqulovning “Rus-oʻzbek tilining siyosiy va iqtisodiy lugʻatchasi” bu yoʻnalishdagi dastlabki ish ekanligi bilan xarakterli. Lugʻatning ijtimoiy-siyosiy terminologik tizim, umuman, oʻzbek lugʻatshunosligida oʻziga xos oʻrni bor. Lugʻat asosida mazkur davrda qanday terminlarning qoʻllanilganligi, ularning maʼnolari, maʼno oʻzgarishi, yangilanish hamda eskirish jarayonlari haqida tasavvurga ega boʻlish mumkin. Lugʻat soha terminlari toʻplangan ilk lugʻat boʻlganligi uchun kamchilikdan holi emas. Biroq soha terminlarini tartibga solishda, shuningdek, nafaqat shu sohaning, balki boshqa soha terminologik lugʻatlarini yaratishda namuna sifatida oʻzbek leksikografiyasi tarixida muhim ahamiyatga ega.

Davr lugʻatchiligida aynan maktab oʻquvchilari uchun moʻljallangan, darslik va qoʻllanmalarga yordamchi vosita sifatida yaratilgan oʻquv lugʻatlari vujudga kelganligi ham eʼtiborli. Xususan, 1925-yilda rus olimi V.Brilev tomonidan jadid adibi “Shokirjon Rahimiyning “Kattalar yoʻldoshi” darsligi uchun oʻzbekcha-ruscha lugʻat” nomi ostida nashr etilgan lugʻat ana shunday tipdagi lugʻatlar

sirasiga kiradi. Lug‘at muallifi V.Brilev bu lug‘atni tuzishdan ko‘zlangan asosiy maqsadni quyidagicha tavsiflaydi: “Bugungi kundagi ko‘pgina maktab va o‘quv kurslarida Shokirjon Rahimiyning o‘zbek tilidagi “Kattalar yo‘ldoshi” asari darslik sifatida kiritilgan. Darslikdagi mavzularni o‘zlashtirishni osonlashtirish hamda o‘zga millat vakillarining darslikni tushunishlaridagi qulaylikni e‘tiborga olib yangi imloda (kiril alifbosida) mazkur lug‘at tuzildi. Dars jarayonida tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarni lug‘atlardan izlash ko‘p vaqt talab qiladi va bu o‘quvchi fikrini chalg‘itadi. Lug‘at odatdagi alifbo tartibida emas, balki har bir mavzu yakuni bo‘yicha tartib berildi...”¹⁰. Ko‘rinadiki, lug‘at – mavzuiy o‘quv lug‘ati. Bu davrgacha ana shunday lug‘at yaratilmagan edi. Lug‘atdagi o‘zbekcha so‘zlikning tarkibini tahlil qilar ekanmiz, unda o‘sha davrda keng qo‘llangan ilm-fan, texnikaga oid terminlar, ishlab chiqarish, turli kasb-hunar, xalq shevalari leksikasi o‘z aksini topganligini ko‘ramiz. Muallif ko‘proq darslikdagi o‘zbekcha so‘zlarning xalq shevalaridagi variantlari tarjimasini berishga harakat qilganligi kuzatiladi: *koranda – posevshik*, *batrak – qo‘shchi* (3), *foytun – ekipaj* (3), *tunovkun – vchera* (7), *ini – mladshiy brat* (8), *kunbotish – zapad* (12), *muzofot – oblast* (16), *jaydari – mestniy* (19), *jilla – slishkom* (24), *durust – nalajivat* (32), *halhal – lekarstvennoe rastenie* (33), *primechanie – eskartma* (35). Muallifning darslikdagi o‘zbekcha so‘zlarning rus tilidagi tarjimasini shunchaki keltirish bilan cheklanmay, ayrim o‘rinlarda ish-harakat leksemalarining grammatik kategoriyalari haqida ham ma‘lumot berganligi lug‘at orqali o‘quvchining o‘zbek tili grammatik qonuniyatlari haqida ham ma‘lum tushunchaga ega bo‘lishini ta‘minlashni maqsad qilinganligi bilan izohlanadi. Masalan: *oshar – (p.b.vr.) ot glagola oshmoq, est, kushat* (1); *tortar – (p.b.vrem.) ot glagola tortmoq, tyanut, nesti, molot (o muke)* (2); *shoshar – (p.b.vr.) ot.gl. shoshmoq, toropitsya, speshit* (5); *olar – (p.b.vrem.) ot glagola olmoq, brat, vzyat* (10).

Lug‘at garchi, tarjima lug‘ati sifatida nomlangan bo‘lsa-da, o‘sha davrda umumfilologik xarakterda yaratilgan boshqa o‘zbekcha-ruscha, ruscha-o‘zbekcha tarjima lug‘atlaridan o‘z

¹⁰ Brilev V. Shokirjon Rahimiyning “Kattalar yo‘ldoshi” darsligi uchun o‘zbekcha-ruscha lug‘at. – M., 1925.

maqsadi nuqtayi nazaridan tubdan farq qiladi. Chunki u o'zbek yoki rus tilini o'rganuvchilar uchun tuzilgan oddiy so'zlashgich emas, balki unda asosan ta'limiy maqsadning ustuvorligi nazarda tutilgan. Shuningdek, lug'atga jadidchilik davridagi o'zbek pedagogik tizimida ta'limning yordamchi vositalari silsilasini yaratish tendentsiyasini boshlab bergan ilk ishlardan biri sifatida qarash mumkin. Zero, lug'at so'zligi to'g'ridan-to'g'ri "Kattalar yo'ldoshi" darsligi asosida alifbo tarzida tuzilmay, mavzulashtirilgan, ya'ni har bir yangi mavzu yakunida tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarni alifbo tartibidagi tarjimasini o'z ichiga olgan. Bu esa lug'atning o'sha davrda darslik mavzularini o'zlashtirishda yordamchi vosita sifatida darslikka moslashtirilgan, o'quv jarayoni bilan aloqador ilk o'quv lug'ati ekanligini ham xarakterlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zbek lug'atchiligining XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning 20-30-yillar davri o'zbek zamonaviy leksikografiyasining shkallanishi uchun poydevor vazifasini o'tadi. Jadid ziyolilari – tilshunoslar, yozuvchilar, shoirlar, olimlar, pedagoglar tomonidan yaratilgan bir tilli, ko'p tilli tarjima lug'atlari, terminologik va o'quv lug'atlari ilk lingvistik lug'at namunalari. Bu davrda yaratilgan lug'atlar, birinchidan, o'tmish va zamon tajribalariga asoslanganligi bilan xarakterlanadi, ularda mumtoz sharq va zamonaviy g'arb leksikografik amaliyoti uyg'unlashib ketganligini ko'rish mumkin. Ikkinchidan, asosan, badiiy asar tilini tushunish uchun xizmat qilgan o'zbek mumtoz lug'atlaridan farqli ravishda jadid lug'atlari ko'proq til o'rgatish va til ta'limi muammolari bilan bog'landi.

O'zbek lug'atchiligi sobiq sho'rolar davrida ham tez sur'atlar bilan rivojlandi. Bu davrda lug'at yaratish ishlarida o'zbek ziyolilari qatorida rus turkolog olimlari ham faoliyat olib borishdi, yaratilgan dastlabki lug'atlar, asosan, o'quv-ma'rifiy xarakterga ega edi. Jumladan, E.D.Polivanovning "Краткий русско-узбекский словарь" lug'ati (-Toshkent-Moskva, 1926), K.K.Yudaxinning "Qisqacha o'zbekcha-ruscha lug'at'i" (arab grafikasida; -Toshkent, 1927), U.Ahmadjonov va B.Ilyazovning "Qisqacha o'zbekcha-ruscha lug'at'i" (lotin grafikasida; 1931), V.V.Reshetovning "Qisqacha o'zbekcha-ruscha lug'at'i" (-Toshkent, 1935) kabi asarlari ana shunday lug'atlar qatoriga kiradi.

40-yillarning boshlarida 17 ming soʻzli “Oʻzbekcha-ruscha lugʻat” (-Toshkent, 1941) va 30 ming soʻzli “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” (-Toshkent, 1942) yaratildi. Professor T.N.Qori-Niyoziy va prof.A.K.Borovkovlar tahriri ostida tayyorlangan ushbu lugʻatlar soʻzligining tarkibi jihatdan ham, lugʻat maqolalarining toʻlaligi jihatdan ham avval nashr etilgan lugʻatlardan ancha mukammal edi. Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutining lugʻatshunos olimlari tomonidan yaratilgan 5 jildli “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” (78 ming soʻz; -Toshkent, 1950-55) va 40 ming soʻzli “Oʻzbekcha-ruscha lugʻat” (-Moskva, 1959) lugʻatlarning yaratilishi oʻzbek leksikografiyasida muhim tarixiy voqea boʻldi. “Oʻzbekcha-ruscha lugʻat” ustida olib borilgan barcha ishlar, maʼlum maʼnoda, oʻzbek tilining izohli lugʻatini yaratishga zamin hozirladi. Bu ishlar davomida oʻzbek tilining izohli lugʻati va oʻzbekcha-ruscha lugʻatlarning tuzilishi uchun umumiy boʻlgan koʻpgina masalalar, jumladan, lugʻatda bosh soʻzlarning shakli, soʻz tanlash tamoyillari, soʻzlarning maʼnoviy, uslubiy va grammatik tavsiflari, leksikografik belgilar tizimi va boshqa masalalar amaliy ravishda hal etildi. 60 ming soʻz va soʻz birikmasini qamrab olgan 2 jildli “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” (-Moskva, 1981), 2 jildli “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” (-Toshkent, 1983-84) hamda 1 jildli “Oʻzbekcha-ruscha lugʻat” (-Toshkent, 1988) larning nashr etilishi oʻzbek lugʻatchiligi tarixida yangi bosqichni boshlab berdi.

Bu davrda lugʻatchilikning nazariy muammolariga bagʻishlangan qator tadqiqotlar ham yuzaga keldi. Jumladan, O.Usmonov, Z.Maʼrufov, S.Akobirov, A.Xoʻjaxonov kabi olimlarning xizmati katta boʻldi. Sovet davrida nashr etilgan oʻzbekcha-ruscha lugʻatlarning leksikografik tavsifi (G.M.Mixaylov), oʻzbekcha-ruscha lugʻatlarda soʻz maʼnolarini izohlash printsiplari (Q.O.Sharafutdinova), ikki tilli lugʻatlarda terminlarning oʻrni va tavsifi (S.F.Akobirov), izohli lugʻatlarda sifatning berilishi (I.Hamdanova) boʻyicha nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi.

Oʻzbek tilining turli tarixiy davrlaridagi soʻz boyligini aks ettiruvchi lugʻatlar ham yaratildi. Jumladan, Alisher Navoiy va boshqa mumtoz shoirlarning asarlarini oʻqish va tushunish maqsad qilingan lugʻatlar qatoriga P.Shamsiyev va S.Ibrohimovlar tomonidan yaratilgan “Oʻzbek mumtoz adabiyoti asarlarini oʻqish

uchun qisqacha lug‘at” (Toshkent, 1955), “Navoiy asarlari lug‘ati” (Toshkent, 1972) hamda 1983-85-yillarda E.Fozilov rahbarligida yaratilgan shoir asarlarining 4 jildli lug‘ati yuzaga keldi.

O‘zbekistonda qadimdan rivojlangan kasb-hunarga oid, turli lahja va shevalarga oid hamda turli terminologik tizimlarga oid lug‘atlar ham yaratila boshlandi. Xususan, S.Ibrohimovning uch qismli “Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi” lug‘ati (-Toshkent, 1956-59), O.Usmon va R.Doniyorovlarning “Ruscha-inernatsional so‘zlar izohli lug‘ati” (-Toshkent, 1965; 2-nashri 1972), akademik Sh.Shoabdurahmonov tahriri ostida nashr etilgan “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” (-Toshkent, 1972) kabilar shular jumlasidan. Bundan tashqari, rus-o‘zbek xalqlari muloqotini takomillashtirishni, munosabatlarni yaxshilashni, tezlashtirishni ko‘zlab, shuningdek, ilm-fan sohalari bilan tanishtirishni nazarda tutib tuzilgan bu davrga xos quyidagi lug‘atlarni ham ko‘rsatib o‘tish o‘rinlidir: T.N.Qori-Niyoziy “Ruscha-o‘zbekcha riyoziyot terminlari lug‘ati” (1931); Husayinxon Niyoziy “Ruscha-o‘zbekcha fizika terminlari lug‘ati” (1932); A.Asqarov, T.Najmiddinov “Normal mikroskopik anotomiyadan lotincha-o‘zbekcha-ruscha terminologik lug‘at” (1933); N.Sayfulmulukov “Ruscha-o‘zbekcha paxtachilik terminlari lug‘ati” (1934); S.Ibrohimov “Paxtachilikka doir qisqacha izohli lug‘at” (1935); N.Kolosovskiy, Z.Saidnosirova “Kimyo terminologik lug‘ati” (1935); G‘.Rahimov va boshqalar. “Ruscha-o‘zbekcha elektronika terminlari lug‘ati” (1937); T.Zohidov “Qisqacha izohli zoologiya terminlari lug‘ati” (1938), A. Hojiyev “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” (1974), O.Usmonov “Ijtimoiy-siyosiy terminlar lug‘ati” (1976), Sh. Rahmatullaev “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” (1978), “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” (1979), Sh.Rahmatullayev, R.Shukurov “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati” (1980), A.Hojiyev “O‘zbek tili sinonimlari lug‘ati” (1982), Sh.Rahmatullayev “O‘zbek tili frazeologizmlarining izohli lug‘ati” (1983). Yu.Yunusov “Fiziologik terminlarning izohli lug‘ati” (1984), X.Bekmuhammedovning “Tarix terminlarining izohli lug‘ati” (1985).

O‘zbek tilining barcha leksemalarini izohlashga bag‘ishlangan lug‘at esa umumiy izohli lug‘at. 60 ming so‘zni o‘z ichiga olgan ikki

jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (1981) o‘zbek leksikografiyasi tarixida o‘zbek adabiy tilining nisbatan barcha leksemalarini izohlashga qaratilgan ilk izohli lug‘at.

Savol va topshiriqlar

1. Davr lug‘atchiligiga umumiy tavsif bering.
2. O‘zbek zamonaviy leksikografiyasi deganda nimani tushunasiz?
3. Davr lug‘atchiligida tarjima lug‘atlarining takomillashuv jarayonini qanday izohlaysiz?
4. “Mumtoz sharq va zamonaviy g‘arb leksikografik amaliyoti” tushunchalariga tavsif bering?
5. Davr lug‘atchiligi manbalarini ko‘rsating ?
6. Davr lug‘atchiligi shakllanishidagi ijtimoiy ehtiyojni tavsiflang.

Test

1. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus ziyolilari, davlat xizmati vakillari tomonidan yaratilgan “o‘zbekcha-ruscha”, “ruscha-o‘zbekcha” tarjima lug‘atlarning yaratilishidagi bosh maqsad nima edi?

- A. *Mustamlaka maqsadida O‘rta Osiyo xalqlarining urf-odatları va madaniyatini o‘rganish, ular bilan yaqindan tanishish edi;
- B. Tarjima lug‘atlarini takomillashtirish edi;
- C. Lug‘at tuzish qonun-qoidaları, tamoyillari borasida bilimlar berish edi;
- D. O‘rta Osiyo xalqlarining lug‘atlardan foydalanish malakasini oshirish edi;

2. Ruscha-o‘zbekcha tarjima lug‘atlari orasida o‘zbek ziyolisi muallifligida yaratilgan dastlabki lug‘at qaysi?

- A. *Ashurali Zohiriy “Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at;
- B. A.Qodiriy., S.Rahmatiy “Ruscha-o‘zbekcha to‘la so‘zlik”
- C. Nazir To‘raqulov “Rus-o‘zbek tilining siyosiy va iqtisodiy lug‘atchasi”;
- D. Ishoqxon Ibrat “Lug‘oti sitta alsina”.

3. Ishoqxon Ibrat “Lug‘oti sitta alsina” asarini kimlarning manfaatini ko‘zlab tuzadi?

- A. *“Safar ahli” – sayohatchilar uchun;
- B. Arab, fors tillarini mustaqil o‘rganuvchilar uchun;
- C. Usmonli turk tilini mustaqil o‘rganuvchilar uchun;
- D. Rus va hind tillarini mustaqil o‘rganuvchilar uchun.

4. O‘zbek leksikografiyasi tarixida yaratilgan ilk maxsus lug‘at...

- A. *Elbekning “O‘zbekcha shakldosh so‘zlar lug‘ati;
- B. Ibrohim Davron tomonidan tuzilgan “Ibn Sino asarlarida qo‘llangan arabcha, forscha so‘zlarning izohli lug‘ati”;
- C. Nazir To‘raqulovning “O‘zbek-rus tilining siyosiy-ijtimoiy lug‘atchasi”;
- D. G‘ozi Olimning “Qisqacha ruscha-o‘zbekcha siyosiy-huquqiy atamalar lug‘ati”.

5. O‘quv lug‘ati qanday lug‘at?

- A. *Darslik asosida mavzulashtirilgan, o‘quv jarayoni bilan aloqador lug‘at;
- B. So‘zligi darslik asosida alifbo tartibida berilgan lug‘at;
- C. Muayyan tilni mustaqil o‘rganuvchilar uchun tuzilgan lug‘at;
- D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

6. O‘zbek leksikografiyasi tarixida yaratilgan ilk terminologik lug‘at...

- A. *Nazir To‘raqulovning “O‘zbek-rus tilining siyosiy-ijtimoiy lug‘atchasi”;
- B. G‘ozi Olimning “Qisqacha ruscha-o‘zbekcha siyosiy-huquqiy atamalar lug‘ati”;
- C. Elbekning “O‘zbekcha shakldosh so‘zlar lug‘ati;
- D. Ishoqxon Ibratning “Lug‘oti sitta alsina” asari.

Adabiyotlar

1. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
2. Нормаматов С. Жадид адибларининг луғатшунослик фаолияти. –Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2018.
3. Маъруфов З., Михайлов Г. Ўзбек лексикографиясининг 50 йили // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1947. - № 5.

5. Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан материаллар (XIX асрнинг охири XX аср бошлари). – Тошкент: Фан, 1981.

6. Маъруфов З., Михайлов Г. Ўзбек совет лексикографияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1972. -№ 6.

7. Мадвалиев А. Ўзбек лексикографияси тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2008. -№6

8. Мадвалиев А. Исҳоқхон Ибратнинг олти тилли луғати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. -№5.

9. Фаттоҳов Х. Ўзбек лексикографияси тарихига бир назар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1981. -№3.

10. Ҳожиев А. Энг кўхна русча-ўзбекча луғат // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1966, -№1.

MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK LUG‘ATCHILIGI

Reja

1. Mustaqillik yillarida yangi nashrdagi lug‘atlarga bo‘lgan ehtiyojning yuzaga kelishi.

2. Yangi nashrdagi tarjima lug‘atlarining yaratilishi.

3. Mustaqillik yillari o‘zbek leksikografiyasida yaratilgan yangi turdagi lug‘atlar.

Tayanch so‘z va iboralar: *illyustrativ material, so‘zshakl, antropotsentrik yondashuv, o‘xshatish etaloni, lingvokulturologik lug‘at, enantioseмик so‘z, lisoniy va nutqiy baholash, nominativ va sub‘ektiv baholash, poetonim, assotsiativ lug‘at.*

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi, yangi tahrirdagi “Davlat tili haqida”gi qonunning qabul qilinishi o‘zbek tilshunosligining yanada rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratdi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘zbek leksikografiyasi rivojiga ham ta’sir ko‘rsatdi. O‘zbek leksikografiyasida mustaqillik davrida ko‘plab yangi turdagi lug‘atlar paydo bo‘ldi. Dastlab, Fanlar akademiyasi tizimida, faqat O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida lug‘atshunos olimlar tomonidan yoki ularning bevosita ishtiroki

bilan mamlakatimiz mustaqilligi yillarida yaratilgan turli xil lugʻatlar haqida qisqacha toʻxtalib oʻtamiz.

Mustaqillikgacha Oʻzbekistonda turli yillarda har xil hajm va xarakterdagi, turli moʻljaldagi koʻplab ikki tilli lugʻatlar nashr etildi. Ular orasida 1983-1984- yillarda nashr etilgan, oʻz davrida mukammal deb hisoblangan ikki jildli “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” alohida ajralib turadi. U mamlakatimizda rus tilini keng miqyosda oʻrganishga va tarjima ishlarining rivojiga katta hissa qoʻshdi. Biroq keyingi yillarda, hatto Respublikamiz mustaqillikka erishgandan soʻng oʻtgan yigirma yil ichida ham T.Aliqulov va M.Abdurahimovlarning bir necha variantlarda qayta-qayta nashr etilgan qisqacha ruscha-oʻzbekcha lugʻatlarini¹¹ hisobga olmaganda, bu sohada biron-bir salmoqli lugʻat yaratilmagan edi. Oʻzbekistonning mustaqillikka erishuvi va buning natijasida jamiyat hayotida roʻy bergan tub oʻzgarishlar natijasida bunday lugʻatga boʻlgan ehtiyojni hisobga olib, OʻzRFA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti (hozirgi Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori instituti) hamda “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti 1983-1984-yillarda chop etilgan ikki jildli “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat”ni qayta ishlab nashr etishni rejalashtirib, bir necha yil davomida hamkorlikda ish olib bordilar. Nihoyat, 2013-yilda mazkur lugʻat A.Madvaliyev tomonidan toʻldirilgan va tuzatilgan, shoʻro mafkurasidan “tozalangan” holda toʻliq tahrir qilinib nashr etildi.

Yangi nashr etilgan lugʻatda amalga oshirilgan katta ilmiy-tahririy ishlar, jumladan, quyidagilarda namoyon boʻladi: a) avvalgi lugʻatning “Soʻzboshi”sidan foydalangan holda, ruscha-oʻzbekcha lugʻatlar tarixini ham aks ettirgan “Soʻzboshi” yozilgan; b) shoʻrolar davrida tuzum taqozosi bilan va shoʻro mafkurasi nuqtayi nazaridan bir tomonlama, noxolis izohlangan bir qancha soʻz, xususan, ijtimoiy-siyosiy, diniy-falsafiy, tarixiy, iqtisodiy terminlar eng soʻnggi manbalarga tayangan, ularga qiyoslangan holda qaytadan

¹¹ Алиқулов Т. Русча-ўзбекча луғат. -Тошкент, 1993. 304 бет (2-нашр. -Тошкент, 2007. 352 бет); Абдурахимов М. Ўзбекча-русча ва русча-ўзбекча луғат. -Тошкент: Фан, 2008. 644 бет; Abdurahimov M. Oʻzbekcha-ruscha va ruscha- oʻzbekcha lugʻat. - Tashkent: Fan, 2008. 636 bet; Abdurahimov M. Oʻzbekcha-ruscha va ruscha- oʻzbekcha lugʻat. -Tashkent: Fan, 2008. 408 bet.

xolisona izohlangan; v) lugʻatni shoʻro mafkurasini aks ettiruvchi soʻz va illiyustrativ materiallardan “tozalash” zarurati munosabati bilan (zero, lugʻatni mafkurasizlantirish ushbu nashrning asosiy maqsadlaridan biri boʻlgan) lugʻatdan koʻplab lugʻat maqolalari va ularga berilgan misollar chiqarilgan, ularning oʻrniga soʻnggi yillarda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda paydo boʻlgan yangi tushunchalarni nomlovchi, rus tili lugʻatlaridan barqaror oʻrin olgan til birliklari kiritilgan, shuningdek, mavjud soʻz va birliklarning yangi maʼnolari qayd etilgan; g) hozirgi oʻzbek tilida aniq muqobili boʻla turib oʻrinsiz qoʻllanib kelayotgan bir qator ruscha va baynalmilal soʻzlar mamlakatimizdagi hozirgi til siyosati talablari va til amaliyotidan kelib chiqib, oʻzbek tilida avvaldan mavjud boʻlgan tegishli til birliklari bilan almashtirilgan (masalan, *avtor* > *muallif*; *gruppa* > *guruh*; *kanikul, otpuska* > *taʼtil*; *kollektiv, komanda* > *jamoʻa*; *oblast* > *viloyat*; *protsess* > *jarayon*; *reviziya* > *taftish*; *ekonomika* > *iqtisodiyot* kabi 50 tadan ortiq soʻz); d) hozirgi imlo amaliyotidan kelib chiqqan holda ayrim soʻzlarning yozilishiga aniqliklar kiritilgan va hokazo.

Umuman, yangi nashrda quyidagicha miqdoriy oʻzgarishlar amalga oshirilgan: avvalgi nashrdagi 8800 dan ortiq lugʻat maqolalari (ayrim eskirgan soʻzlar; millat, xalq, elatlarga mansub har ikkala jinsdagi shaxslar nomlari; erkak jinsini anglatuvchi shaxs nomlaridan hosil qilinib, ayol jinsidagi shaxslarni bildiruvchi nomlar; tugallanmagan feʼl shakllarini ifodalovchi soʻzlar va b.) yangi lugʻatda alohida lugʻat maqolalari sifatida berilmagan; 1330 ta illiyustrativ misol ham chiqarib tashlashgan. Buning evaziga lugʻatga yangidan 3460 ta lugʻat maqolasi hamda 4000 tadan ortiq illiyustrativ misol kiritilgan. Bundan tashqari, mavjud soʻzlarning 1060 ta yangi maʼnosi qayd etilgan, 1070 ta soʻz yangidan izohlangan, 7000 taga yaqin lugʻat maqolasi jiddiy tahrir qilingan; shuningdek, illiyustrativ misollar ham ancha koʻpaytirilgan: avvalgi nashrdagi 92 516 ta oʻrniga yangi nashrda 95 236 ta illiyustrativ misol berilgan. Yangi ikki jildli “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat”ga 59 140 ta soʻz kiritilgan.

Ushbu lugʻat keng kitobxonlar ommasiga va, eng avvalo, rus tilini oʻrganuvchilarga moʻljallangan. U tarjimonlar hamda nashriyot

muharrirlari, matbuot, radio va televidenie xodimlari uchun ham muhim qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda.

Institut olimlaridan Berdaq Yusufning "Turkcha-o'zbekcha, o'zbekcha-turkcha lug'at" (-Тошкент: Ўзбекистон, 1993), "Turk tilining ters lug'ati" (-Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004), "Turkcha-o'zbekcha "aldoqchi" so'zlar lug'ati" (-Toshkent: Voris-nashriyot, 2009), "Turkcha-o'zbekcha, o'zbekcha-turkcha lug'at" (-Toshkent: Tafakkur, 2012), R.Sapoyev va Sh.Avezmetovlar ishtirokida tuzilgan "O'zbek tilidagi arabcha va forsha so'zlar lug'ati" (-Тошкент: Ўқитувчи, 1996), "O'zbek tiliga o'zlashgan forsha so'zlar" (-Tehron – Toshkent, 2005) deb nomlangan lug'atlar, Maqsuda Sodiqovanning "Ruscha-o'zbekcha maqol va matallar lug'ati" (-Тошкент: Фан, 2005), "O'zbekcha-ruscha maqol va matallar lug'ati", Maqsud Abdurahimovning avval, Toshkentda, keyin ayrim o'zgarishlar bilan Qozonda (Rossiya) chop etilgan "Qisqacha o'zbekcha-tatarcha maqol va matallar lug'ati" (-Тошкент: Академнашр, 2009; -Казань: Татарское книжное издательство, 2010) va boshqalar ham mustaqillik yillarida yaratilgan o'ziga xos lug'atlar.

XX asrning 60-70-yillarigacha bo'lgan o'zbek lug'atchiligi tarixida rus-o'zbek yoki o'zbek-rus, ingliz-o'zbek yoki o'zbek-ingliz, nemis-o'zbek yoki o'zbek-nemis ikkitilliligi asoslanib tuzilgan tarjima va o'quv lug'atlari mavjud bo'lgan bo'lsa, o'tgan asrning so'nggi choragidan hozirgacha ular qatoriga frantsuz, ispan, fors, arab, turk, urdu, hind, koreys, xitoy, yapon tillari bilan o'zbek tili ishtirokida tuzilgan ikki tilli o'quv lug'atlari, so'zlashgichlar qo'shildi. Ayniqsa, so'nggi 15 yil ichida quyidagi katta hajmli inglizcha-o'zbekcha, forsha-o'zbekcha, arabcha-o'zbekcha lug'atlarning yaratilishi o'zbek ikki tilli leksikografiyasining ulkan yutug'i: Butayev Sh. Inglizcha-o'zbekcha lug'at. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2009; Butayev Sh. Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'at. 80 000 so'z va ibora. – Toshkent: O'qituvchi NMJU, 2013; Abdusamatov M., Vafoiy A., Olimov Sh., Avazmetov Sh. Forscha-o'zbekcha lug'at. – Toshkent: Fan, 2006; Носиров О., Юсупов М., Мухиддинов М., Рахматуллаев Ю., Нишонов А., Ан-Наъим. Арабча-ўзбекча луғат. – Тошкент: Мерос, 2003; Иброҳимов Н., Орипов А., Илҳомжонов А.,

Зайриев А. Ал-Қомус. Арабча-ўзбекча қомусий луғат. 4 жилдли. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2017. Ular haqida ilmiy jurnallar va to‘plamlarda tegishli fikr mulohazalar bildirilgani sababli bu yerda batafsil to‘xtalmaymiz.

Mazkur ikki jildli “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at” bilan parallel ravishda institutda katta hajmli imlo lug‘ati tuzishga ham alohida e‘tibor qaratildi. Zero, imlo lug‘atlari yozma nutq madaniyatini, imloviy savodxonlikni yanada takomillashtirishning muhim quroli.

O‘zbek tili birliklariga antropotsentrik yondashuv nafaqat nazariy tadqiqotlarda, balki lug‘atlarda ham o‘z aksini topmoqda. Nizomiddin Mahmudov va Durdona Xudoyberganovalar tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” (-Тошкент: Маънавият, 2013) ana shunday lug‘atlardan. Lug‘at tuzuvchilar o‘zbek tili egalarining obrazli tafakkuriga xos turg‘un o‘xshatishlarni to‘plash hamda ularning ma’nolarini izohlashni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yib, boshqa tillardagi o‘xshatishlar lug‘atlarini tuzish tajribasini sinchiklab o‘rganib chiqqanlar va barqaror o‘xshatishlarni belgilashning maqbul variantini tanlab olganlar. Kitobning “Lug‘atning tuzilishi haqida”gi qismida ta’kidlanishicha, lug‘atda o‘xshatish etalonlari lug‘at maqolalarining sarlavhasi sifatida berilgan. Chunki “xalqning dunyoni tasavvur etishi va anglashidagi o‘ziga xoslik, ya’ni milliy-madaniy va milliy-konnotativ ma’lumot bevosita ayni shu o‘xshatish etalonida tajassum topadi”¹². Bunday usul, shuningdek, o‘zbek tili egalarining lisoniy xotirasida saqlanayotgan etalonlar tizimi haqida muayyan tasavvurni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Lug‘atdagi izohlar turli matnlardan olingan misollar bilan dalillangan.

Lug‘at bilan tanishishdan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek tilida kishiga aloqador o‘xshatishlardan ko‘pincha o‘xshatish etalonlari sifatida turli o‘simlik, meva hamda hayvonlarning nomlaridan foydalanilar ekan. Masalan, *itday vafodor, musichaday beozor, molday befahm, eshakday qaysar, qo‘yday yuvosh, sarvday tik, lavlagiday qizarmoq, charosday qop-qora, bir qop yong‘oqday shaldir-shuldur, gulday nozik, terakday baland* kabi. Bunday

¹² Махмудов Н., Худойберганова Д. Кўрсатилган луғат. 10-бет.

o'xshatish etalonlarini tavsiflash o'zbek tilining o'ta muhim psixolingvistik xususiyatlarini namoyon etadi.

“O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati”ni lingvokulturologik xarakterdagi lug'at sifatida ham baholash mumkin. Chunki lug'atda izohlangan o'xshatish etalonlari xalqning milliy tafakkuri, madaniyati va obrazli fikrlashi mahsuli. Jami 530 dan ortiq turg'un o'xshatishlarni o'z ichiga olgan ushbu lug'at – shu yo'nalishdagi dastlabki urinish natijasi.

O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari bilan shug'ullanib kelayotgan taniqli olim Nizomiddin Mahmudov va yosh tadqiqotchi Yorqinjon Odilovlar tomonidan nashr ettirilgan “So'z ma'no tarqqiyotida ziddiyat. O'zbek tili enantioseмик so'zlarining izohli lug'ati” kitobi (-Тошкент: Академнашр, 2014) bir til birligi doirasida yuzaga chiqadigan ziddiyatni o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu tadqiqot bir lug'aviy birlik doirasidagi antonimiya hodisasini ham nazariy, ham amaliy o'rganish nuqtayi nazaridan o'ziga xos dastlabki asar. Kitob 3 qismdan iborat, uning “Ziddiyat va lisoniy birlikda ma'no taraqqiyoti” deb nomlangan birinchi qismi N.Mahmudov, “O'zbek tilida enantiosemiya” nomli ikkinchi qismi Y.Odilov, uchinchi qismi – “O'zbek tili enantioseмик so'zlarining izohli lug'ati” esa har ikkala muallif tomonidan yozilgan.

Kitobning uchinchi qismi hisoblangan “O'zbek tili enantioseмик so'zlarining izohli lug'ati” nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki umuman turkiyshunoslikda shu yo'nalishda yaratilgan dastlabki lug'at. Lug'atda o'zbek tilidagi 300 dan ortiq enantioseмик so'z va frazeologizmlar keltirilib, ularning lisoniy va nutqiy, nominativ va sub'ektiv-baholash, grammatik, diaxron va sinxron turlari ko'rsatilgan. Har bir so'z yoki ibora izohidan so'ng qadimiy turkiy yozma yodgorliklar, xalq og'zaki ijodi namunalari, zamonaviy o'zbek badiiy adabiyoti namunalaridan, matnlaridan, og'zaki nutq va sheva materiallaridan tanlab olingan illiyustrativ misollar keltirilgan. Misol tariqasida omonlashmoq so'ziga tuzilgan Lug'at maqolasini ko'rsatib o'tish mumkin (215-bet).

Omonlashmoq. *Diaxronik, nominativ, lisoniy enantiosemiya.*

1. Salomlashmoq, bir-biridan hol-ahvol so'ramoq: -Hormang, brigad! - bizga rahbar bo'lib chiqqan domlamiz Sadir Fuzaylovich uzoqdan Quvish aka bilan *omonlashdi* (O'.Hoshimov. Ikki eshik

orasi). Ayasi bilan naridan-beri ko‘rishib *omonlashgan* Zabarjad ukasini mahkam quchoqlab olgan, yuz-ko‘zlaridan cho‘lpillatib o‘pgani-o‘pgan (E.A’zam. Zabarjad)...

2. Xayrlashmoq, vidolashmoq: Xoldor ketar bo‘ldi, beklar, dunyodan. Rozilanib, *omonlashib* qolinglar (E.Jumanbulbul). Ana shunday qilib Murodxon singlisi bilan *omonlashib*, yo‘lga tushib jo‘nayverdi (“Murodxon”).

Lug‘atda izohlangan til birliklari tilimizda so‘z ma’nolarining tadrijiy taraqqiyoti, tilning diaxron va sinxron tabiati, shuningdek, matnda namoyon bo‘ladigan yashirin ma’no xususiyatlari haqida yorqin taassurot uyg‘otadi. Ushbu kitob o‘zbek tilshunosligida va turkiyshunoslikda enantiosemiyaning lingvistik maqomini belgilovchi, o‘zbek tilidagi so‘z ma’nolariga xos bo‘lgan ma’noviy ziddiyatning leksikografik xususiyatlarini ko‘rsatib beruvchi tadqiqot sifatida muhim ahamiyatga ega. Kitob, eng avvalo, filologiya yo‘nalishidagi tadqiqotchilar, talaba va o‘qituvchilarga, umuman, so‘z olamining sir-sinoatlariga qiziquvchi barcha kishilar uchun muhim qo‘llanma vazifasini o‘taydi.

Bugungi kunda institut tilshunoslari yangi tipdagi, original lug‘atlar yaratishga alohida e’tibor qaratishmoqda. Durdona Xudoyberganova va Dilrabo Andaniyazovalarning “O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati” o‘zbek leksikografiyasida yangi bosqichni, yangi davrni boshlab berdi. Lug‘atda o‘zbek badiiy adabiyotida poetik maqsadlarda qo‘llanilgan til birliklari – poetonimlar leksikografik talqin qilingan. Unda *Kumush, Otabek, Layli, Majnun, Amir Temur, Nasriddin Afandi, Kolumb, Otello, Napoleon, Samarqand, Buxoro, Bag‘dod, Orol, Kamchatka* kabi onomastik birliklarning lingvopoetik vazifalari izohlangan. Ushbu lug‘at o‘zbek tilining badiiy imkoniyatlarini yaqqol namoyon etishda muhim rol o‘ynaydi. “O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati” nafaqat turkiyshunoslikda, balki zamonaviy tilshunoslikda ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar, o‘zbek tilining badiiy imkoniyatlarini to‘liq ko‘rsatib beruvchi mukammal lug‘atlar yaratilishini ta’minladi.

XXI asr boshlarida o‘zbek tilshunosligida yangi antropotsentrik paradigma shakllandi. Natijada o‘zbek tilshunosligida ushbu yo‘nalishda bir qator monografik tadqiqotlar yaratildi, ilmiy izlanishlar olib borildi. Albatta, yangi antropotsentrik paradigma o‘z

terminlariga ega va bunday terminlar hammaga ham birday tushunarli bo'lavermaydi. Ana shunday ob'ektiv ehtiyojlar hisobga olingan holda o'zbek tilshunosligida birinchi marta "Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati" (-Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015) yaratildi. Lug'atda lingvokulturologiyaga oid asosiy terminlarning ma'nosi izohlangan. Bu lug'at lingvokulturologiya alohida fan sifatida shakllanayotgan bir davrda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur terminologik lug'at bilan bir qatorda institut olimlari turli yillarda fan va texnikaning turli xil sohalari, xususan, tilshunoslik, ish yuritish, tibbiyot, ma'naviyat, testologiya, sellyuloza va qog'oz texnologiyasi bo'yicha quyidagi ikki tilli terminologik va izohli lug'atlar yaratdilar, bu lug'atlarning har biri tegishli sohalar terminologiyalarining rivojlanishi va takomillashuviga muhim hissa qo'shdi, deb aytish mumkin: Хожиев А. Тилшунослик атамаларининг русча-ўзбекча қисқача луғати. – Тошкент: Фан, 1993; Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎЗМЭ нашриёти, 2002; Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 2013; Иш юритиш атамаларининг русча-ўзбекча қисқача луғати (Тузувчилар: А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов, Э.Панасенко ва б.) – Тошкент: Фан, 1994; Қисқача русча-ўзбекча-инглизча иш юритиш луғати (Тузувчилар: А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов, Э.Панасенко ва б.) – Тошкент: Ўзбекистон, 1995; Қосимов А. Тиббий терминлар изоҳли луғати. 4 жилдли. – Тошкент: Ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2003-2008; Маҳмудов Н., Саидкулов З. Маънавиятдан ўзбекча-русча-инглизча-французча-арабча луғат. – Тошкент: Маънавият, 2012; Ураева Э., Мадвалиев А., Маҳкамов Н. Тестология бўйича русча-ўзбекча, ўзбекча-русча изоҳли терминологик луғат-минимум. – Тошкент: ДТМ нашри, 2005; Пиримкулов М., Мадвалиев А., Раҳмонбердиев Ғ. Целлюлоза ва қоғоз технологияси: қисқача русча-ўзбекча изоҳли терминологик луғат. – Тошкент: Фан ва технология, 2010.

XX asrga kelib jahon tilshunosligida tilni assotsiativ yo'nalishda o'rganishga e'tibor kuchaydi. Leksik assotsiayalar tahliliga bo'lgan qiziqish turli tillarga oid assotsiativ lug'atlarning yuzaga kelishiga

zamin hozirladi. O'zbek lug'atchiligida ham ilk bor shu turdagi lug'at D.lutfullayeva, R.Davlatova, B.Tojiboyevlar tomonidan yaratildi ("O'zbek tili assotsiativ lug'ati (milliy-madaniy birliklar)". – Toshkent: "Navoiy universiteti" nashriyot-matbaa uyi, 2019). Mazkur lug'at so'zlar orasidagi assotsiativ munosabatni aks ettiruvchi lingvistik lug'at (*stimul so'z javob reaksiyasi* tipidagi lug'at). Unda o'zbek tilidagi 100 ta milliy-madaniy birlik bo'yicha til egalari xotirasida tiklangan 42645 ta javob reaksiyasi (assotsiatsiyalar) o'rin olgan. Lug'at o'zbek tilidagi milliy-madaniy birliklarning leksik-semantik, assotsiativ ma'nosi, boshqa birliklar bilan semantik-mantiqiy va assotsiativ bog'lanishi asosida nutqda birga qo'llanishi, madaniylik, ijtimoiylik, genderologik, pragmatik, kognitiv xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi ilk yangi turdagi lug'at.

Bir so'z bilan aytganda, katta, boy tajribaga ega bo'lgan o'zbek leksikografiyasi bugungi kunda ham jadal rivojlanmoqda.

Savol va topshiriqlar

1. Mustaqillikgacha bo'lgan davrda yaratilgan lug'atlarning qayta nashr etish ehtiyojining yuzaga kelishini qanday izohlaysiz?
2. Mustaqillik yillarida ikki tilli tarjima lug'atlarining takomillashuv jarayonini izohlang.
3. Mustaqillik yillarida ko'p tilli tarjima lug'atlarining takomillashuv jarayoniga izoh bering.
4. Qaysi lug'atlarni mustaqillik yillarida yaratilgan yangi tipdagi lug'atlar sirasiga kiritish mumkin?
5. Mustaqillik yillarida yangi tipdagi lug'atlar yaratilishi uchun sabab bo'lgan omillarni ko'rsating.
6. O'zbek leksikografiyasining hozirgi davr holatiga umumiy tavsif bering.

Test

1. **O'zbek tilshunosligida XXI asr boshlarida yuzaga kelgan antropotsentrik yondashuv asosida yaratilgan lug'at qaysi? A.**
*D.Xudoyberganova tomonidan yaratilgan "Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati";

B. D.Xudoyberganova va D. Andaniyazovalarning “O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati”;

C. N.Mahmudov va D.Xudoyberganovalar tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili

o‘xshatishlarining izohli lug‘ati;

D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

2. O‘zbek badiiy adabiyotida poetik maqsadlarda qo‘llanilgan til birliklarining leksikografik talqiniga bag‘ishlangan lug‘at qaysi?

A. *D.Xudoyberganova va D.Andaniyazovalarning “O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati”;

B. N.Mahmudov va D.Xudoyberganovalar tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili

o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”;

C. N.Mahmudov va Y.Odilovlar tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili enantioseмик so‘zlarining izohli lug‘ati”;

D. D.Xudoyberganova tomonidan yaratilgan “Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati”.

3. Til egalarining tashqi olam haqidagi psixologik tasavvuri, lisoniy tafakkuri va xotirasi asosida yaratilgan lug‘atlar...

A. *Assotsiativ lug‘atlar sanaladi;

B. Izohli lug‘atlar sanaladi;

C. Psixolingvistik lug‘atlar sanaladi;

D. Etimologik lug‘atlar sanaladi.

4. Mustaqillik yillarida ikki tilli tarjima lug‘atlari yaratilishida qanday yutuqlarga erishildi?

A. *Frantsuz, ispan, fors, arab, turk, urdu, hind, koreys, xitoy, yapon tillari bilan o‘zbek tili ishtirokida tuzilgan ikki tilli o‘quv lug‘atlari, so‘zlashgichlar yaratildi;

B. Tarjima lug‘atlar so‘zligi yangi leksemalar bilan boyitildi;

C. Tarjima lug‘atlar yangi grammatik tavsiflar bilan boyitildi”;

D. Tarjima lug‘atlar so‘zligi yangi leksemalar va grammatik tavsiflar bilan boyitildi.

5. O‘zbek tili birliklariga antropotsentrik yondashuv asosida yaratilgan lug‘at qaysi?

A. *N.Mahmudov va D.Xudoyberganovalar tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”;

B. N.Mahmudov va Y.Odilovlar tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili enantioseмик so‘zlarining izohli lug‘ati”;

C. D.Xudoyberganova va D.Andaniyazovalarning “O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati”;

D. D.Xudoyberganova tomonidan yaratilgan “Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati”.

6. Bir til birligi doirasida yuzaga chiqadigan ziddiyat, antonimiya hodisasini asosida tuzilgan lug‘at qaysi?

A. *N.Mahmudov va Y.Odilovlar tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili enantioseмик so‘zlarining izohli lug‘ati”;

B. D.Xudoyberganova va D.Andaniyazovalarning “O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati”;

C. D.Xudoyberganova tomonidan yaratilgan “Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati”;

D. N.Mahmudov va D.Xudoyberganovalar tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”.

Adabiyotlar

1. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.

2. Нормаматов С. Жадид адибларининг луғатшунослик фаолияти. –Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд, 2006; 2-жилд, 2006; 3-жилд, 2007; 4-жилд, 2008; 5-жилд, 2008.

4. Ўзбек тилининг имло луғати / Тузувчилар: Э.Бегматов, А.Мадвалиев. –Тошкент: Академнашр, 2013; O‘zbek tilining imlo lug‘ati / Tuzuvchilar: E.Begmatov, A.Madvaliyev. – Toshkent: Akademnashr, 2013. 528 bet.

5. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ нашриёти, 2002. 168 бет;

6. Мадвалиев А. Ўзбек лексикографияси тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2008. -№6.

7. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. 14600 исмлар изоҳи. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. (2-нашр. 2007).

8. Mahmudov N. Soʻz sandiqchasi. Oʻzbek tilining izohli lugʻatchasi (boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun). – Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi NMIU, 2016.

9. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.

10. Маҳмудов Н., Одилов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддият. Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Академнашр, 2014.

ENTSIKLOPEDIK, ETIMOLOGIK, IMLO VA IZOHLI LUGʻATLARNING YARATILISHI

Reja

1. Mustaqillik yillarida yangi nashrdagi entsiklopedik va etimologik lugʻatlarining yaratilishi.
2. Yangi nashrdagi imlo lugʻatlarining yaratilishi.
3. Oʻzbek tili izohli lugʻatini yaratish ustidagi izlanishlar.

Tayanch soʻz va iboralar: *hosila maʼno, soʻzshakl, leksik birlik, lugʻaviy tizim, lisoniy meʼyor, oʻquv-izohli lugʻat, xalq etimologiyasi, soʻz-termin.*

Oʻzbek leksikografiyasining mustaqillik yillaridagi rivoji va taraqqiyotini yangicha shakl va mazmundagi entsiklopedik lugʻatlarning yaratilishida ham kuzatishimiz mumkin. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 20-martdagi 154-sonli qarori bilan tashkil etilgan “Oʻzbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyotida jamiyat hayotining barcha sohalari boʻyicha entsiklopedik nashrlar, oʻzbek xalqining tarixiy, madaniy merosi, qadriyatlari, tibbiyotiga oid lugʻatlar yaratish ishlari boshlandi. Oʻzbek lugʻatchiligida oʻtmishda erishilgan tajriba va anʼanalar negizida turli tipdagi lugʻatlarni tuzish, mavjudlarini qayta takomillashtirib nashr etish ishlari borasida qoʻyilgan jiddiy qadamlardan biri Oʻzbekiston milliy entsiklopediyasini yaratish boʻldi. Yangi yaratilajak entsiklopediyani milliy istiqlol gʻoyalari asosida tuzish, sobiq shoʻrolar davrida nohaq kamsitilgan ajdodlar

hayoti va faoliyatini haqqoniy yoritish, totolitar tuzum siyosati va mafkurasini ifodalovchi tushunchalardan voz kechish singari maqsadlar asosiy mezon sifatida belgilandi. Nashriyot 2000-2006-yillarda 12 jildlik O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi nashrini yakunladi. Entsiklopediyaning 1-11-jildlarida umumiy hajmi 1600 nashriyot-hisob tabog‘ini tashkil etgan qariyb 60 ming maqola berildi. Uning har bir jildida 800-1200 atrofida rangli va oq-qora suratlar, xaritalar o‘rin olgan. O‘zbekiston milliy entsiklopediyasining 12-jildi maqolalari faqat O‘zbekistonga tegishli ma’lumotlardan iborat bo‘ldi.

“O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi”ning nashr etilishi mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim voqea bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, mazkur lug‘at o‘zining ilmiy jihatdan chuqur, ayni vaqtda ommabopligi bilan keng kitobxonlar orasida obro‘-e’tibor topib, jahonning nufuzli qomuslari qatoridan munosib o‘rin oldi. 32 dan ortiq fan sohalariga doir tushunchalar qatori umumbashariy ma’lumotlarni ham o‘z ichiga qamrab olgan entsiklopediya jildlarida maqolalarning hajmi ularning mazmun-mohiyati, xarakteridan kelib chiqqan holda o‘zaro farqlangan. Mamlakatlar, davlatlar, geografik ob’ektlar, sulolalar, mashhur tarixiy shaxslar kengroq yoritilgan.

Shuningdek, o‘tgan davr mobaynida quyidagi entsiklopedik lug‘atlar yaratildi: “Toshkent entsiklopediyasi” (rus va o‘zbek tillarida), “Paxtachilik entsiklopediyasi” (2 jildli, rus tilida), “Uyro‘zg‘or entsiklopediyasi”, “Salomatlik entsiklopediyasi”, “Bolalar entsiklopediyasi”, “Zahiriddin Muhammad Bobur entsiklopediyasi”, “Yosh fizik entsiklopedik lug‘ati”, “Yosh ximik entsiklopedik lug‘ati”, “Xotin-qizlar entsiklopediyasi” (3 marta nashr etildi), “Islom entsiklopediyasi”, “O‘zbekiston Respublikasi” (rus, o‘zbek va ingliz tillarida), “Neft va gaz bo‘yicha entsiklopedik izohli lug‘at”, “Yosh dehqon entsiklopedik lug‘ati” kabilar.

So‘zlarning kelib chiqishini, manba tildagi ma’nosini, tarkibiy tuzilishini, tovush yoki ma’no jihatdan o‘zgarishini ko‘rsatib beradigan o‘zbek tilining dastlabgi etimologik lug‘ati ham aynan mustaqillik yillarida yaratildi.

Ma’lumki, etimologik lug‘at yaratish tuzuvchidan til tarixidan yuqori darajada xabardor bo‘lishni, tilda sodir bo‘luvchi

qonuniyatlar, soʻz yasalihi jarayonlarini puxta egallashni taqozo etadi. Etimologik lugʻatlar tuzish masalasiga ancha oldin eʼtibor qaratilgan boʻlsa-da, biroq tom maʼnodagi etimologik lugʻatlar nisbatan keying davrlarda yaratildi. Turkiyshunoslikda etimologik lugʻatlar tuzishga qoʻl urgan olimlar sanoqli. Oʻzbek leksikografiyasi tarixida dastlabki etimologik lugʻat professor Sh.Rahmatullayev boshchiligida ToshDU (hozirgi OʻzMU) tilshunos olimlari tomonidan yaratildi. 1997-1999-yillarda “Oʻzbek tilining qisqacha etimologik lugʻati” chop etildi. Lugʻat 2000-yilda “Universitet” nashriyotida Sh.Rahmatullayev muallifligida “Oʻzbek tilining etimologik lugʻati” nomi ostida nashr qilindi. Mazkur lugʻatning birinchi jildi turkiy soʻzlar etimologiyasiga bagʻishlangan, unda 2400 dan ortiq soʻz qamrab olingan. Lugʻatning 2003-yilda eʼlon qilingan ikkinchi jildida arab soʻzlari va ular bilan hosilalar, 2009-yilda nashr etilgan uchinchi jildida esa forscha, tojikcha birliklar va ular bilan hosilalarning etimologiyasi berilgan.

Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti (hozirgi Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori instituti) xodimlari tomonidan tuzilgan, 65 000 tadan ortiq soʻz va soʻzshakllarni qamragan imlo lugʻati bundan qirq toʻrt yil oldin nashr etilgandi (Ўзбек тилининг имло луғати / Тузувчилар: С.Иброҳимов, Э.Бегматов, А.Аҳмедов. -Тошкент: Фан, 1976. 632 бет). Oʻtgan davr mobaynida bir qator kichik hajmli imlo lugʻatlari (ham krill, ham lotin yozuvlarida) tuzildi va nashr yuzini koʻrdi. Misol tariqasida Sh.Rahmatullaev va A.Hojiyevlar tomonidan tuzilgan va bir necha qayta nashr etilgan oʻzbek tilining qisqacha imlo lugʻatini koʻrsatish mumkin (Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. Oʻzbek tilining imlo lugʻati. - Toshkent: Oʻqituvchi, 1995. 288 bet).

Mazkur katta imlo lugʻati tuzilgandan beri oʻzbek tilining lugʻaviy boyligida, imloviy meʼyorlarida bir qator oʻzgarishlar koʻzga tashlandi. Tilda yangi soʻz va terminlar paydo boʻldi, imlo amaliyotida avval qabul qilingan imlo qoidalaridan chekinishlar yuz berdi, tavsiya qilingan baʼzi qoidalarning imlo amaliyoti talablariga javob berolmasligi maʼlum boʻldi. Buning ustiga, Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, oʻzbek tili lugʻaviy tizimi va lisoniy meʼyorlarida yangi davr talabi bilan ham baʼzi oʻzgarishlar yuz berdi. Bir qator soʻzlar isteʼmoldan chiqdi va arxaik soʻzlar

qatlamiga o'tdi, ba'zi so'zlarning milliy muqobillari tiklandi, o'zbek tiliga yangi davrning ijtimoiy, ilmiy, moddiy-ma'naviy, siyosiy-mafkuraviy sohalarida ro'y bergan o'zgarishlarni, tushunchalarni anglatuvchi yangi so'z va terminlar kirib keldi.

O'zbek yozuvining lotin grafikasi asosidagi alifboga o'tkazilishi va unga asoslangan "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" qabul qilinishi munosabati bilan, imlo amaliyotida kirill yozuvidagi matnlarda ham keyingi imlo qoidalariga qiyosan yozish holatlari kuzatilmoqda. Ba'zi hollarda so'zlarni so'zlashuvga xos talaffuz shakllarida yozish ham ko'zga tashlanmoqda.

Kirill alifbosiga asoslangan, 1956-yil 7-aprelda qabul qilingan "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" rasmiy jihatdan bekor qilingan emas. Shu sababli kirill yozuviga asoslangan matnlarda ushbu asosiy qoidalar talablaridan chekinish o'rinli bo'lmaydi. Mana shunga o'xshash holatlar o'zbek tilining kirill va lotin yozuviga hamda ular asosidagi imlo qoidalariga mos holdagi yangi va nisbatan mukammal imlo lug'atini tuzish ehtiyojini tug'dirdi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adbiyot institutining yetakchi olimlari E.Begmatov va A.Madvaliyevlar tomonidan yangi "O'zbek tilining imlo lug'ati" tuzildi va 85 000 tadan ortiq so'z va so'zshaklning to'g'ri imloviy shakli qayd qilindi. Ushbu lug'at o'zbek tilining hozirgacha mavjud bo'lgan imlo lug'atlaridan: a) so'zligining boyligi; b) imlosi qiyin va munozarali bo'lgan, hozirga qadar imlo lug'atlariga kiritilmay kelayotgan so'zlarni ham qamrab olinganligi; v) nashr etilgan va etilayotgan boshqa tip lug'atlar (izohli, entsiklopedik, terminologik va h.)ning ijobiy imloviy o'zgarishlarga e'tibor berilganligi; d) nihoyat, mustaqillik davrida o'zbek tiliga kirib kelgan yangi so'z va terminlarning yozilish shaklini ilmiy-imloviy baholagani bilan farqlanadi.

O'zR FA Til va adabiyot instituti ushbu lug'atni kirill va lotin yozuvlarida alohida-alohida kitob holida nashr etishni maqbul deb

hisobladi. Shu sababli dastlab uning kirill yozuvidagi varianti, keyin lotin yozuvidagi shakli nashr etildi¹³.

Yangi imlo lugʻatlari soʻzligi 1976-yili nashr etilgan “Oʻzbek tilining imlo lugʻati”, 5 jildli “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”, 12 jildli “Oʻzbekiston milliy entsiklopediyasi” soʻzliklaridan hamda maktab darsliklari, gazeta va jurnallardan toʻplangan soʻzlardan foydalanib tuzilgan.

Har qanday til leksikasidagi taraqqiyot yangi lugʻaviy birliklarning paydo boʻlishi, maʼlum lugʻaviy birliklarning eskirib isteʼmoldan chiqishi, soʻzlarning yangi maʼno(lar) kasb etishi yoki ayrim maʼnolarini yoʻqotishi kabi hodisalar bilan xarakterlanadi. Ana shunday oʻzgarishlar maʼlum darajaga yetgach, ularni nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi ishlarga ehtiyoj seziladi. Ikki jildli “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” ham oʻz davrida ana shunday ehtiyoj tufayli Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti lugʻatshunos olimlarining ulkan mehnatlari evaziga yaratildi va maʼlum vaqtga qadar oʻz vazifasini oʻtab keldi. Lekin bu lugʻat maʼlum sabablarga koʻra, xususan, lugʻatga soʻz tanlashdan tortib soʻz maʼnolarini belgilash, qayd etish, izohlash masalalarida ham bir qator kamchiliklarga egaligi, oʻtgan asrning 70-90-yillarida oʻzbek tili leksikasida roʻy bergan katta oʻzgarishlarni oʻzida aks ettirmaganligi, eng asosiysi – yangi davrga, respublikamizning mustaqillik holatiga mos, muvofiq kelmaydigan siyosiy, mafkuraviy qarashlarni maʼlum darajada ifodalaganligi tufayli hozirgi kun talablariga javob bera olmay qoldi. Chunonchi, oʻzbek tilining bebaho mulki boʻlgan, hayotda bekamu koʻst xizmat qilayotgan juda koʻp soʻzlar shoʻro davrida “diniy”, “eskirgan” kabi tamgʻalar bilan tazyiqqa uchradi, isteʼmoldan chiqarildi, ularning oʻrnini “ruschabaynalmilal soʻzlar” egalladi. Bunday munosabat ikki jildli izohli lugʻatda ham oʻz aksini topgan edi: lugʻatda *iqtisodiyot* soʻzini “eskirgan” deb *ekonomika* soʻzining asosiy soʻz sifatida berilishi, *maʼnaviyat* soʻzining umuman berilmaganligi, koʻplab soʻzlar

¹³ Ўзбек тилининг имло луғати / Тузувчилар: Э.Бегматов, А.Мадвалиев. -Тошкент: Академнашр, 2013. 520 бет; Оʻzbek tilining imlo lugʻati / Tuzuvchilar: E.Begmatov, A.Madvaliyev. -Toshkent: Akademnashr, 2013. 528 bet.

izohining sho‘ro mafkurasiga moslashtirilganligi buning yaqqol dalili.

O‘zbekistonning mustaqillikkka erishuvi bilan respublikamiz hayotining barcha sohalarida ro‘y bergan katta o‘zgarishlar, rivojlangan juda ko‘plab mamlakatlar bilan aloqalarning tobora kuchayishi juda qisqa vaqt ichida o‘zbek tili, xususan, uning leksikasi rivojiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Yuzlab diniy-tasavvufiy va falsafiy atamalarning iste’molga kirib kelishi ayni shu ijobiy ta’sir natijasi.

Zikr etilgan omillar ta’sirida o‘zbek tili lug‘at tarkibida yuz bergan jiddiy o‘zgarishlar munosabati bilan yangi davr talabiga javob bera oladigan ko‘p jildli izohli lug‘at yaratish zarurati paydo bo‘ldi. O‘zbek tilining yangi ko‘p jildli izohli lug‘atini tuzish va chop etish respublika hukumatining maxsus qarori bilan davlat dasturiga kiritildi va uni amalga oshirish O‘zRFA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining zimmasiga yuklatildi¹⁴. Institut olimlaridan A.Hojiyev, E.Begmatov, E.Umarov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, D.Xudoyberganova, Z.Mirahmedovalarning qariyb o‘n yillik jiddiy mehnati tufayli yangi 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” yaratildi va u “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyotida chop etildi¹⁵.

Besh jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” o‘zigacha yaratilgan ikki jildli izohli lug‘at materiallaridan tanqidiy foydalangan holda, o‘zbek va jahon lug‘atchiligining yangi, ijobiy yutuqlarini, O‘zbekiston mustaqilligi yillarida hayotimizdagi tub o‘zgarishlar va shu munosabat bilan o‘zbek tili leksikasida sodir bo‘lgan yangiliklarni e’tiborga olib yaratilgan yangi lug‘at. Lug‘atning yangiligi, avvalgi ikki jildlikdan farqli tomonlari shundaki, u eng avvalo, mustaqillik yillarida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va ma’naviy-madaniy hayotida ro‘y bergan yangiliklarni aks ettiruvchi lug‘aviy birliklar (so‘z-terminlar, so‘z

¹⁴ Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги қонунини амалга ошириш дастурига ўзгартишлар киритиш тўғрисида ЎзР Вазирлар Маҳкамасининг 1996 йил 10 сентябрдаги 311-сонли қарори ва унга илова қилинган Давлат дастури.

¹⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати.5 жилдли.-Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. 2006. 680 бет; 2-жилд. 2006. 672 бет; 3-жилд. 2007. 688 бет; 4-жилд. 2008. 608 бет; 5-жилд. 2008. 592 бет.

birikmalari), illiyyustrativ materiallar bilan boyitildi; sho‘ro mafkurasi bilan bog‘liq so‘zlar, terminlar, so‘z birikmalaridan xoli qilindi, “tozalandi” (zarur hollarda ular “eskirgan”, “tarixiy” belgilari bilan berildi) yoki, aksincha, avvalgi lug‘atlarda “eskirgan”, “tarixiy”, “diniy” kabi belgilar bilan berilib, ma’nosi o‘sha davr mafkurasi nuqtayi nazaridan bir tomonlama izohlangan ko‘plab so‘z-terminlar hozirgi kun talablaridan kelib chiqib qayta izohlandi. Shu bilan birga, deyarli barcha o‘zlashma so‘zlarning etimologiyasi, ya’ni ularning aslida qaysi tilga mansubligi, o‘sha tildagi yozilishi va dastlabki, asl ma’nosi ko‘rsatildi. Bunda evropa tillariga mansub so‘zlar – lotin grafikasida; arab, fors va boshqa eroniy tillarga mansub so‘zlar – arab grafikasida; rus, mo‘g‘ul, xitoy, hind va boshqa tillarga oid so‘zlar esa kirill grafikasida aks ettirildi.

So‘zlarning kelib chiqishini belgilashda o‘tgan asrning 20-30-yillaridan to XXI asr boshlarigacha nashr etilgan ikki tilli lug‘atlardan, xorijiy so‘zlar lug‘atlaridan, bir qator tillarning izohli va etimologik lug‘atlaridan, zarur hollarda esa eski o‘zbek adabiy tili bo‘yicha turli davrlarda tuzilgan lug‘atlardan foydalanildi va o‘zlashma so‘zlarga imkon qadar aniq etimologik ma’lumot berildi.

Umuman olganda, besh jildli yangi izohli lug‘at hozirgi o‘zbek adabiy tilida keng iste’molda bo‘lgan so‘z va so‘z birikmalarini, fan, texnika, san’at va madaniyat sohalariga oid terminlarni, bir necha shevalarda qo‘llanadigan so‘zlarni, ko‘plab etnografik atamalarni, ba’zi tarixiy, diniy va arxaik atamalarni o‘z ichiga oldi. Lug‘atda berilgan so‘zlarning amalda qo‘llanishi XX asr o‘zbek adabiyoti va matbuotidan olingan misollar bilan dalillangan. Qisqa muddatda bunday lug‘atning yaratilishi mustaqillik tufayli yuzaga kelgan keng imkoniyatlar natijasi, o‘zbek xalqi ma’naviyati, madaniyati sohasidagi muhim yangilik.

Izohli lug‘at haqida fikr yuritar ekanmiz, taniqli olim Nizomiddin Mahmudovning “So‘z sandiqchasi” deb nomlangan izohli lug‘atchasiga (-Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2016) ham to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu o‘zbek tilshunosligida bolalar uchun yaratilgan ilk original izohli lug‘at.

Ma’lumki, izohli lug‘at tuzish, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar uchun lug‘at yaratish o‘ta murakkab jarayon. Bu shunchaki katta lug‘atlardan so‘z tanlab olib, alifbo tartibiga solishdan iborat emas.

Bunda bolaning tabiati, u ishlatishi mumkin bo'lgan so'z va iboralardan yaxshi xabardor bo'lmoq kerak. Muallif boshlang'ich maktab o'quvchilariga izohli lug'atcha yaratishda ana shu talablarga qat'iy rioya qilgan va lug'atga bolalarbop 700 taga yaqin so'z va iborani tanlab olib, ularni bolalar uchun tushunarli tarzda izohlagan. Lug'atchadagi so'z va iboralarning izohlarini katta izohli lug'atdagi ayni so'z va iboralar izohi bilan solishtirish muallifning so'zlarni izohlash masalasida naqadar katta ishni amalga oshirganini ko'rsatadi. Lug'atchadagi so'zlar izohiga daliliy (illyustrativ) misollar keltirishda ham o'ziga xos yo'l tutib, misollarni faqat o'zbek bolalar adabiyotidan, maqol, matal, ertak, topishmoq kabi folklor janrlaridan, bolalar uchun nashr etiladigan gazeta va jurnallardan saralab olgan. Daliliy misollarning barchasi tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Muallif ko'p ma'noli so'zlar va iboralarni berishga ham o'ta mas'uliyat bilan yondashgan. Masalan, katta izohli lug'atda muayyan so'zning 5-6 ta, hatto undan ham ortiq ma'nosi berilgan bo'lsa-da, u shu so'zning ayni yoshdagi bolalar uchun kerak bo'ladigan 2 ta yoki 3 ta ma'nosinigina bolalarbop izohlagan. Izohlanayotgan so'zni iboralar bilan ta'minlashda ham ayni shu yo'ldan borib, kichik yoshdagi bolalar hazm qila oladigan iboralardan foydalangan. Lug'atchaning yana bir ijobiy tomoni shundaki, muallif ko'plab so'zlar izohidan so'ng *ziddi* belgisi ostida shu so'zning antonimlarini, *ma'nodoshi* belgisi ostida uning sinonimlarini qora harflar bilan ajratib ko'rsatadi. Bu narsa, birinchidan, o'quvchini muayyan so'z haqida atroflicha fikrlashga o'rgatadi; ikkinchidan, undagi so'z boyligini yanada orttirishga xizmat qiladi.

Xullas, ushbu lug'atcha o'zbek lug'atchiligidagi ilk tajriba, u bolalar nutqini o'stirishda, lug'at boyligini orttirishda, eng asosiysi, ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Institut olimlari tomonidan yaratilgan izohli lug'atlardan yana ikkitasi haqida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bularning birinchisi taniqli nomshinos E.A.Begmatovning "O'zbek ismlari. 14600 ismlar izohi" (-Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. 608 бет; 2-нашр. 2007) nomli kitobi, u muallif tomonidan uzoq yillar to'plangan va sinchiklab o'rganilgan

14 600 ga yaqin o'zbek ismlarini o'z ichiga oladi (Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, ko'rsatilgan miqdor bir qadar nisbiydir, chunki ismlarning muayyan qismi juz'iy fonetik o'zgarishlar yoki qisqargan shakllar bilan bir necha variantda berilavergan; shuningdek, bir guruh ismlar og'zaki talaffuz, og'zaki ma'lumotlar, "xalq etimologiyasi" asosida lug'atga kiritilganki, hozirgi kunda o'zbeklar orasida bunday ismlar borligiga ishonish qiyin).

Muallifning fikricha, kitobning asosiy maqsadi o'zbek ismlarining butun boyligini bir joyga to'plab, ma'nosini izohlab berish orqali kelajak avlodga bu borada katta bir ma'naviy meros qoldirish. Bu bilan har bir o'zbek shaxsi o'z ismining ma'nosini anglab olibgina qolmay, ota-onalarga yangi tug'ilgan farzandlari uchun o'zlariga ma'qul bo'lgan ismlarni tanlashga ham yordam beradi. Lug'atning afzal tomomlaridan yana biri shuki, unda o'zbek-kirill alifbosi tartibida keltirilgan barcha ismlar parallel ravishda o'zbek lotin yozuvida ham berilgan. Bu esa o'zbek ismlarini har ikki yozuvda imloviy jihatdan to'g'ri yozishda har bir kishiga, qolaversa, rasmiy idoralarga ko'maklashuvchi qo'llanma vazifasini ham o'taydi.

Kitob so'ngida berilgan "Ismlar tarkibida doimo takrorlanib keluvchi ba'zi so'zlar va ularning ma'nosi", "O'zbek ismlari etnografiyasi", "Ism va familiya tanlashning ayrim muammolari" deb nomlangan ilovalarda o'zbek ismlari, ularning kelib chiqish tarixi, ismlarning ma'no guruhlari, ism qo'yish asoslari va tamoyillari haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu kitob asosida keyinchalik qisqacha o'quv-izohli lug'at (Begmatov E., Kenjayeva S. O'zbek ismlari imlosi (o'quv-izohli lug'at) -Toshkent: Fan, 2007) ham yaratilgan.

To'xtalmoqchi bo'lganimiz ikkinchi izohli lug'at taniqli lug'atshunos Berdaq Yusufning "Mumtoz adabiy asarlar lug'ati". P.Shamsiev va S.Ibrohimovlarning "O'zbek mumtoz adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at"(1953), "Navoiy asarlari lug'ati" (1972) kitoblari, E.Fozilov rahbarligida tuzilgan to'rt jildli "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati" (1983-1985) allaqachon nodir nashrlar qatoriga o'tib, kitob do'konlaridan topilmaydigan bir davrda, mumtoz adabiyotni o'rganishga qiziqish va yuqoridagidek lug'atlarga ehtiyoj nihoyatda kuchaygan bir paytda "Mumtoz adabiy

asarlar lug‘ati”ning nashr etilishi ayni muddao bo‘lgan edi. Lug‘at asosan maktab o‘quvchilariga, kollej talabalariga mo‘ljallangan, u o‘quvchi va talabalar uchun ayni shu yo‘nalishda o‘zbek lotin yozuvida yaratilgan dastlabgi lug‘at. Unda o‘rta maktablarning 5-9-sinflarida o‘rganiladigan, ming yildan ortiqroq davr mobaynida yaratilgan o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarida uchrovchi va o‘quvchilar uchun tushunilishi qiyin bo‘lgan 4700 taga yaqin arabcha, forsha, turkiycha so‘zlar va ba’zi so‘z birikmalari jamlangan va izohlangan. Lug‘at maqolalari asosan alohida so‘zlardan tashkil topgan. Biroq matnni to‘liq tushunishni osonlashtirish maqsadida ba’zan qo‘shma so‘zlar, so‘z birikmalari va iboralar ham lug‘at maqolasi sifatida shakllantirilgan.

Lug‘at o‘rta maktablarda mumtoz adabiyot bo‘yicha o‘quvchilar so‘z boyligini hamda ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Savol va topshiriqlar

1. Mustaqillikgacha yaratilgan “O‘zbek sovet entsiklopediyasi” bilan 2000-2006-yillarda yaratilgan “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi”ni qiyoslang, ulardagi leksikografik tamoyillar va lug‘at maqolalarini o‘zaro solishtiring.

2. Ikki jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” bilan yangi nashr etilgan besh jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ni qiyoslang, ulardagi leksikografik tamoyillar va lug‘at yaratish tamoyillarini solishtiring.

3. O‘zbek leksikografiyasi tarixida tilshunos Sh.Rahmatullayev tomonidan ilk marotaba yaratilgan “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”ning tuzilish tamoyillarini izohlang, etimologik lug‘atlarga xos xususiyatlarni ko‘rsating.

4. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da berilgan turkiycha so‘zlarning kelib chiqishi, manba tildagi ma’nosi, tarkibiy tuzilishi, tovush yoki ma’no jihatdan o‘zgarishi ko‘rsatib berilgan o‘rinlarni “Devonu lug‘atit turk” asari bilan solishtiring.

5. 1976-yilda nashr etilgan “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” bilan 2013-yilda nashr etilgan “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”ni solishtiring, mustaqillik yillarida yangi nashr etilgan lug‘atda amalga oshirilgan ilmiy-tahririy ishlarga tavsif bering.

6. Entsiklopedik lug‘atlar bilan lingvistik lug‘atlarning asosiy leksikografik farqlari nimada?

Test

1. 2006-2008-yillarda yaratilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da o‘zlashma so‘zlar qanday tartibda berilgan?

A. * Evropa tillariga mansub so‘zlar – lotin grafikasida; arab, fors va boshqa eroniy tillarga mansub so‘zlar – arab grafikasida; rus, mo‘g‘ul, xitoy, hind tillariga oid so‘zlar esa kirill grafikasida aks ettirilgan;

B. Barcha o‘zlashma so‘zlar kirill grafikasida aks ettirilgan;

C. Barcha o‘zlashma so‘zlar lotin grafikasida aks ettirilgan;

D. O‘zlashma so‘zlar lug‘atga kiritilmagan.

2. Professor N.Mahmudov tomonidan yaratilgan “So‘z sandiqchasi” lug‘ati qanday lug‘atlar sirasiga kiradi?

A. *Izohli lug‘at;

B. Imlo lug‘ati;

C. Ikki tilli tarjima lug‘at;

D. Ko‘p tilli tarjima lug‘at.

3. Taniqli nomshinos E.A.Begmatovning “O‘zbek ismlari. 14600 ismlar izohi” nomli kitobi qanday lug‘atlar sirasiga kiradi?

A. *Izohli lug‘at;

B. Bu asar lug‘at emas, balki o‘zbek ismlari etnografiyasiga bag‘ishlangan monografik tadqiqotdir;

C. Bu asar lug‘at emas, balki ism va familiya tanlashning ayrim muammolariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotdir;

D. Asarda o‘zbek ismlarining imlosi yoritiganligi uchun Imlo lug‘ati sirasiga kiritish mumkin.

4. Yangidan yaratilgan “O‘zbek milliy entsiklopediyasi”da qanday maqsadlar asosiy mezon sifatida belgilangan?

A. *Entsiklopediyani milliy istiqlol g‘oyalari asosida tuzish, sobiq sho‘rolar davrida nohaq kamsitilgan ajdodlar hayoti va faoliyatini haqqoniy yoritish, totolitar tuzum siyosati va mafkurasini ifodalovchi tushunchalardan voz kechish;

B. Entsiklopediyani milliy istiqlol g‘oyalari asosida tuzish, lug‘at maqolalarini ham shaklan, ham mazmunan boyitish;

C. Entsiklopediyani milliy istiqlool g'oyalari asosida tuzish, lug'at maqolalari va illyustrativ materiallarini mavzuga oid suratlar va xaritalar bilan to'ldirish;

Д. Barcha javoblar to'g'ri.

5. Sh.Rahmatullayev muallifligida yaratilgan "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da izohlangan turkiycha so'zlarning umumiy miqdori qancha?

A. *2400 dan ortiq;

B. 3000 dan ortiq;

C. 1500 ga yaqin;

D. 4000 ga yaqin.

6. Quyidagi tuzilish sxema qaysi lug'atga xos: bosh so'z; bosh so'zning etimologiyasi haqidagi ma'lumot; etimologik ma'lumotdan keying bosh so'zga beriladigan grammatik tavsif, uslubiy va havola etuvchi qaydlar; izohlanuvchi birliklar ma'nosini belgilash va qayd etish; lug'at maqolasining eng asosiy izohlanuvchi birliklar ma'nosiga beriladigan izoh; lug'at maqolasining so'nggi komponenti izohidan keyin beriladigan illyustrativ misollar.

A. *2006-2008-yillarda yaratilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga;

Б. 2000-2006-yillarda yaratilgan "O'zbek milliy entsiklopediyasi"ga;

C. 2013-yilda yaratilgan "O'zbek tilining imlo lug'ati"ga;

Д. Barcha javoblar to'g'ri.

Adabiyotlar

1. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.

2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдли. – Тошкент: ЎзМЭ нашриёти, 2000-2006.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд, 2006; 2-жилд, 2006; 3-жилд, 2007; 4-жилд, 2008; 5-жилд, 2008.

4. Ўзбек тилининг имло луғати / Тузувчилар: Э.Бегматов, А.Мадвалиев. –Тошкент: Академнашр, 2013; O'zbek tilining imlo

lug‘ati / Tuzuvchilar: E.Begmatov, A.Madvaliyev. – Toshkent: Akademnashr, 2013. 528 bet.

5. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ нашриёти, 2002. 168 бет;

6. Мадвалиев А. Ўзбек лексикографияси тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2008. -№6.

7. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. 14600 исмлар изоҳи. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. (2-нашр, 2007).

8. Mahmudov N. So‘z sandiqchasi. O‘zbek tilining izohli lug‘atchasi (boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun). – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2016.

9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 3 жилдли – Тошкент: Университет, 2000-2009.

ELEKTRON LUG‘ATLAR VA ULARNI YARATISH ASOSLARI. INTERNET LUG‘ATLARI

Reja

1. O‘zbek leksikografiyasida kompyuter va lug‘atshunoslik o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlashuv masalasi.

2. Bir tilli va ko‘p tilli elektron tarjima lug‘atlarining yaratilishi.

3. Malliflik leksikografiyasi va mulliflik korpusi munosabati.

Tayanch so‘z va iboralar: *kompyuter tarjimasi, internet lug‘ati, mualliflik leksikografiyasi, konkordans, qidiruv funksiyasi, analitik funksiya, indeksatsiya funksiyasi, qiyoslash funksiyasi, evristik funksiya, mualliflik idiositili.*

Keyingi yillardagi axborot-kommunikatsion texnologiyalarning jadal rivoji tilshunoslik, xususan, leksikografiya sohasida ham yangi tipdagi lug‘atlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratmoqda. Kompyuter tarjimasi, tahriri, tahlili, elektron lug‘atlar va tezaurus (til xazinasilarning yaratilishi fikrimizning dalili. Ayniqsa, zamonaviy elektron lug‘atlar tuzish va undan foydalanish

madaniyatini shakllantirish til imkoniyatini egallashda samarador ekanligini asoslashga hojat yo‘q.

Elektron lug‘at – so‘zlar, iboralar tarjimalarini lug‘atlardan qulay va oson izlash imkonini beruvchi, qidiruv dasturi asosida ishlovchi lug‘at. Bunday lug‘atlar on-line yoki off-line ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Hozirgi paytda chet tillarni o‘rganish jarayonida yangicha yondashuv sifatida elektron lug‘atlardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda qo‘l kelmoqda. Shu sababdan ham o‘zbek, rus va ingliz tillari bo‘yicha umumiy elektron lug‘atlar dasturini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri. Elektron lug‘atlar an’anaviy lug‘atlarga qaraganda bir qator afzalliklarga ega. Zamonaviy elektron lug‘atlar nafaqat o‘zining so‘z boyligi bo‘yicha, balki lug‘atdagi mavjud so‘zlarni tezda qidirib topish imkoniyatining mavjudligi bilan ham ajralib turadi.

Kompyuter va lug‘atshunoslik o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlashuv o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlangan. Bu yillarda Brown korpusi, 1978-yilda avtomatik tekshiruvchi hamda tilni qayta ishlash uchun maxsus kodlangan zamonaviy ingliz tilining Longman lug‘ati (Longman Dictionary of Contemporary English) yaratildi. Ma’lumotlar qidirish, avtomatik referatlash va mashina tarjimasiga mo‘ljallangan avtomatik lug‘atlar foydalanuvchi uchun lug‘atdagi maqolalarning strukturasi va interfeysiga ko‘ra alohida ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Elektron lug‘atlardan foydalanish dasturiy ta’minot sifatida (offline dictionary) hamda Internet tizimida (online dictionary) avtomatik qidiruv tarzida foydalaniladi, ularning har biri foydalanuvchining kuchini tejaydi.

An’anaviy lug‘atda u yoki bu so‘zlarning tuzilish kompozitsiyasi aks etgan izohlar qay holatda berilishi qamrab olinsa, elektron (avtomatik, kompyuter) holatdagi lug‘atni yaratish tamoyillariga ko‘ra foydalanuvchilar uchun maxsus kompyuter formatida yoki muayyan tarkibiy qism dasturi sifatida yaratish masalalari nazarda tutadi (masalan, mashina tarjimasiga).

Shuningdek, hozirgi kunda elektron ko‘rinishdagi chastotali lug‘atlar ham yaratilmoqdaki, ulardan biror matnning so‘zlari sonini hisoblashda hamda kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlarni olib borishda foydalanilmoqda. Bundan tashqari, internet hamda elektron

lugʻatlar ham foydalanuvchilarga qulaylik yaratishi bilan muhim. Internet lugʻatlariga ziyonet, google translator hamda bir tildan ikkinchi bir tilga online rejimida ishlaydigan dasturlar kiradi. Elektron lugʻatlarning turi va soni koʻp, ular bir tilli, ikki tilli hamda koʻp tilli lugʻatlarni tashkil etadi.

Ana shunday lugʻatlardan biri Toshkent axborot texnologiyalari universitetida M.Ravilov, Sh.Togʻayev, Sh.Baxshullayevlar hammullifligada “e-lugʻat” nomi bilan yaratildi. Mazkur lugʻat 3 tilda: oʻzbek, rus va ingliz tillarida ishlaydi. Ushbu dastur asosida 6 ta yoʻnalish: oʻzbek-ingliz, ingliz-oʻzbek, oʻzbek-rus, rus-oʻzbek, ingliz-rus, rus-ingliz boʻyicha soʻzlarni tarjima qilish imkoniyati mavjud.¹⁶ Elektron lugʻatning bazasi 145 000 dan ortiq soʻz va atamadan tashkil topgan. Barcha soʻzlarning tarjimasi misollar orqali koʻrsatilgan. Mazkur lugʻatning shaxsiy kompyuterlar uchun Windows tizimida ishlovchi hamda mobil qurilmalar uchun Android va iOS muhitlarida ishlovchi dasturlari yaratilgan. Dasturning iOS muhitida ishlovchi versiyasi <https://itunes.apple.com/app/id894894288> internet manziliga joylashtirilgan. Hozirda dastur iOS tizimiga ega boʻlgan qurilmalar uchun mobil dasturlar joylashtirilgan AppStore tizimida yuqori koʻrsatkichlarni egallab turibdi.

Dasturning IOS va Android muhitlar uchun tuzilgan versiyalarida dastur qurilmada yengil ishlash uchun bir necha ishlar amalga oshirilgan, yaʼni dasturning bazasi toʻliq faol holatda (operativ xotiraga) yuklanmaydi. Dastur qurilmada tez ishlashi, soʻzlarni qidirishda qiyinchilik tugʻdirmasligini hisobga olib, faqatgina faol holatda “A” harfidan boshlangan soʻzlarni koʻrishi mumkin. Keyingi soʻzlarni koʻrish uchun soʻzning bosh harfini bosish kerak boʻladi. Bu bilan dasturning tez va faol ishlashi taʼminlangan.

Lugʻatning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

1) lugʻat bazasining barcha boʻlimlarida ingliz tilidagi soʻzlarning oʻqilishi yozilgan. Foydalanuvchilarga dastur boʻyicha qoʻllanma ham ishlab chiqilgan. Mazkur dasturlar testdan oʻtkazilib, ular normal ishlashi uchun talablar shakllantirilgan;

¹⁶ <http://uz.infocom.uz/2014/11/04/e-lugat-dasturining-imkoniyatlari>

2) dastur orqali Windows muhitida tarjima qilingan misollardagi notanish soʻzlarning teskari tarjimasini va uning qoʻllanilishi haqidagi maʼlumotlarni ham olish mumkin. Buning uchun tarjima oynasidagi notanish soʻz belgilansa, soʻzning tarjimasini oynaning pastki qismida paydo boʻladi;

3) dasturning keyingi imkoniyatlaridan yana biri bu - foydalanuvchining doimiy ravishda, soʻz boyligini oshirib borish imkoniyatini yaratuvchi qismi. Bu qism dastur ishga tushirilganda Windows operatsion tizimi masalalar panelining oʻng tomonida kichik axborot oynasi koʻrinishida ishlaydi va bu oynada maʼlum bir vaqt intervalida soʻzlarni ketma-ket koʻrsatib turadi;

4) dasturning afzalliklaridan yana biri, mobil qurilmalar uchun iOS va Android versiyalari mobil qurilmada ishlashida qiyinchilik tugʻdirmaydi. Dasturning bazasi optimallashtirilgan, har bir qidirilgan soʻz bir necha misollarda namoyon etiladi. Yaratilgan dasturdan oʻrta maxsus va kasb-hunar taʼlimi tizimida, oliy taʼlimda chet tili fanini oʻqitishda yordamchi material sifatida foydalanish mumkin. Bundan tashqari, chet tilini mustaqil oʻrganuvchilarga ham tavsiya etiladi.

Tarjimaga asoslangan bunday elektron lugʻatlar sirasiga shu vaqtgacha yaratilgan quyidagi lugʻatlarni kiritish mumkin¹⁷:

- Ruscha-oʻzbekcha lugʻat ($\approx 108\,000$ soʻz va iboralar);
- Oʻzbekcha-ruscha lugʻat ($\approx 82\,000$ soʻz va iboralar);
- Ruscha-qozoqcha lugʻat ($\approx 85\,000$ soʻz va iboralar);
- Qozoqcha-ruscha lugʻat ($\approx 59\,000$ soʻz va iboralar);
- Ruscha-qirgʻizcha lugʻat ($\approx 49\,000$ soʻz va iboralar);
- Qirgʻizcha-ruscha lugʻat ($\approx 34\,000$ soʻz va iboralar);
- Ruscha-turkmancha lugʻat ($\approx 90\,000$ soʻz va iboralar);
- Turkmancha-ruscha lugʻat ($\approx 93\,000$ soʻz va iboralar);
- Ruscha-tojikcha lugʻat (≈ 9000 soʻz va iboralar);
- Tojikcha-ruscha lugʻat ($\approx 42\,000$ soʻz va iboralar);
- Inglizcha-oʻzbekcha lugʻat ($\approx 17\,000$ soʻz va iboralar);
- Oʻzbekcha-inglizcha lugʻat ($\approx 27\,000$ soʻz va iboralar);
- Inglizcha-qozoqcha lugʻat ($\approx 85\,000$ soʻz va iboralar);
- Qozoqcha-inglizcha lugʻat ($\approx 59\,000$ soʻz va iboralar).

¹⁷ <https://www.translatos.com/uz/ru-uz/>

Bugungi jahon leksikografiyasida “mualliflik leksikografiyasi” degan alohida bir yo‘nalish ham vujudga kelganki, bu ham elektron lugatchilik bilan bevosita aloqador. Bu lug‘atchilik muallif tili lug‘atini tuzishning nazariy asoslari, mualliflik idiosstilini o‘rganish tajribasi, mualliflik elektron lug‘ati tuzishning o‘ziga xos jihati, undan foydalanish tajribasi, yangi turdagi lug‘atlar tuzish g‘oyalari hamda mualliflik leksikografiyasi asosida zamonaviy adabiy tildagi o‘zgarishlarni qiyosiy tadqiq etish kabi muammolar bilan shug‘ullanadi¹⁸.

Mualliflik leksikografiyasi – jahon, xususan, rus leksikografiyasida shiddat bilan rivojlanayotgan soha. Uning taraqqiyot natijasi o‘laroq ko‘plab mualliflik elektron lug‘at va til korpuslari yaratildi. M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida “Krilov masallari tili lug‘ati”, “Griboydov komediyalari tili lug‘ati”, “Gogolning “Revizor” komediyasi tili lug‘ati”, “Fonvizin komediyalari tili” kabi lug‘atlar yaratilib, bunday ishlarga namuna sifatida “A.S.Pushkin asarlari tili lug‘ati” (“Словарь языка Пушкина” в четырех томах, создан в Институте русского языка АН СССР под ред. акад. В.В.Виноградова издан в 1956–1961 гг.) namuna sifatida xizmat qildi. Bu tajriba rus leksikografiyasida ommalashdi va “A.N.Ostrovskiy asarlari tili lug‘ati” (Хуснутдинов А. “Словарь языка А.Н.Островского” как один из вариантов авторского словаря”. Ивановский государственный университет), “M.V.Lomonosov asarlari tili lug‘ati” (Волков С., Матвеев Е.М. “О проекте словаря “Риторика М.В.Ломоносова” Электрон ресурс: www.ruslang.ru/seminar_aut_lexocorg250214), “M.Kuzmin she’rlari konkordansi” (Гик А.В. “О работе “Конкордансом к стихотворениям М.Кузмина” том четвертый” (Электрон ресурс: www.ruslang.ru/seminar_aut_lexocorg) kabilar shular jumlasidan. Bu sohadagi ishlar ichida O.V.Kukushkina, A.A.Polikarpov, Y.V.Surovtsevalar tomonidan yaratilgan “A.P.Chexov badiiy asarlari tili lug‘ati” (Кукушкина О.В., Поликарпов А.А., Суровцева Е.В. “Частотный грамматико-семантический словарь

¹⁸ Қаранг: www.ruslang.ru/seminar_aut_lexocorg020413 сайтидаги “Теория и практика авторской лексикографии” семинар материаллари.

языка художественных произведений А.П.Чехова (с электронным приложением) как особый лексикографический продукт”. Электрон ресурс: www.ruslang.ru/seminar_aut_lexicorg) diqqatga sazovor.

Mualliflik leksikografiyasi mahsuli, odatda, ikki qism: asos hamda mahsulotdan iborat bo‘ladi. Asos – korpus yoki konkordans, mahsulot esa – lug‘at. Keyingi paytlarda leksikografiyada konkordans tushunchasi keng ommalahsdi. *Konkordans* tushunchasi korpus lingvistikasida u yoki bu til ifoda vositasining kontekstda barcha qo‘llanish holati manbasiga havola qiluvchi ro‘yxat ma’nosida qo‘llanadi. Bu atama, shuningdek, biror kitob yoki asar kalit so‘zlarining kontekstga havola qiluvchi alifbo tartibidagi ro‘yxati ma’nosini ham ifodalaydi. Bundan tashqari, konkordans amaliy tilshunoslikda tarjima jarayonida, leksikografiyada, tilni o‘qitish, o‘rganish hamda matn tahlilida ham qo‘llanadi. Konkordans so‘zlar ro‘yxatini tuzish, bir so‘zning turlicha ishlatilishini qiyoslash, ibora hamda idiomalarni qidirish, tadqiq etish, kalit so‘zlarni tahlil qilish, turli so‘z, birikmalar tarjimasini izlash yoki chastotasini aniqlash kabi lingvistik amallarni bajarishda ham qo‘llanadi. Konkordans lug‘at har bir so‘zga qisqacha kontekst keltiriladigan alohida lug‘at tipi ham. Matnni o‘rganishda konkordansning qidiruv, analitik funksiyalaridan foydalanish, indeksatsiya, qiyoslash kabi imkoniyatlarini ishga solishi mumkin. Qidiruv funksiyasi berilgan so‘z yoki birikmadan foydalangan holda matndagi kerakli lavhani zudlik bilan topish imkoni mavjud. A.Stolyarovning fikricha, konkordansning ushbu funksiyasidan sitata tanlab olish yoki ularni tekshirishda, matnning originalligini o‘rganishda ham foydalanish mumkin. Odatda, konkordans xrestomatiya tuzuvchilar tomonidan ko‘proq ishlatiladi: u matnda ibora, idiomalarni qidirish, atamalarni tarjima qilishda muhim. Konkordansning evristik funksiyasi tilshunos yoki oddiy kitobxonga matnning yangi talqini, sharhini ko‘rsatish; analitik funksiyasi tilning turli birliklari: leksema, kalit so‘z, ularning matnda qo‘llanish chastotasi ustida tahlil olib borish; indeksatsiya funksiyasi matnni nashrga tayyorlashda so‘zning ro‘yxati, indeksini tuzish; qiyoslash funksiyasi matn ichidagi barcha konnotatsiyalar, so‘z qo‘llash holatini taqqoslash imkonini beradi. F.M.Dostoyevskiy, F.I.Tyutchev, A.P.Chexov, A.S.Griboydov,

S.A.Yesinin, S.T.Aksakov, M.V.Lomonosov asarlari konkordansi¹⁹ shunday ishlar jumlasiga kiradi.

O‘zbek tilida esa bu kabi “Abdulla qahhor asarlari tilining lug‘ati. Alifboli lug‘at” (Karimov S., Qarshiyev A., Isroilova G. – Toshkent: ЎзМЭ, 2007), “Abdulla Qahhor asarlari tilining lug‘ati. Ters lug‘at” (Karimov S., Qarshiyev A., Isroilova G. – Toshkent: ЎзМЭ, 2007), “Abdulla Qahhor asarlari tilining lug‘ati. Chastotali lug‘at” (Karimov S., Qarshiyev A., Isroilova G. – Ttoshkent: ЎзМЭ, 2007) lug‘atlar yaratilgan.

Aytish mumkinki, konkordans an‘anaviy leksikografiyaga nisbatan katta hajmli ma‘lumotlar bazasini o‘zida saqlash imkoniyatiga ega. Konkordans birligi matndagi paradigmatic munosabatni kuzatish, ijodkor merosining turli parchalarida so‘z qo‘llanish holatini miqdoriy tahlil qilish, unga xos sintaktik qurilmalar haqida xulosalar chiqarish kabi vazifalarni bajara oladi. Lug‘at-konkordans – lingvistik, adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar bajarishda zamonaviy, samarali vosita, u korpus lingvistikasining muhim ahamiyatli qismi.

¹⁹ “Частотный словарь-конкорданс публицистики Ф.М.Достоевского”. (Данный словарь создан на основе полного собрания сочинений писателя в 30-ти томах, включая Дневник писателя.); “Частотный словарь-конкорданс словоформ языка Ф.И.Тютчева”. (Создан по изданию: Тютчев Ф.И. Полное собрание стихотворений / Сост., подгот. текста и примеч. А.А.Николаева. –Л.: Сов. писатель, 1987); “Метапоэтический словарь-конкорданс драматического текста А.П.Чехова”. (В словаре представлено исследование А.П.Чеховым собственного драматического творчества.); “Алфавитно-частотный конкорданс текстов Грибоедова”. (Словарь содержит все слова, встретившиеся во всех опубликованных текстах Грибоедова, взятых из наиболее авторитетных источников.); “Конкорданс к стихам А.С.Пушкина”. (Расширенный словарь языка писателя, в котором на каждое слово и словоформу Пушкина приводится полный текст всех стихотворных произведений.); “Частотно-семантический конкорданс служебных слов в поэзии Сергея Есенина”. (Словарь представляет собой первое полное лексикографическое описание служебных слов в лирике великого русского поэта С.А.Есенина.); “Конкорданс произведений С.Т.Аксакова”. (Может быть применим при реконструкции художественного мира С.Т.Аксакова, тематического своеобразия, мотивно-образной системы прозаических произведений писателя.); “Конкорданс к текстам Ломоносова”. (Является частью проекта по созданию электронного научного издания “Ломоносов”).

Savol va topshiriqlar

1. Kompyuter tarjiması, tahriri, tahlili tushunchalariga izoh bering.
2. Elektron lug‘atlar va tezaurus (til xazinası) tushunchalarini tavsiflang.
3. Elektron lug‘atlarning so‘zshunoslik, ya’ni leksikografiyadagi ahamiyatini yoriting.
4. Malliflik leksikografiyasi va mulliflik korpusi munosabatiga tavsif bering.
5. Elektron lug‘atlarning ta’lim, til o‘rganish va o‘rgatish ishlaridagi ahamiyatini yoriting.
6. O‘zbek tilshunosligida mualliflik korpusi yoki konkordans yaratish ishlariga qanday baho berasiz?

Test

1. Elektron lug‘at ...

- A. *So‘zlar, iboralar tarjimalarini lug‘atlardan qulay va oson izlash imkonini beruvchi, qidiruv dasturi asosida ishlovchi lug‘at.
- B. Til birliklarining xususiyatlarini aniqlash maqsadida qidiruv dasturiga bo‘ysundirilgan matnlar majmui;
- C. Muayyan tildagi lug‘atlarning umumiy majmui;
- D. Muayyan tilning barcha uslublariga xos bo‘lgan so‘z boyligi majmui.

2. Toshkent axborot texnologiyalari universitetida yaratilgan “e-lug‘at” qaysi tillarda ish yuritadi?

- A. * 3 tilda: o‘zbek, rus va ingliz tillarida;
- B. 2 tilda: o‘zbek va rus tillarida;
- C. 2 tilda: o‘zbek va ingliz tillarida;
- D. 4 tilda: o‘zbek, rus, frantsuz va ingliz tillarida.

3. Konkordans tushunchasining to‘g‘ri izohini ko‘rsating.

- A. *Korpus lingvistikasida u yoki bu til ifoda vositasining kontekstda barcha qo‘llanish holati manbasiga havola qiluvchi ro‘yxat;
- B. Biror kitob yoki asar kalit so‘zlarining kontekstga havola qiluvchi alifbo tartibidagi ro‘yxati;
- C. Konkordans - har bir so‘zga qisqacha kontekst keltiriladigan alohida lug‘at tipi;
- D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

4. Konkordansning evristik funksiyasi ...

A. *Tilshunos yoki oddiy kitobxonga matnning yangi talqini, sharhini ko'rsatish;

B. Tilning turli birliklari: leksema, kalit so'z, ularning matnda qo'llanish chastotasi ustida tahlil olib borish;

C. Matnni nashrga tayyorlashda so'zning ro'yxati, indeksini tuzish;

D. Matn ichidagi barcha konnotatsiyalar, so'z qo'llash holatini taqqoslashsh.

5. Konkordansning indeksatsiya funksiyasi ...

A. *Matnni nashrga tayyorlashda so'zning ro'yxati, indeksini tuzish;

B. Matn ichidagi barcha konnotatsiyalar, so'z qo'llash holatini taqqoslashsh;

C. Tilning turli birliklari: leksema, kalit so'z, ularning matnda qo'llanish

chastotasi ustida tahlil olib borish;

D. Barcha javoblar to'g'ri.

6. Matnning originalligini tekshirishda konkordansning qaysi funksiyasidan foydalanish mumkin?

A. *Qidiruv funksiyasidan;

B. Evristik funksiyasidan;

C. Indeksatsiya funksiyasidan;

D. Qiyoslash funksiyasidan.

Adabiyotlar

1. Столяров А.И. Словарь-конкорданс и его применение в рамках корпусной лингвистики // Гуманитарные научные исследования. – 2017. №2 [Электронный ресурс]. URL: <http://human.snauka.ru/2017/02/21074>.

2. Идеографический словарь русского языка. (Сост. О.С.Баранов.) – М., 1995.

3. Частотный словарь-конкорданс словоформ языка Ф.И.Тютчева. – Л.: Сов. писатель, 1987.

4. Каримов С., Қаршиев А., Исроилова Г. Абдулла Қахҳор асарлари тилининг луғати. Алфавитли луғат. – Toshkent: ЎзМЭ, 2007.

5. <https://www.translatos.com/uz/ru-uz/>

TIL KORPUSI. MILLIY VA GLOBAL KORPUSLAR

Reja

1. Til korpusi tushunchasi. Til korpusining an'anaviy va elektron lug'atlardan farqi.
2. Til korpuslarining yaratilish maqsadi va korpus turlari.
3. Jahon tilshunosligida milliy va global korpuslarni yaratish ustidagi izlanishlar.

Tayanch so'z va iboralar: *til korpusi, milliy korpus, global korpus, korpus birliklari, korpus interfeysi, qidiruv tizimi, matnlar bazasi, matn muharriri, parallellik, amaliy filologiya, kompyuter lingvistlari, korpus lingvistikasi.*

Zamonaviy axborot texnologiyalari tildan foydalanish borasida ulkan imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bugungi kunda tilning imkoniyatlarini namoyon qilish va egallash borasida dunyo miqyosida tez sur'atlarda yaratilayotgan til korpuslarining o'rnini beqiyos.

Leksikografiyaning bunday zamonaviy yo'nalishi haqida fikrlarga o'tishdan oldin, dastlab "til korpusi" tushunchasini aniqlashtirish, uni oddiy lug'atlardan, elektron kutubxonalardan farqli tomonlarini ko'rsatish lozim bo'ladi. Korpus nima? Korpus – til birliklarining xususiyatlarini aniqlash maqsadida qidiruv dasturiga bo'ysundirilgan matnlar majmui, tabiiy tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og'zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga dasturiy ta'minot asosida joylashtirilgan on-line yoki off-line tizimda ishlaydigan matnlar jamlanmasi. Til korpuslari – til bo'yicha tadqiqot va amaliy topshiriqlar yechimi uchun inkor etib bo'lmas ish quroli. Ma'lum bir tilga oid matnlarni jamlagan til korpuslari o'n milliondan tortib, yuz milliongacha, hatto milliardlab so'z qo'llanishlarini o'z ichiga oladi. Tilning mukammal korpuslarida til paydo bo'lganidan boshlab bugungi kungacha yaratilgan barcha yozma, og'zaki (audio, video) matnlar joylashtiriladi. Muayyan til bo'yicha yaratilgan barcha lug'atlar jamlangan holda ham tilning mukammal tuzilgan korpuslariga mutlaqo tenglasha olmaydi. Chunki u tinimsiz yangilanib borish

imkoniyatiga egaligi, keng qamrovligi va foydalanishda qulayligi bilan xarakterlanadi.

Korpusda barcha nutq uslublariga, tilning turli davrlariga, turli shevalariga xos matnlar o'z aksini topadi. Tarkibidagi matnlarning keng qamrovliligi tufayli u tilning har qanday lug'ati nazaridan chetda qolgan eng kichik va kam uchraydigan dalillarni ham qidiruvchiga nihoyatda qisqa muddat ichida taqdim eta oladi.

Til korpusi lug'atlardan farqli ravishda so'zlarning qo'llanish chastotasi, tillarning rivojlanish va o'zgarish darajasini, hatto bir so'zning qo'llanishi misolida ham aniqlab bera oladi. Korpus asosida tilning tadrijiy taraqqiyoti haqida ham to'laqonli tasavvurga ega bo'lish mumkin. Umuman olganda, korpusda tildagi har qanday so'zning barcha xususiyatlari haqida aniq va ishonchli dalillangan ma'lumotlarni olish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Til korpusi oddiy elektron kutubxonadan farqlanadi. Elektron kutubxonaning maqsadi – xalqning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, iqtisodiy hayotini aks ettiruvchi badiiy va publitsistik asarlarni nisbatan to'liq qamrab olish. Elektron kutubxona matnlari til nuqtayi nazaridan ishlov berilmaganligi sababli tadqiqotlar uchun noqulaylik tug'diradi. Chunki elektron kutubxona ilmiy tadqiqot materiali bazasini tayyorlash maqsadida tuzilmaydi, balki milliy-ma'naviy merosni to'plashni maqsad qilgan bo'ladi. Til korpusi esa elektron kutubxonadan farqli o'laroq, tilni o'rganish va tadqiq qilish uchun zarur, foydali va qiziqarli matnlarni to'plashni nazarda tutadi. Korpusni elektron kutubxonadan ajratib turuvchi birinchi omil undagi matnning xususiyati va qo'shimcha ma'lumot bilan boyitilganligi hisoblanadi hamda bu belgi korpusning alohida qismi – korpus birliklariga yozilgan izohni tashkil etadi. Foydalanuvchiga biror so'z kerak bo'lsa, buni odatiy matn muharriri (tekstovoy redaktor) ham topib beradi. Lekin matndagi til hodisasining ma'nosi, mazmuni va tuzilishini "tushunadigan" dasturiy tizim bilan ishlash juda afzal va qulay. Til birligini qidirish kerak bo'lsa, bunday dasturiy ta'minot, ya'ni korpus tadqiqotchi yoki foydalanuvchiga juda katta yordam berishi mumkin. Agar tadqiqotchi o'z ishi uchun misolni topish, ularni kartotekaga ko'chirish (kompyuter texnologiyalari rivojlanishidan oldingi davrda)ga oylab, ba'zan yillab vaqt sarflagan bo'lsa, bugun dunyo til korpuslari yordamida

sanoqli daqiqada yuzlab misolni topishga, ular ustida ishlash imkoniga ega bo'ldi. Maxsus qidiruv tizimi korpusdan ma'lumot olishga mo'ljallangan bir qancha dasturdan iborat, u statistik axborot va qidiruv natijasini foydalanuvchiga qulay shaklda taqdim eta oladi. Tilda qanday jarayon kechayotganligini aniq tasavvur qilish uchun korpus qamrovini yanada kengaytirish, nafaqat yozma nutq, balki og'zaki nutq materialidan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday korpus yordamida taraqqiyot natijasida tilda sodir bo'lgan va kutilayotgan o'zgarish haqida aniq xulosa chiqarish mumkin.

Til korpusi ikki qism – matnlar maydoni va korpus menedjeri (maxsus qidiruv sistemasi) dan iborat bo'ladi. Til korpusi internet tizimida faoliyat ko'rsatganligi sababli katta iqtisodiy samara ham beradi. Uzluksiz yangilanib, talomillashtirilib borilganligi tufayli esa har doim jamiyat talablariga mos, eskirish xususiyatidan xoli bo'ladi. Korpus lingvistikasi esa tilshunoslikdagi boshqa yo'nalishlardan farqli ravishda iqtisodiy samarador yo'nalish sifatida faoliyat yuritadi.

Korpus bo'yicha qidiruv foydalanuvchiga quyidagilarni aniqlash imkonini beradi:

- 1)belgilangan til birligining turli qo'llanishlardagi barcha shaklli ko'rinishini;
- 2)tilning lug'at tarkibidagi o'rni va variantlarini;
- 3)belgilangan so'z bilan birikish imkoniyatiga ega so'zlar ro'yxatini;
- 4)u yoki bu muallifning ayni so'zdan foydalanish chastotasi yoki statistikasini;
- 5)so'zning o'z va ko'chma ma'nolarini;
- 6)so'z qo'llanishining yashirin modeli (imkoniyati)ni;
- 7)til taraqqiyotining turli davrida qo'llanish holatini.

Korpus turlari:

Korpuslar turli maqsadlarda turli sohalar uchun tuzilishi mumkin. Quyida dunyo tillari bo'yicha yaratilgan korpuslarning tasnifi keltirildi:

Tasnif belgisi	Korpus turlari
Nutq turiga ko'ra	og'zaki, yozma, aralash
Matn tiliga ko'ra	ruscha, inglizcha va h.
Parallelligiga ko'ra	bir tilli, ikki tilli, ko'p tilli

Matnning ixtisoslashuviga ko'ra	badiiy, dialektal, suhbat, terminologik, aralash
Janriga ko'ra	adabiy, folklor, dramatik, publitsistik
Kirish usuliga ko'ra	erkin, pullik, yopiq
Maqsadiga ko'ra	tadqiqiy, tavsifiy
Izohlanishiga ko'ra	qo'shimcha izohli, izohsiz
O'zgaruvchanligiga ko'ra	o'zgaruvchan, turg'un
Strukturasiga ko'ra	markaziy, arxiv, mahalliy
Izoh xususiyatiga ko'ra	morfologik, sintaktik, semantik
Matn hajmiga ko'ra	to'liq matnli, lavha matnli
Xronologik jihatiga ko'ra	sinxron, diaxron
Umumiylikiga ko'ra	umumiy, yakka muallifli, sohaviy

Korpusni yaratish maqsadi:

Korpusning keng ko'lamli bo'lishi ma'lumotning o'ziga xosligini kafolatlaydi, til hodisalarining barcha qirrasini to'liq namoyish etishni ta'minlaydi. Turli tipdagi ma'lumot til korpusida o'zining qo'llanish shaklida joylashadi, bu esa uni har tomonlama va xolis o'rganish uchun asos bo'ladi. Bir marta tuzilgan va tayyorlangan axborotlar massivi bir necha tadqiqotchi tomonidan ko'p marta, turli maqsadda ishlatilishi mumkin. Korpus – tilni tadqiq etish (til birligining o'zgarishi, eskirishi, yangilarining paydo bo'lishi, ma'nosining kengayishi va torayishi; yangi iboralarning paydo bo'lishini kuzatish), o'rganish, an'anaviy va zamonaviy lug'atlar tuzishda keng imkoniyatli dasturlashtirilgan tizim. Korpus bugungi kun na nazariy, na amaliy filologiyasini tasavvur etib bo'ladi.

Tilshunoslikka oid tadqiqotlarda fakt bilan ish ko'riladigan hollarda material yig'ilishi, sistemaga solinishi lozim. Bunday katta hajmli ishni bajarishda korpus vaqt va mehnatni tejaydigan ish quroli vazifasini bajaradi. U – texnik jarayonni tezlashtiruvchi vosita bo'libgina qolmay, ma'lum til zamonaviy shaklining axborot tizimi ham, kutilmagan savolga ham javob bera oladigan, til hodisasi bilan shug'ullanadigan soha oldiga avval qo'yilmagan dolzarb muammolarni qo'ya oladigan tizim.

Korpus tarkibidagi materialning turi va xususiyati:

Mavjud korpuslar tarkibidagi matnlarning nisbatiga qaraydigan bo'lsak, badiiy adabiyot hissasi 40% ni tashkil etishiga guvoh bo'lamiz. Buning tarkibiga memuar asarlar ham kirib ketadiki, bu janr til xususiyati badiiy va publitsistik uslub oraliq'ida, jonli tilni o'rganish uchun ancha qulay. Evropa tillari korpuslarida badiiy adabiyot materiali 20% ni tashkil etadi. Masalan, zamonaviy yozuvchilar til xususiyatini o'rganishga bag'ishlangan 20 dan ortiq tadqiqot mavjud bo'lsa-da, hali to'raligicha bu muammoni o'rganib bo'lindi, deyish qiyin. Chunki alohida yozuvchi asarining til xususiyatidagi o'zgarishga hali tildagi yangi hodisa deb qarab bo'lmaydi. Ana shunday jarayonlarni kuzatish va tadqiq etishning eng qulay vositasi – til korpusi. Shu sababli matnning mazmuni katta ahamiyat kasb etadi. Korpus tarkibiga kiradigan matnlar alohida bir muallif yoki bir necha yozuvchi asaridan olingan, ma'lum davr (bir necha o'n yil yoki yuz yil)ni qamrab olgan, belgilangan mavzudagi, til va jamiyatning bugungi holatini aks ettiruvchi zamonaviy matnlardan iborat bo'lishi ham mumkin.

Korpusning tuzilishi va tarkibi:

Mavjud milliy korpuslarni kuzatish asosida korpusning tuzilishi va tarkibini o'rganar ekanmiz, *korpus interfeysi, qidiruv tizimi va matnlar bazasi* uning eng asosiy tarkibiy qismi, degan xulosaga kelamiz. Rus tili milliy korpusi (Национальный корпус русского языка) joylashgan www.ruscorpora.ru saytining birinchi sahifasida korpus va uning tuzuvchilari haqida asosiy ma'lumot, o'ng tomondagi menyuda istalgan sahifaga o'tish imkoniyati mavjud. Bu korpus menyusi to'rt qismdan iborat. Bosh sahifa, saytning qidiruv resursi, matn haqida unga biriktirilgan qo'shimcha ma'lumot ilovasi, korpus birliklariga izoh yozish printsiplari, oxirgi blok korpus tuzuvchilari jamoasi, foydalanilgan dastur, matnlarning mualliflik huquqi haqida to'liq ma'lumotlar bazasidan iborat.

Albatta, korpusning tuzilishi va tarkibi tilning xususiyatlari, ijtimoiy talab va boshqa jihatlarga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Korpuslar uchun yagona va o'zgarmas andoza belgilanmaydi. Masalan, tuzilajak o'zbek tili korpuslari jamiyatimiz talablaridan kelib chiqqan holda o'ziga xos bo'lishi mumkin. Korpusdagi *milliy*

soʻzi nafaqat tilning, balki korpus tuzilishi va tarkibining ham oʻziga xosligini anglatadi.

Korpusning ijtimoiy ahamiyati:

Korpus katta hajmli lugʻatlarni tuzish uchun manba vazifasini oʻtaydi. Vaqt oʻtishi bilan korpus turli lingvistik yoʻnalishlar uchun ahamiyatli boʻlishi bilan kuchli informatsion resursga aylanadi. Korpus asosida kompyuter yordamida lugʻatlar avvalgiga nisbatan tezlik bilan tuziladi va qayta ishlanadi. Shu yoʻl bilan ish boshlanishidan tugash jarayonigacha (nashrgacha) tilni aks ettirib turadi, lugʻat maqolasi “eskirish”ga ulgurmaydi. Tilning zamonaviy holatini aks ettiruvchi korpus turli davrlarda yashab ijod etgan ijodkorlarning mualliflik korpuslari uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

Korpusning soʻzshunoslik sohasidagi ahamiyati shundaki, soʻzning qoʻllanish davri va chastotasini aniqlashda hech qanday vosita korpusga tenglasha olmaydi. Korpus lingvistikasining keyingi taraqqiyot bosqichida statistik tadqiq metodi kompyuter tarjimasi, nutqni sintezlash va tanish, aniqlash, orfografik tekshiruv kabi lingvistik amallarni bajarishda qoʻl kela boshladi. Rus va Evropa tilshunosligida til boʻyicha qilinadigan barcha tadqiqotlarning korpusga asoslanishi odatiy holga aylangan va hatto baʼzi tadqiqotlarda majburiy ham sanaladi.

Yaqin orada til oʻrganayotgan oʻquvchi yoki uning biror jihatini tadqiq etayotgan kishining bugungi kunda lugʻatga boʻlgan ehtiyoji korpusga koʻchishi shubhasiz.

Gap qurilishini oʻrganishdagi ahamiyati tilning jonli qurilishini, soʻzlarning oʻzaro birikish imkoniyatini tahlil qila olishida koʻrinadi. Anʼanaviy tilshunoslikdagi misolni olishda badiiy asar tiliga tayanish tajribasidan koʻra korpusga tayanish misolning bugungi kun uchun ham ishonarliligini taʼminlaydi. Korpus tarjima dasturlarini yaratishda katta ahamiyatga ega.

Uslubiyatni oʻrganishda matnning uslubiy oʻziga xosligini tahlil etishda ham korpusga tayanish mumkin. Bu amaliyotni bajarishda matnlarning statistik holati tahlilini (matndagi jumlaning uzunligi, bir soʻzning boshqa soʻz bilan birikish holatining doimiy yoki noodatiyligi) aniqlashtiradi. Bunday usulda korpus yordamida yozma nutq bilan birga ogʻzaki nutqni ham oʻrganish mumkin boʻladi. Masalan, rasmiy ish qogʻozlarida hujjat matnida *shartnoma*

bo'yicha talablar shakli ma'qulmi yoki shartnoma talablari konstruktsiyasi to'g'rimi? Korpusga bu tarzda berilgan savolga javob sifatida sanoqli daqiqalarda qaysi shakl ko'proq qo'llanishini aniqlab beradi. Shunday qidiruv natijasida rus tili milliy korpusida *shartnoma bo'yicha talablar konstruktsiyasi* 40 marta, *shartnoma talablari shakli* 3 marta qo'llanganligi to'g'risida statistik ma'lumot beradi. Bu konstruktsiyaning qo'llanishi, albatta, rus tiliga xos, ehtimol, u o'zbek tilida boshqacha natija bersa kerak. Korpusimiz bo'lmaganligi tufayli bu savolga aniq javob bera olmaymiz.

Korpus juda muhim bo'lgan va faol qo'llanadigan soha – lingvodidaktika, u ona tili va xorijiy tilni o'rganishda birdek ahamiyatli. Tilni o'rgatishda lug'at boyligining kattaligini ko'rsata olish, so'zning qo'llanish imkoniyatini u yoki bu grammatik qurilish orqali tushuntirish uchun misollar massivini ko'rsatishda korpus juda qo'l keladi. Til ta'limi uchun muhim bo'lgan misolning doimiy yangilanib borishi, buni aks ettirib turish xususiyati hamda imkoniyati faqat korpusga xos. O'qituvchi yangi, ishonarli, cheksiz hamda xilma-xil misollarni shu yerdan topa oladi, topshiriq va mashqlarni belgilashda qiynalmaydi, bir necha daqiqada mavzu bo'yicha yangi misollardan iborat mashq tayyorlay oladi. Korpusda mavjud matnlarni saralash imkoni mavjud, misolni barcha matnlardan emas, balki izlanuvchi uchun qiziqarli va kerakli bo'lganidan ajratish mumkin. Hatto korpus matnlarini belgilangan davr (hatto aniq yiligacha), matnning aniq bir turi (masalan, reklama matni, ish hujjati yoki shunchaki bir necha muallif asarlari) ni tanlab olish imkoniyati mavjud. Turli mavzu va janrdagi matnlar bilan doimiy boyitilishi korpusning asosiy xususiyatidan biri, u ta'limda yo'naltirib o'qitish imkoniyatini ochadi. Akademik litsey va kollejdagi ona tili barcha yo'nalish va mutaxassisliklarda o'qitiladi. Yo'nalishlarning mavzusi bir xil bo'lishi mumkin, lekin har bir mutaxassislikda mavzuni tushuntirish uchun mos matnni tanlashda korpusdagi imkoniyat birorta manbada yo'q. Aslida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari DTSida maqsad ham egallayotgan mutaxassisligi bo'yicha yozma va og'zaki nutqini rivojlantirish deb belgilangan. Ayni bir mavzu (masalan, so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turi, atamashunoslik, toponim, qo'llanish doirasi chegaralangan leksika va h.) turli yo'nalishda alohida,

ixtisoslashtirilgan matnlar asosida o'rganilishi lozim. Shundagina til ta'limi o'z maqsadiga erishgan bo'ladi. Til ta'limiga bag'ishlangan darslik va qo'llanmalarda iqtisod, moliya, siyosat, huquqshunoslik kabi mavzudagi matnlarga duch kelmaymiz, misolni badiiy asardan olishga odatlanib qolganmiz. Vaholanki, adabiy til badiiy asar tili degani emas. Til ta'limi hayotdan uzilib qolgan: kundalik turmushda o'quvchi tuzadigan, ishlatadigan yoki tahlil etadigan matnlardan uzilib, mashq va topshiriqni jonli tildan olmaslikka ko'nikib qolganmiz.

O'qituvchi uchun korpus tengsiz xazina, undan har bir o'quv mashg'uloti uchun serqirra va mazmunli o'quv materialiy tayyorlash mumkin bo'ladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, korpusda xilma-xil matnlar jamlanib, undan o'qituvchi istalgan shaklda foydalana oladi. Masalan, o'qituvchi topshiriqni tayyorlash uchun faqat badiiy adabiyot parchasidan (yoki nobadiiy matndan: sport, avtobiografiya yoki shunchaki ma'lum ijodkor ijodi bilan chegaralanmoqchi) foydalanmoqchi. Unda "Mening korpusim" ilovasi orqali o'ziga kerakli matnni ajratib olish imkoniy mavjud, ya'ni misollar sirasini chegaralaydi. Korpus turli janr va uslubdagi matnlarni qamrab olganligi sababli har qanday talabni qondirish imkoniga ega. Misol uchun, jurnalistika fakulteti talabalari uchun yozilgan darslikda publitsistik matnlar ancha eskirgan. Har kuni boyitilib boradigan korpusdan yangi misollarni olish, uni talabaga taqdim etish yoki talabaga ham shunday topshiriq berish, albatta, ta'limni bugungi hayotga yaqinlashtiradi.

Til korpusidan o'qituvchi, talaba va maktab o'quvchisi ham ancha unumli foydalanishi mumkin. Chunki faqat korpus orqali juda osonlik bilan kam ishlatiladigan so'z, ibora va birikmani topish, qo'llanishi va yozilishi (orfografiyasi)ni o'rganish mumkin. Ta'kidlash joizki, til korpusida til grammatika va darslik muallifi tavsiflanganidek emas, balki jamiyatda qanday yashasa va ishlasa, shunday aks etadi. Bu esa o'quvchini o'zini o'rab turgan muhit – umumxalq tili va adabiy tilni o'rganishda eng sermahsul vosita bo'lib xizmat qiladi.

Milliy korpus milliy til xazinasidir demak. Undan lingvistlar, leksikograflar, komp'yuter lingvistlari, muharrirlar, tarjimonlar, jurnalistlar, noshirlar, olimlar, o'qituvchilar, ta'lim oluvchilar va

boshqa har qanday soha vakillari foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Dunyo miqyosida tillarning korpuslarini yaratish jadal tus olmoqda. Hatto tilshunoslikning korpus tuzishning nazariy va amaliy masalalari bilan shug‘ullanadigan “Korpus lingvistikasi” deb nomlangan yo‘nalishi ham taraqqiy etmoqda. Bugungi kunda jahon miqyosida “Britaniya Milliy korpusi” (British National corpus) keng ommalashdi va yaratilayotgan boshqa korpuslar ham unga yo‘naltirilmoqda. Ayniqsa, slavyan tillari bo‘yicha Pragadagi Karlovi universitetida yaratilgan “Chex Milliy korpusi”ning nufuzi ham yuqori bo‘lib bormoqda. Bunday fikrlarni yaratilayotgan “Ispan tili korpusi” (100 mln. so‘z, 13-20 asr matnlari asosida), “Zamonaviy dat tili korpusi” (50 mln. so‘z, 1998-2002-yillar matnlari asosida), “Zamonaviy italyan tili korpusi” (100 mln. so‘z), Zamonaviy xitoy tili korpusi” (720 mln. so‘z, 150 mln. iyeroglif), “Nemis tilining Manheym korpusi” (1610 mln. so‘z), “Sloven tilining milliy korpusi” (100 mln. so‘z) kabilarga nisbatan ham aytish mumkin.

Rus tilining 200 mln. so‘zlik matnlardan tashkil topgan ulkan milliy korpusidan tashqari xususiy ko‘rinishlardagi “Upsal korpusi”, “Tyubingen korpusi”, “Rus tilining mashina fondi”, “Rus matnlarining Xelsinki korpusi”, “XX asr oxiri rus gazeta matnlari korpusi” (MDU), “Rus adabiy tilli milliy korpusi” (SPb) kabi qator korpuslar ham yaratilayotganligi uning nechog‘lik ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida ham milliy til korpusi yaratish ishlari boshlangan. Jumladan, “Qozoq tilining milliy korpusi”, “Tojik tilining milliy korpusi” kabilar bunga misol.

XIX asr globallashuv asri ekanligi til korpuslarini yaratish masalasida ham yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Xususan, dunyo milliy til korpuslarining “Britaniya Milliy korpusi” tizimiga yo‘naltirilayotgani fikrimizning dalili. Bunda til korpuslarining internet ichki to‘ri orqali dunyo tillarini qamrab olish mo‘ljallanmoqda. Shu tarzda global korpuslar to‘ri yaratiladi. Chunonchi, bir til korpusiga kirgan kishi bemalol u orqali butun dunyo tillari korpuslaridan xabardor bo‘lish imkoniga ega bo‘ladi.

O‘zbek tilining milliy korpusini yaratish ishlari endi boshlanmoqda. Dunyo tamaddunining bugungi shiddatli sur‘ati

boshqa tillar qatori o‘zbek tilining ham milliy korpusini yaratishni taqozo qilmoqda.

Savol va topshiriqlar

1. Til korpusi tushunchasiga izoh bering.
2. Til korpuslarining ijtimoiy ahamiyatini yoriting.
3. Til korpuslarining so‘zshunoslik, ya’ni leksikologiyadagi o‘rnini qanday baholaysiz?
4. Til korpuslarining tuzilishi va tarkibiga tavsif bering.
5. Til korpusining ta’lim, til o‘rganish va o‘rgatish ishlaridagi ahamiyatini yoriting.
6. O‘zbek tilining milliy korpusini yaratish ishlariga qanday baho berasiz?

Test

1. Til korpusi...

- A. * Til birliklarining xususiyatlarini aniqlash maqsadida qidiruv dasturiga bo‘ysundirilgan matnlar majmui;
- B. Muayyan tildagi lug‘atlarning umumiy majmui;
- C. Muayyan tilning barcha uslublariga xos bo‘lgan so‘z boyligi majmui;
- D. Muayyan tilning barcha uslublariga xos iste’molda bo‘lgan so‘z boyligi yig‘indisi;

2. Til korpusi qanday qismlardan tarkib topadi?

- A. * Til korpusi ikki qism – matnlar maydoni va korpus menedjeri (maxsus qidiruv sistemasi) dan iborat bo‘ladi;
- B. Til korpusi bitta qism – matnlar maydonidan iborat bo‘ladi;
- C. Til korpusi bitta qism – korpus menedjeri (maxsus qidiruv sistemasi)dan iborat bo‘ladi;
- D. Til korpusi uchta qism – matnlar maydoni, korpus menedjeri va korpus foydalanuvchisidan iborat bo‘ladi.

3. Til korpuslari xronologik jihatiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?

- A. *Sinxron va diaxron turlarga;
- B. O‘zgaruvchan va turg‘un turlarga;
- C. Tadqiqiy va tavsifiy turlarga;
- D. Qo‘shimcha izohli va izohsiz turlarga.

4. Korpus tuzishning nazariy va amaliy masalalari bilan tilshunoslikning qaysi sjhasi shug‘ullanadi?

- A. *Korpus lingvistikasi;
- B. Kompyuter lingvistikasi;
- C. Lingvodidaktika;
- D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

5. Matnning ixtisoslashuviga ko‘ra til korpuslari qanday turlarga bo‘linadi?

- A. *Badiiy, dialektal, suhbat, terminologik, aralash;
- B. Og‘zaki, yozma, aralash;
- C. Morfologik, sintaktik, semantik;
- D. Adabiy, folklor, dramatik, publitsistik.

6. Jahonda til korpuslarining internet orqali qamrab olinishi natijasida...

- A. *Global til korpuslarini yatrash mo‘ljallanmoqda;
- B. Milliy til korpuslarining imkoniyatlari kengaymoqda;
- C. Korpus lingvistikasi yo‘nalishi taraqqiyoti ta‘minlanmoqda;
- D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

Adabiyotlar

1. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.

2. Мадвалиев А. Луғат ва луғат турлари ҳақида. – Ўзбек миллий лексикографиясининг долзарб масалалари мавзуидаги илмий-назарий анжуман материаллари тўплами, ТошДЎТАУ. – Тошкент, 2017.

3. Менглиев Б. Ўзбек тилининг миллий корпусини яратиш - долзарб вазифа. – Ўзбек миллий лексикографиясининг долзарб масалалари мавзуидаги илмий-назарий анжуман материаллари тўплами, ТошДЎТАУ. – Тошкент, 2017.

4. Столяров А.И. Словарь-конкорданс и его применение в рамках корпусной лингвистики // Гуманитарные научные исследования. – 2017. № 2 [Электронный ресурс]. URL: <http://human.snauka.ru/2017/02/21074> (дата обращения: 29.09.2017).

5. Труфанова М.В. Применение цифрового словаря с корпусом для работы над лингвистическими проектами по немецкому языку // Социально-экономические явления и процессы. 2011. - №8 С. 229-232.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1. “Leksikografiya asoslari” fanining vujudga kelishi, o‘rganish ob’ekti va predmeti.....	6
2. XI-XII asrlarda turkiy lug‘atchilik.....	22
3. XIII-XIV asrlarda turkiy lug‘atchilik.....	34
4. O‘zbek lug‘atchiligining eski o‘zbek tli davri.....	44
5. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr o‘rtalarida o‘zbek lug‘atchiligi.....	57
6. Mustaqillik davri o‘zbek lug‘atchiligi.....	73
7. Ensiklopedik, etimologik, imlo va izohli lug‘atlarning yaratilishi.....	84
8. Elektron lug‘atlar va ularni yaratish asoslari. Internet lug‘atlari.....	96
9. Til korpusi. Milliy va global korpuslar.....	105

“Nodirabegim” nashriyoti

Nashriyot litsenziyasi AI № 313. 24.11.2017 y.

Bosishga ruxsat etildi: 15.10.2020.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog‘i 9,75. Adadi 100 nusxa.

100129, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,

Navoiy kochasi, 30-uy.

OOO “AKTIV PRINT” bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Chilonzor 25, Lutfiy 1A.